**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA"LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**
**O'ZBEK-XITOY ILMIY TADQIQOT MARKAZI**

BIBISARA SADIBEKOVA

# XITOY TASHQI IQTISODIY FAOLIYATI

Monografiya

TOSHKENT "DONISHMAND ZIYOSI" 2023

UDK: 338 (510) (075)
BBK 65,9 (5Кит)
S18

**Gulchehra Rixsiyeva “O’zbekiston xitoyshunoslik tadqiqotlari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihasi ilmiy rahbari**

**Loyiha rahbari**
Sabohat Xashimova, filologiya fanlari doktori, dotsent

**Ma’sul muharrir:**
Farida Nazarova, iqtisod fanlari doktori, professor

Sadibekova Bibisara. Xitoy tashqi iqtisodiy faoliyati (Matn): monografiya / B.Sadibekova.-T:, “Donishmand ziyosi” nashriyoti, 2023.- 125 b

Jahon iqtisodiyotining yetakchi mamlakatlaridan biri va o‘z maqomiga ko’ra rivojlanayotgan mamlakat hisoblangan Xitoy Xalq Respublikasi hozirgi davrda dunyoning ikkinchi iqtisodiyotiga aylangan. O’zining iqtisodiy rivojlanishi va salohiyati jihatidan kuchli hisoblangan dunyoning yetakchi mamlakatlari, xususan, AQSh, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi davlatlari kabi Xitoy ham iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy rivojlanish hamda tashqi iqtisodiy faoliyati sohalari bo‘yicha yo’qori raqobatlashish darajasiga chiqdi. Chunki, Xitoy bugun xalqaro maydonda o‘zining olib borayotgan siyosati, xalqaro iqtisodiy munosabatlarida, iqtisodiy rivojlanishida yetarlicha salohiyatga egadir. Aynan, shu nuqtai nazardan, Xitoy iqtisodiy rivojlanish modelidagi uning asosiy yo‘nalishi hisoblangan, tashqi iqtisodiy faoliyati va iqtisodiy islohotlar jarayohlarini o’rganib chiqish mazkur davrning asosiy masalalariga aylanmoqda.

“Xitoy tashqi iqtisodiy faoliyati” nomli monogtafiya mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlanish bosqichlari, uning mashxur “Ochiq eshiklar siyosati”, tashqi savdoning rivojlanish shart – sharoitlari, unga ta’sir etgan omillar va tashqi iqtisodiy aloqalarining muhim jihatlarini qamrab olgan.

Mazkur monografiya Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik yo‘nalishidagi ilmiy izlanuvchilar va bu sohada taxsil olayotgan talabalar hamda magistrantlar uchun mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:
1. Ermamatov Sh.J.– Tosh TDShU iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
2. Gulyamova G.P. - O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi “Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, i.f.n.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2023 yil 1 aprekidagi majlisi 8-sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya qilingan.

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2023
© “Donishmand ziyosi, 2023

ISBN 978-9943-9540-5-2

# KIRISH

Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiyoti so`nggi salkam yarim asr vaqt mobaynida jahon iqtisodiyoti bilan integratsiyalashuvi natijasida, mamlakatning Jahon savdosida o‘z o`rni va ro‘lini oshishiga sabab bo`ldi. Hozirga davrga kelib, Xitoy Xalq Respublikasi yildan-yilga ham import, ham eksport hajmini muntazam ravishda oshirib bormoqda. Bu esa, o`z navbatida, birinchidan, ko`pgina mamlakatlarning iqtisodiyoti Xitoy iqtisodiyoti bilan bog`lanib qolishiga sabab bo`lsa, ikkinchidan,  Xitoyning jahon iqtisodiyotidagi yetakchilik ro‘lini oshishiga olib kelmoqda.

O`zbekiston tashqi siyosatida jahondagi barcha mamlakatlar bilan ijobiy hamkorlik, tinchliksevar siyosati orqali o`z nufuzini oshirib bormoqda. Mamlakatimizda investitsiya iqlimini yaxshilash, eksport salohiyatini oshirish, biznesni jadal rivojlantirish uchun asos sifatida investitsiya va tashqi savdo faoliyatini samarali tartibga solish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, investitsiya jarayonining mahsulotni tashqi bozorlarda ilgari surish yakuniy ko‘rsatkichlari bilan sust bog‘langanligi saqlanib qolmoqda. Davlat boshqaruvining amaldagi tizimi investitsiya va savdo masalalarini alohida tartibga solishga asoslangan, bu esa mazkur sohalarda tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Yoqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda uning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator farmoishlari va qarorlari e’lon qilindi. Shu o‘rinda Xitoy Xalq Respublikasining O'zbekiston Respublikasidagi elchisi Szyan YaN xonimning quyidagi fikrlarini eslash joiz: "So'nggi to'rt yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida turli sohalarda qisqa, o 'rta va uzoq muddatli istiqbolga mo 'ljallangan ko 'plab strategiyalar, konsepsiyalar va chora-tadbirlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular mamlakatning ulkan salohiyatini ochib berdi.Biz mamlakatda jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning guvohi bo'lmoqdamiz, tashqi dunyoga ochiqlik oshmoqda, O'zbekistonning mintaqadagi va umuman dunyodagi o'rni va mavqei sezilarli darajada mustahkamlanmoqda. Ta'kidlash joiz, so'nggi yillarda Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning strategik rahnamoligi ostida Xitoy-O'zbekiston munosabatlari jadal rivojlanmoqda"[1]

---

1 Szyan YaN, Xitoy Xalq Respublikasining O'zbekiston Respublikasidagi elchisining nutqi, 2019 y.

Xitoy iqtisodiyotinining tez sur`atlarda rivojlanishi, uning jahon xo`jaligida ta`sir kuchini ortib borish omili va shu jarayonga ta`sir qilayotgan asosiy omil mamlakatning tashqi savdosi hisoblanadi. Shular bilan birgalikda, o`z navbatida, Xitoy tashqi savdosiga ham ta`sir ko`rsatayotgan omillar mavjud bo`lib, ular sirasiga barqaror siyosiy tizim, boy tabiiy resurslar zahirasi va ulkan miqdordagi ishchi kuchi kiradi. Bundan tashqari, mamlakatdagi iqtisodiy barqarorlikni davlat tomonidan qo`llab-quvvatlanishi, ya`ni huquqiy bazani samarali tashkil qilinganligi, iqtisodiy islohotlarning natijaviyligi Xitoy tashqi savdosini tez sur`atlarda jadal o`sishini rag`batlantirmoqda.

Xitoy XXI asr boshlarida Jahon xo`jaligida "Jahon fabrikasi" maqomiga ega bo`ldi. 1979 yildan so`ng Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiyoti yangi bosqichga o`tganidan keyin iqtisodiy islohotlar mamlakat darajasida amalga oshirila boshlandi. Ya`ni, ushbu yildan keyingi iqtisodiy islohotlar, "Ochiq eshiklar siyosati" Xitoy tashqi savdosini xalqaro maydonda tez sur`atlarda o`sishiga zamin yaratdi. Bu esa o`z navbatida mamlakat iqtisodiyotini o`sishiga, ishsizlikni oldini olinishiga, YaIM hajmini oshishiga yordam berdi.

Shuningdek, Xitoyning xalqaro savdoda qatnashishi mamlakatda yangi modernizatsiya va diversifikatsiya qilingan sanoat tarmoqlarini paydo bo`lishi, yangi innovatsion texnoligiyalarga asoslangan mahsulotlarni ishlab chiqarishga keng yo`l ochib berdi. Xususan, 1990 yillarda import qilingan yangi texnologiyalar ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmi va sifatiga ta`sir qilmasdan, balki Xitoyning xalqaro tajribani o`rganishiga xizmat qildi. Xitoy Xalq Respublikasi 2001 yilda Jahon savdo Tashkilotiga a`zo bo`lganidan so`ng, mamlakat tashqi savdosida sezirarli o`zgarishlarga sabab bo`ldi va Xitoy Xalq Respublikasining zamonaviy tashqi savdo tizimini yaratdi[2].

Xitoy Xalq Respublikasi Jahon savdo tashkilotiga a`zo bo`lishi uchun salkam 15 yillik harakatni amalga oshirdi. Bu davr mobaynida o`zing tashqi savdo strategiyasi va uning nazariy va huquqiy asoslarini belgilab olgan bo`lsa, 2001 yildan so`ng esa aytish mumkinki, Xitoy Xalq Respublikasi uchun yangi davr boshlandi. Ushbu davr Xitoy Xalq Respublikasi tashqi savdo rivojlanishining hozirgi zamonaviy holatini o`zida aks ettiradi, mamkakat hukumati tashqi savdo strategiyasini aynan hozirgi bosqichi chet el mamlakatlarida transmilliy kompaniyalar sonini ko`paytirish va eksportni qo`llab-quvvatlashga qaratilgan bo`lib, ushbu islohot natijalari amalda ham ro`y bermoqda. Xitoy Xalq Respublikasi hozirgi kunga kelib Jahon xo`jaligida tovar aylanmasi bo`yicha eng yirik davlatga aylanib bo`ldi. Bundan tashqari, tashqi savdo geografiyasi va dinamikasi so`ngi yillarda sezirarli ravishda oshib bormoqda.

Hozirgi davrdagi Xitoy Xalq Respublikasi hukumati tomonidan yuqoridagi islohotlarning

[2]Nicolas Blancher, WTO accession and economic growth in China, 2013 y, Washington, Economic paper work 32-33 pages

olib borilishi, Xitoy Xalq Respublikasi tashqi savdo strategiyasini yaratilishi va tashqi savdo islohotlarini mamlakat hukumati va XKPsi tomonidan olib borilishi, Xitoy Xalq Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a`zo bo`lishi, turli yillar mobaynida tashqi savdo hamkorlarining geografiyasi, shuningdek, eksport va import tarkibining o`zgarib borishi va Xitoy Xalq Respublikasi tashqi savdosining jahon savdosida o`rnini va ta`sir kuchini oshib borishining zamonaviy holati, Xitoy Xalq Respublikasi va O`zbekiston Respublikasi o`zaro savdo aloqalarining rivojlanishi va o`zaro hamkorlikning istiqbollari  kengayib borishiga olib kelmoqda.

# I-BOB: XITOY TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINING MAQSAD VA VAZIFALARI

## 1.1. Xitoy tashqi iqtisodiy faoliyatining mohiyati

XXI asrning birinchi o'n yilligida Xitoy o'zining faol tashqi iqtisodiy va savdo aloqalarini amalga oshirish borasida katta yutuqlarga erishdi. (ayniqsa, eksport sohasida). U o'zining oqilona eksport siyosati orqali, iqtisodiyotini jadallik bilan rivojlanishiga imkon yaratib, tashqi savdoda tez sur'atlar bilan rivojlandi,

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev o'z qarorlarida tashqi savdoni va umuman, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga katta e'tibor berib kelmoqdalar. Jumladan: 2018 — 2022 yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo'nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorlarida quyidagi gaplar keltirib o'tilgan – “O'zbekiston Respublikasining ortib borayotgan eksport salohiyati hamda mahalliy mahsulotni sotish bozorlarini kengaytirish zarurligi tashqi savdo yo'nalishlarini yanada diversifikatsiyalash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, O'zbekiston Respublikasining eksport mahsuloti istiqbolli xalqaro bozorlarga chiqishini ta'minlaydigan maksimal darajada samarali, muqobil tranzit yo'laklarini shakllantirish borasida qo'shimcha ildam choralar ko'rilishini taqozo etmoqda” .[3]

Xitoy tashqi iqtisodiy faoliyati fanning maqsadi – talabalarda bozor iqtisodiyoti sharoitida uning tashqi savdo ko‘rsatkichlarini yuqori darajadagi iqtisodiy o‘sish sur’atlariga olib kelish yo‘llari va usullarini iqtisodiy rivojlanish nuqtai nazaridan, tajriba sifatida o‘rgatish natijasida, mos holda, mavjud yo‘nalish profiliga mos bilim, ko‘nikma va malaka larni shakllantirish hisoblanadi.

Fanning vazifalari – talabalarga Xitoyning tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanish bosqichlarini, mamlakat iqtisodiyotida yuz berayotgan barcha makroiqtisodiy jarayonlarni, ya’ni iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar, ularning kelib chiqish omillari, sabab va oqibatlari hamda xususiyatlarini batafsil o‘rgatishdan iboratdir.

Ta’kidlash lozimki, oxirgi 40 yildan ortiq vaqt mobaynida, ya’ni, (1979-2021 yillar) mamlakatda tashqi savdo siyosatidagi amalga oshirilayotgan islohotlar davomida, uning tashqi iqtisodiy faoliyati va tashqi dunyoga ochiqlik tizimlari shakllandi. Xozirgi davrda Xitoy o‘zining tashqi savdosi bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinlarni egallab kelmoqda.

XVI-XIX asrlar davomida, buyuk jug‘rofiy kashfiyotlar, sanoat to‘ntarilishi va yaxlit milliy davlatlarning vujudga kelishi, tashqi savdo operatsiyalari hajmi va nomenklatkrasini

---

[3] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining“2018 — 2022-yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 02.12.2017 sanadagi PQ-3422 sonli qarori http://lex.uz

sezilarli darajada kengayishiga sabab bo‘ldi. Shu munosabat bilan, xalqaro savdo nazariyalariyalarini o‘rganishga katta e’tibor qaratildi.

Klassik siyosiy iqtisodning asoschilaridan biri bo’lgan, shodland professori A. Smit o‘zining “Xalq boyligining tabiyati va sabablari to‘g‘risida tadqiqotlar”[4] deb nomlangan mashhur kitobida mamlakatlar o‘rtasidagi savdoning nazariy modelini yaratishga katta e’tibor beradi, mamlakatlar jug‘rofiy joylashuvining har xilligi natijasida, u yoki bu tovarlarni ishlab chiqarish harajatlarining bir xil bo‘lmasligi tufayli yuzaga keladigan xalqaro mehnat taqsimoti - bu modelning asosini tashkil etadi.

Buyuk iqtisodchi ilgari surgan tamoyillarda ratsional fikrga tayanuvchi xo‘jalik sub’ektining maqsadga muvofiq muomala prinsiplari tashqi savdo sohasiga ko‘chiriladi: tadbirkor o‘z mamlakatidagiga nisbatan xorijdan past narxda tovar sotib olar ekan, o‘z mamlakatidagi mavjud ma’lum ustunliklar natijasida, ishlab chiqarishi arzon tushadigan tovar tayorlashni maqsad qiladi. Bunday vaziyatda davlatning xalqaro savdodagi roli eng kam darajaga kamaytiriladi, tovarlar oqimini esa, bozordagi “ko‘rinmas qo‘l”, ya’ni raqobat belgilaydi.

Shunday qilib, mehnat taqsimoti va mamlakatlarning o‘zlari mutlaq ustunlikka ega bo‘lgan tovarlarni ishlab chiqarishiga ixtisoslashuvini, keyinchalik, ya’ni ichki ehtiyojlari qondirilgandan so‘ng, bu tovarlarni boshqa mamlakatlarda kam sarf harajatlarga ega bo‘lgan tovarlarga ayirboshlash, o‘zaro savdo qiluvchi mamlakatlarga resurslarni tejash hisobiga harajatlarni qisqartirish imkonini beradi.

Demak, mamlakatlarni kamroq xarajatlar bilan biror bir mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi shu mamlakat uchun qo‘shimcha foyda keltiradi.

O’z o’rnida shuni ta’kidlash lozimki, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning an’anaviy va eng rivojlangan ko‘rinishi tashqi savdo hisoblanadi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar umumiy hajmining 80%i savdoning ulushiga to‘g‘ri keladi.

Har qanday mamlakat uchun, uning tashqi savdosini roli benihoya kattadir.J.Saksning fikricha, «dunyodagi har qanday davlatning iqtisodiy muvaffaqiyati tashqi savdoda yuzaga keladi. Hozirgi davrgacha hech bir mamlakat jahon iqtisodiy tizimidan ajragan holda, sog‘lom iqtisodiyot hosil qila olgani yo‘q».[5]

Tashqi savdoda xalqaro mehnat taqsimoti asosida paydo bo‘ladigan turli mamlakatlar - tovar ishlab chiqaruvchilari o‘rtasidagi aloqalarning bir shakli bo‘lib, ular o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy bog‘liqlikni namoyon qiladi.

---

[4]A. Smit “Xalq boyligining tabiyati va sabablari to‘g‘risida tadqiqotlar’, 1817.

[5]Международная экономика - Алексей Киреев, часть-I, Москва, 2000, 87 с.

Mamlakatlar iqtisodiyotidagi informatsion texnologiyalar inqilobi ta’siri ostida ro‘y berayotgan tarkibiy o‘zgarishlar, sanoat ishlab chiqarishining ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi, milliy xo‘jaliklarning o‘zaro hamkorligini kuchaytirmoqda. Bu esa, o’z navbatida, xalqaro savdoning faollashuviga imkon yaratmoqda.Buning asosida xalqaro savdo ishlab chiqarishga nisbatan, tezroqo‘smoqda. Tashqi savdo aylanmasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, jahonda ishlab chiqarish 10%ga ko‘payganda, jahon savdosi 25-30 %ga o‘smoqda.[6]

«Tashqi savdo» deganda bir mamlakatning boshqa bir mamlakat bilan haq to‘lanadigan olib kirish, ya’ni, import va haq to‘lanadigan olib chiqish, ya’ni, eksportdan iborat savdosi nazarda tutiladi.

Tashqi savdo faoliyati tovar ixtisoslashuviga ko‘ra, tayyor mahsulotlar savdosi, mashina va uskunalar savdosi, xom-ashyo savdosi va xizmatlar savdosiga bo‘linadi.

Dunyodagi barcha mamlakatlarning haq to‘lanadigan tovar aylanmasi yig‘indisi xalqaro savdo deb ataladi.

Tashqi savdo tushunchasi torroq ma’noda ham ishlatiladi. Masalan, sanoati rivojlangan mamlakatlar tovar aylanmasi yigindisi, rivojlanayotgan davlatlar tovar aylanmasining yigindisi va x.k.

Barcha davlatlar oldida tashqi savdo bo’yicha milliy siyosat tanlash muammosi yotadi. Ikki asr mobaynida ushbu mavzuda tortishuvlar hagacha poyoniga yetgani yo’q.

Erkin savdo yoki proteksionizm siyosatini tanlash yoki uni qanday bo‘lsa shu holda saqlash, oldingi asrlarga xos bo’lgan xususiyatlardan biri edi. Hozirgi davrga kelib, bu ikki yo’nalish o‘zaro bog‘liq hisoblanadi. Ammo, ko‘p hollarda, bu qarama-qarshi birlik erkin savdo tamoyilining bosh ro‘lini bajaradi.

Erkin savdo siyosatiga birinchi bo‘lib, A.Smit tomonidan ta’rif berilgan. Adam Smit «ayirboshlash har bir mamlakat uchun foydalidir; har bir mamlakat bunda mutloq ustunlikka ega bo‘lishini» ta’kidlagan.[7] Adam Smitning tahlillari klassik nazariyaning asosi hisoblandi va erkin savdo siyosatining har qanday shakli uchun asos bo‘lib qolmoqda. Biroq, bu muhokamalarni oxirigacha davom ettirar ekanmiz, shunday xulosaga kelish mumkin: agar davlat xorijdan kerakli narsalarning hammasini, eng arzon narxda va cheklanmagan miqdorda topishi mumkin bo‘lsa, hamma narsani xorijdan olish, uning manfaatlari uchun xizmat qiladi. Uning o‘zi esa, sotish uchun biron bir narsani ishlab chiqaradimi? Hech narsa buni kafolatlamaydi. U holda, sotib olgan tovarlari uchun u mablag’ni qanday to‘laydi? Demak, mutloq ustunlik nazariyasi “berk ko‘cha”ga olib kiradi.

---

[6]Trade and Development Report, 2008, UN ва UNCTAD Handbook of Statistics, 2008 маълумотлари
[7]Теория международных отношении- П.А.Цыганков, Москва Учеб.пособие 2003 г. 471с

D. Rikardo «Siyosiy iqtisod va soliq solishning boshlanishi» (1817-yil) ishida A.Smitning nazariyasini yanada takomillashtirib, "boshi berk koʻcha"dan oʼzining klassik nazariyasini keltirib chiqardi. U xalqaro ixtisoslashuv mezonlarini ajratgan holda, davlatlar uchun qanday holatlarda davlatlararo ayrboshlash manfaatli ekanini koʻrsatib berdi.

Har bir davlat uchun ustunlik qilgan yoki kuchsizligi nisbatan kamroq boʻlgan sohaga ixtisoslashish manfaat keltiradi. Uning muhokamalari ustunliklarni taqqoslanishi nazariyasi yoki prisipida oʻz aksini topdi.

D. Rikardo xalqaro ayirboshlash barcha davlatlar uchun mumkin va manfaatli deb hisoblaydi. U ayrboshlashni barcha uchun foydali boʻlgan narx zonalarini aniqlab berdi.

Djon Styuart Mill oʻzining «siyosiy iqtisod asoslari» (1848-yil) ishida qanday narxda ayrboshlashni amalga oshirilishini koʻrsatdi. Dj.Millning nazariyasiga koʻra, ayirboshlash narxi talab va taklif qonuniga binoan, har bir davlatning yalpi eksport miqdori yalpi import miqdorini qoplaydigan darajada belgilanadi. Dj.Millning muhim xizmatlaridan biri - uning "Xalqaro narx qonuni" yoki «xalqaro narx nazariyasi»hisoblanadi.

U "Xalqaro narx qonun"ida taʼkidlashicha, shunday narx mavjudki, u davlatlar orasidagi tovar ayirboshlashni optimallashtiradi deydi. Bu esa, bozor narxi talab va taklifga bogʻliadir.

Klassik burjua iqtisodiyotining nazarisini rivojlantirishga qaratilgan soʻzlar Gotfrid Xaberler tomonidan aytilgan edi.U nuqtai nazarini nafaqat, mehnatga balki, ishlab chiqarishning barcha omillariga eʼtiborni qaratdi.

Xalqaro savdo oqimini nima bilan aniqlanishi va uning tarkibini Eli Xeksher va Bertil Olin oʻzlarining zamonaviy qarashlarida aks ettirganlar. Ular nisbiy ustunlik tushunasini quyidagicha izohlaganlar: u yoki bu davlatning maʼlum bir tovarlarga ixtisoslashishi, ularni ishlab chiqarish omillariga egalik darajasiga bogliqdir. E.Xeksher va B.Olin «narxlarning ishlab chiqarish omillariga tenglashtirish» teoremasini ilgari surdilar. [8]

1948-yilda Amerikalik iqtisodchilar P. Samuelson va V. Stolper oʻz teoremalarini kiritib, Xeksher-Olin teoremasining isbotini mukammallashtirdilar: ishlab chiqarish omillari, texnika bir xil boʻlsa, mukammal raqobat va tovarlarning toʻla xarakatchanligi mavjud boʻlganda, xalqaro ayirboshlash ishlab chiqarish omillarining davlatlar orasidagi narxini tenglashtiradi.

Tashqi savdo nazariyasi Amerika iqtisodchisi V. Leontʼyevning «Leontʼyev paradoksi» nomli ishida yanada rivojlantirildi. Paradoks shundaki, V.Leontʼyev Xeksher-Olin teoremasidan foydalanib, Amerika iqtisodini urushdan keyingi davrda, kapitalga nisbatan mehnatni koʻproq talab qiladigan ishlab chiqarishga ixtisoslashganini koʻrsatdi. Boshqacha qilib aytganda, AQSh eksporti uning importiga nisbatan, koʻprok mehnattalab va kamroq

[8]Теория международных отношении- П.А.Цыганков, Москва Учеб.пособие 2003 г 474с

kapitaltalabdir. Bu xulosa AQSh iqtisodiyoti haqidagi oldingi barcha fikrlarga tamoman teskaridir. Umumiy fikrga ko‘ra, AQSh iqtisodiyotida kapital doimiy ravishda ortiqcha edi va Xeksher-Olin teoremasiga ko‘ra, AQSh kapitaltalab tovarlarni import emas, eksport qilishlari lozim edi.

Keyingi yillarda V. Leont’yev ixtirosi keng rezonans oldi. Turli davlatlarning ko‘plab iqtisodchi olimlari «Leont’yev paradoksini» tushuntirib bu mavzuda tortishdilar. Natijada, nisbiy ustunlik nazariyasi yanada rivojlandi. Unga texnik rivojlanish va uni taqsimlanishining teng emasligi, mablag‘larni firmadan tashqarida iqtisod qilish, davlatlardagi ish haqining farqi va boshqa tushunchalar kiritildi.

XX-asrning ikkinchi yarmidan boshlab, xalqaro savdo tez sur’atlar bilan rivojlandi. 1950-1994-yillar orasidagi davrda xalqaro savdo aylanmasi 14 barobar o‘sdi. G‘arb mutaxassislarining fikricha, 1950 va 1970-yillar oralig’idagi davrni xalqaro savdoning «oltin asri» deb aytish mumkin. Aynan, shu davrda jahon eksporti yiliga o’rtacha 7%ga o’sdi. Ammo, 70-yillardayoq, u 5%ga tushdi va 80-yillarga kelib, u yana kamaydi. 1980-yillarning oxirida jahon eksporti sezilarli ravishda jonlandi (1988-y.da 8,5%)[9].

Xalqaro savdoning barqaror o‘sishiga qator omillar ta’sir ko‘rsatdi:

- xalqaro mehnat taqsimoti va ishlab chiqarishning baynalmilalashuvini rivojlanishi;
- informatsion texnologiyalar inqilobi;
- jahon bozorida transmilliy korporatsiyalarning faoliyati;
- xalqaro savdoning GATT (Jahon SavdoTashkiloti) faoliyati orqali tartibga solinishi;
- xalqaro savdoning erkinlashtirilishi, ko‘plab davlatlarning importni miqdor jihatdan cheklashni bekor qiluvchi va bojlarni keskin qisqartiruvchi tartibga o‘tishlari, erkin savdo xududlarining tashkil topishi;
- savdo-iqtisodiy integratsiya jarayonlarining rivojlanishi: mintaqaviy to‘siqlarning olib tashlanishi, umumiy bozorlar, erkin savdo xududlarining tashkil etilishi;
- sobiq mustamlaka davlatlarning mustaqillikka erishishlari. Ular orasidan tashqi bozorga yo’naltirilgan iqtisodiyot modelini tanlagan «Yangi industrial davlatlarning» ajralib chiqishi.[10]

Yuqoridagi nazariyalarni kengroq va chuqurroq tahlil etib chiqadigan bo‘lsak, XXasrning birinchi choragida D.Rikardoning "nisbiy ustunliklar" nazariyasida muayyan o‘zgarishlar yuz berib, u D.Xeksher B.Olinning ishlab chiqarish omillari nisbati to’g’risidagi yangi klassik modeliga aylandi. David Rikardoning nazariyasi faqat, har bir mamlakat ishlab

[9]Теория международных отношении - П.А.Цыганков, Москва Учеб.пособие 2003 г. 477с
[10]O‘sha joyda, 492c

chiqarish chiqimlari boshqa mamlakatlardagiga qaraganda kamroq bo‘lgan mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashishi kerakligiga asoslandi.

Shved iqsodchilari Eli Xeksher bilan Bertil Olin faqat xarajatlar darajasinigina emas, balki, ularning tuzilishini ham hisobga olish zarurligini asoslab berdi. Chunki, ishlab chiqarishning xususiyatiga bog‘liq holda kapital, material, energiya va mehnat sarflari ham har xil bo‘ladi. Ishlab chiqarishning mehnat talab turlari arzon ishchi kuchi ortiqcha bo‘lgan mamlakatlarda, energiyani ko‘p talab qiladigan ishlab chiqarishlar esa, energiya resurslariga boy mamlakatlarda joylashtirilishi kerak va hokazolar. Xeksher-Olining (bundan keyin XO nazariyasi) xalqaro savdo modeli D.Rikardoning "nisbiy ustunliklar" nazariyasini inkor etmaydi, balki uni yanada mukammallashtiradi va aniqlashtiradi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat tashqi savdoga asoslanadi, chunki bunday faoliyat tufayli mamlakatlar o‘z ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatiga egadirlar. Tashqi iqtisodiy faoliyatning tarkibiy qismlari – tashqi savdo, korxonalarning tashqi bozordagi investitsion va boshqa faoliyatlari hisoblanadi.

“Tashqi savdo” va “tashqi iqtisodiy faoliyat” tushunchalarini “tashqi savdo faoliyati ” (foreign economic relations) – tovarlar, xizmatlar, ma’lumotlar intellektual faoliyati natijalari, jumladan, ularga egalik qilish huquqi sifatida xalqaro ayriboshlash sohalaridagi tadbirkorlik faoliyati deb qarash mumkin.

Xalqaro savdoga zamonaviy qarashlar o‘z ichiga bir nechta nazariyani oladi, u Adam Smit allaqachon ta’riflab bergan mutlaq ustunlik nazariyasidan (1776 yil) boshlanadi. U har bir mamlakatda boshqa mamlakatlardagiga qaraganda ancha kam chiqimlar bilan tovarlar va xizmatlarning muayyan turlarini ishlab chiqarishga imkon beradigan mutlaq ustunlik mavjudligini isbotlab berdi (bunday ustunlik tabiiy tusda bo‘lishi yoki iqtisodiy rivojlanish jarayonida qo‘lga kiritilishi mumkin).

Savdo o‘zaro foydali bo‘lishi uchun mamlakatlarning har biri shunday mutlaq ustunlikka ega bo‘lishi kerak. Dunyodagi turli davlatlar iqtisodiy faoliyatini ixtisoslashtirishning asosiy shart-sharoitlaridan biri ham ana shundadir. Smit nazariyasidan ixtisoslashtirish (spesializatsiya) qanchalik chuqur bo‘lsa, mamlakat oladigan foyda ham shunchalik ko‘p bo‘ladi degan xulosa kelib chiqadi.

## 1.2. Zamonaviy xo‘jalik sharoitida tashqi savdo faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati

Tashqi iqtisodiy faoliyatning tarkibiy qismlariga uning tashqi savdo, investitsion va korxonalarning tashqi bozorlardagi boshqa faoliyatlari kiradi. Shuni aytish lozimki, ikki tushunchalardan, ya’ni “tashqi savdo” va “tashqi iqtisodiy faoliyat” (foreign economic relations) tushunchalaridan – tashqi savdo faoliyati – xalqaro tovarlar, xizmatlar, axborotlar,

intellektual faoliyat, shu jumladan, ularga bo‘lgan huquq munosabatlarini ayriboshlash sohasidagi tadbirkorlik faoliyati deb qarash va belgilash mumkin.

Agar, shu yo‘nalishdagi iqtisodiy adabiyotlarga murojaat qiladigan bo‘lsak, (ЛL.N.Andronova, I.T.Balabanov, V.N.Burmistrov, K.V.Xlopkov, V.V.Pokrovskaya, T.E.Kochergina) ular tashqi savdo faoliyatini rivojlanish yo‘nalishiga turlicha aniqlik kiritishadi. Ulardan, birlari tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan bitimlar samarasini oshirishga, ikkinchilari. Import va eksport operatsiyalari orqali xalqaro savdoni shakllantirishga va uchinchilari esa, xalqaro ishlab chiqarish va ilmiy-texnik kooperatsiya va integratsiyalarni rivojlantirishga urg‘u berishadi[11].

chizma 1.2.1

**Tashqi savdo faoliyatining tusilishi**




Tashqi savdo faoliyati tovarlar va xizmatlarning mamlakat chegarasi orqali transchegaraviy harakatlanishini anglatadi. Tashqi savdo faoliyati asosida tashqi savdo operatsiyalari – ya’ni xorijiy kontragentlarning tovarlarni ayriboshlashni amalga oshirish va ularni ta’minlashga yo‘naltirilgan hatti xarakat majmuasi turadi (chizma 1.2.1.)[12].

[11] Афонасьева А. В. Зарубежные китайцы - бизнес в КНР: экономическая деятельность зарубежных китайцев и риэмигрантов в КНР в ходе реформ (1979-2010гг.). М., ИВД РАН, 2013.

[12] Белоглазов Г.П. Россия и Китай в современном мире // Россия и АТР. – 2014. – №2. – С.65

TIF korxonalari eksport va import operatsiyalarini rejalashtirishda uning maqsadlarini detallashtiradilar:

Jadval 1.2.1.

**Korxonalar eksport va import operatsiyalarining maqsadlari**

| Eksport maqsadlari | Import maqsadlari |
|---|---|
| ishlab chiqarishni kengaytirish;<br>yangi bozorlarni o‘zlashtirish evaziga daromadlarni ko‘paytirish;<br>ishlab chiqarish miqyosini oshirish evaziga samara olish;<br>xalqaro raqobatbardoshlik ta’sirida ishlab chiqarish darajasini taxnik-iqtisodiy tomondan ko‘tarish va qo‘llab-quvvatlash;<br>korxona valyuta resursini oshirish;<br>ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash. | ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi ichki bozorlarni o‘zlashtirish evaziga daromadlarni ko‘paytirish;<br>ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish va modernizatsiyalash;<br>xom ashyo va uskunalarni xorijiy mahsulot ishlab chiqarish bilan o‘gartirish orqali samara olish;<br>milliy iste’molchilar bozorida mahsulot assortimentini kengaytirish. |

Xalqaro savdoda tashqi savdoning 4ta asosiy turlari ajratib ko‘rsatiladi va ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:




Tashqi savdo amaliyotida eksport bitimlarini tuzishda xorijiy hamkorlar bilan mahsulotni sotib olishdagi majburiyatlar ko‘zda tutiladi, ular: sotib olingan tovarlarni uchinchi davlatlarga qayta sotmaslik va uni reeksport qilmaslikdan iborat[13].

Shuni ta’kidlash joizki, davlatning tashqi iqtisodiy aloqalari turli sohalarda: tashqi savdo, ilmiy-texnika, ishlab chiqarish, investisiya, valyuta-moliya va kredit, axborot, madaniyat va sport, mehnat resurslarini olib o‘tish kabi faoliyat turlarida o‘rnatiladi. Tashqi iqtisodiy aloqalarning ana shu barcha turlarini quyidagi shakllarga birlashtirish mumkin: savdo (tovarlarni ayirboshlash, xizmatlar ko‘rsatish), qo‘shma tadbirkorlik, hamkorlikning boshqa turlari. Ular xalqaro iqtisodiy munosabatlar amaliyotida ayniqsa keng tarqalgan.

[13] Ливенцев Н.Н. Внешняя торговля: взгляд в прошлое для движения в будущее / Н.Н. Ливенцев, Л.С. Ревенко // Вестник МГИМО Университета. 2011. – № 2. – С. 297-300.

Shunday qilib, xulosa sifatida, ta'kidlash lozimki, xalqaro savdodan olinadigan eng ko'p yutuq qisman (to'liq emas) ixtisoslashtirish sharoitida yuz beradi, ya'ni milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarishni ixtisoslashtirishning ob'ektiv chegaralari mavjud. Yagona integratsiyalashgan bozorning shakllanishi shunga olib keladiki, iste'molchilarga ko'p miqdordagi mahsulot ancha past narxlarda taklif qilinadi. Shu tariqa mikroiqtisodiy muammolar makroiqtisodiy darajaga o'tadi. Tashqi iqtisodiy aloqalar ishtirokchisi bo'lgan firmaning daromadi milliy iqtisodiyotning jahon bozoriga integratsiyalanish darajasiga bog'liqdir.

## 2-BOB: JAHON BOZORIDA XITOYNING O'RNI VA RO'LI

### 2.1.XXR iqtisodiyotida tashqi iqtisodiy faoliyatning o'rni va ro'li

Jahon iqtisodiyotida har qanday davlatning rivojlanishi, uning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni bilan belgilanadi. Ushbu tamoyil, XX asrning ikkinchi yarmidan keyingi davrda, jahon iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqadi. Xitoy o'z «Ochiqlik va iqtisodiy islohotlar» jarayonini amalga oshira borib va bu yo'nalishlarda tug'ilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, o'z iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqaror tarzda ushlab turishga muvaffaq bo'lmoqda. Agar, mamlakatning iqtisodiy islohotlari boshida, ya'ni, 1979- yilda Xitoy YaIM 404 mlrd. yuandan iborat bo'lgan bo'lsa, u, 2021 yilning 1-choragi ma'lumoti bo'yicha -16,1 trln. AQSH doll.ni tashkil etib, deyarli 400 marotabaga oshdi[14].

Ma'lumki, XXI asr boshlariga kelib, rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olgan va Osiyo mintaqasining yirik davlatlaridan biriga aylangan Xitoy Xalq Respublikasi hozirgi davrda jahondagi qudratli davlatlar hisoblangan AQSh, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va Rossiya bilan iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy texnikaviy rivojlanish sohalari bo'yicha raqobatlashish darajasiga chiqdi. Chunki, Xitoy bugungi kunda Xalqaro maydonda o'zining olib borayotgan siyosatida, xalqaro munosabatlarida, iqtisodiy rivojlanishda va ijtimoiy hayotida, o'ziga yetarli bo'lgan yoqori zamonaviy salohiyatga ega bo'lib, shu nuqtai nazaridan, uning dunyo hamjamiyatidagi o'rni va ro'li kundan – kunga ortib bormoqda.

Haqiqatdan ham, bugungi kunda hech bir davlat o'zining rivojlangan ilmiy-texnikaviy bazasiga ega bo'lmasdan turib, jahon hamjamiyatida oldingi pozisiyalarni egallash imkoniyatidan mahrumdir. Aynan ilm-fan va texnikaning dinamik rivojlanish muammolari globalizatsiya sharoitidagi o'sib borayotgan Xitoy iqtisodiyoti uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ammo, shuni ta'kidlash joizki, Xitoy va unga o'xshash rivojlanayotgan davlatlar rivojlangan zaruriy hamda ilg'or ilmiy-texnikaviy baza va infraqurilmalarga to'liq tarzda ega

[14] infotrans.by

emasdirlar, chunki bu sohani rivojlantirish uchun mamlakat ancha katta mablag‘ va nisbatan yangiroq asosiy fondlarga ega bo‘lish lozimdir.

Hozirgi davrda Xitoy davlati o‘zining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha barqaror dinamikaga ega bo‘lib, ba’zi bir qator sohalarda esa, dunyoda yetakchi o‘rinlarni egallab kelmoqdadir. Har bir davlat uchun uning iqtisodiyotining asosi bo‘lgan ishlab chiqarish sohasining texnik salohiyati jihatdan mustahkamligi – uning ertangi kuni rivoji uchun juda jiddiy moddiy-texnik baza bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, Xitoy kabi yirik iqtisodiyotli davlatlar uchun ushbu sohani, ayniqsa, mamlakat og‘ir sanoatini rivojlantirish masalasi muhim strategik masalalardan hisoblanib, bugungi kun nuqtai nazaridan juda ham dolzarb muammolar qatoriga kiradi.

Ma’lumki, mamlakatda tovarlar, xizmatlar, intellectual mulk mahsulotlari bo‘yicha tashqi savdoni boshqarishning asosiy vazifasini 2003 yilda tashkil etilgan Xitoy tijorat vazirligi amalga oshiradi. Uning asosiy bir qator vazifalari qatoriga quyidagilar kiradi:

Bu vazifalarni biz quyidagi 2.1.1.-chizmadan yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

2.1.1.chizma

**XXRsi Tijorat vazirligini vazifalari[15]**

**XXR tijorat vazirligi**

nazorat

-Xorijiy investitsiyalarni;
-XXRdagi xorijiy korxonalarni;
-xorijdagi xitoy investitsiyalarini;
-kvotalarni;
-Litsenziyalarni;
- davlatlarga tashqi yordam ko‘rsatish;
-tashqi yordam berish uchun XXR moliyasini boshqarish.

Ishlab chiqish

-Ichki va tashqi rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqish;
-strategik va o‘rta muddatli rejalarni;
-tijorat qonunlarini;
-kvota, linsenziya.

vakolat

-JST, BMT, xalqaro tashkilotlarda tashqi iqtisodiy masalalar bo‘yicha XXRni vakolatxonasi;
-mamlakatlarda savdo vakolatxonasi.

-anitidemping va antidotatsion ishlarni ko‘rib chiqish, talabnoma berish va boshqa davlarlar talanomalariga javob berish;
-tashqi iqtisodiy kafolatlar berish;
-investitsion iqlimni shakllantirish;
-boshqa mamlakatlar bilan savdoni rivojlantirish bo‘yicha kelishuvlar olib borish;
-XXR savdo siyosatini shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash;
-xizmatlar aylanishini tartibga solish;
-texnologik transfertni tartibga solish;
-xitoy iqtisodiyoti tarmoqlari faoliyatini tartibga solish.

[15] Полозюкова О.Е. Особенности экономики Китая на современном этапе и перспективы ее развития: автореф. канд. эконом наук. – М., 2012. – 27 с.;

1. Ichki va tashqi savdo hamda xalqaro iqtisodiy hamkorlik kursi va strategiyasini ishlab chiqish; ichki va tashqi savdoning huquqiy normalarini, xalqari iqtisodiy hamkorlik va xorijiy investitsiya hamda qonunlarini ishlab chiqish; alohida ko‘rsatmalar va qoidalar ishlab chiqish; ichki qonunlarning xalqaro talablarga mos ravishda javob berishini nazorat qiladi.

2. ichki savdoni rivojlantirish bo‘yicha rejalar va qoidalar tuzish.

3. Xitoy ichkarisidagi bozorlarni normativ bo‘yicha faoliyatl olib borishi uchun qoidalarni o‘rganadi va ishlab chiqadi.

4. eksport va import operatsiyalarini boshqarish uslublarini o‘rganadi va tasdiqlaydi, olib chiqish va olib kirishga ruxsat etilgan tovarlarni katalogini beradi, kvota va litsenziyalar beradi.

5. savdo va import-eksportni nazorat qilish hamda texnologiyalar eksporti va uskunalar komplekti bo‘yicha hukumat siyosatini ishlab chiqidi va amalga oshiradi.

6. ko‘ptomonlama va ikki tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlik holatlarini amalga oshiradi, kelishuvlar konsepsiyasini muvifiqlashtiradi, tegishli hujjatlarni imzolaydi va ularning ijrosini nazorat qiladi, ko‘ptomonlama va ikki tomonlama davlatlararo iqtisodiy va savdo aloqalari mexanizmini shakllantiradi, XXR hukumatini JSTda tasaruf etadi.

7. XXR delegatsiyasi va savdo-iqtisodiy vakolatxonalarga rahbarlik qiladi, XXRda va doimiy ravishda BMT qoshida akkreditatsiyadan o‘tgan boshqa mamlakatlar savdo vakolatxonalari bilan aloqani amalga oshiradi.

8. antidemping, antidotatsiyon va kafolatli choralarni tashkil etish hamda muvofiqlashtiradi.

9. xorijiy investitsiyalarni jalb etish va amalga oshirishni tartibga solidi, xorijiy kompaniyalar tomonidan tegishli qonunlar va normativ aktlarni bajarishini nazorat qiladi.

10. xorijdaxitoy tadbirkorlari tomonidan tashkil etilgan pudrat ob’ýektlarini boshqarilishini nazorat qiladi va to‘g‘ri yo‘naltiradi.

11. XXR hukumatini tashqi yordam mablag‘larini boshqaradi, tashqi yordam dasturini amalga oshishini nazorat qiladi (tashqi yordam fondi, imtiyozli kreditlar va maxsus ob’yektlar uchun fondlar).

12. Syangan va Aomen alohida ma’muriy rayonlar va tayvan rayoniga nisbatan, o‘rta va uzoq muddatli savdo-iqtisodiy rejalarni amalga oshiradi.

13. BMT qoshida akkreditatsiyalangan XXRsi delegatsiyasi personali uchun va boshqa davlatlarda doimiy akkreditatsiyalangan organlar uchun ham javob beradi.

Iqtisodiyot rivojlanishini tartibga soluvchi davlat tizimi o‘z oldiga quyidagi bir necha vazifalalarni hal etishni qo‘yadi:

Barcha Xitoydagi ishlab chiqaruvchi korporatsiyalarga tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish uchun imkoniyat yaratish, ularning yo‘nalishlarini qo‘llab-quvvatlash;

Korporatsiyalar tashqi savdo faoliyatini rivojlantirish uchun sharoit yaratish.

Mana shu tamoillar doirasida, juda katta ishlar amalga oshirilib, bundan Xitoy jamiyati ham manfaatdor bo‘lmoqda. Shu bilan birga mazkur dasturda amalda hamma ishtirok etmoqda va undagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotganlarga e’tibor kuchaysada, lekin, bu yo‘nalish qattiq tartibga solinmaydi.

Davlat tashqi iqtisodiy faoliyatini boshqarishning barcha bo‘linmalari shuni ko‘rsatmoqdaki, XXR hukumati o‘z tashqi iqtisodiy muammolarini tez va samarali hal etishga harakat qiladi. Umuman olganda, Xitoy tashqi iqtisodiy faoliyatini boshqarish tizimi boshqalardan o‘zining yoqori darajadagi egiluvchanligi va samaradorligi bilan farq qiladi.

## 2.2.Xitoy tashqi iqtisodiy siyosatining mohiyati

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda puxta va davlatni rivojlantirishda, chuqur o’ylangan davlat siyosati, tashqi iqtisodiy aloqalarni asosiy ta’sirchan omillardan biriga aylantirdi. Bu siyosat Xitoyning milliy manfaatlarini hisobga olgan holda jahon xo’jaligiga uni yirik xalqaro iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va moliayviy savdo markaziga, jahon iqtisodiyotiga qo’shilishi uning salmoqli ishtirokchisiga aylantirdi.

Xalqaro iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solinishida qonunchilik, ma’muriy-huquqiy, iqtisodiy va norasmiy kabi metodlardan, bir-birini o‘rnini to’ldiruvchi uslublardan keng foydalaniladi. Bu esa, mamlakat oldiga tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida qo’yilgan maqsadlarga erishishni ta’minlaydi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda Xitoy amaliyoti keng huquqiy- normativ bazaga tayanadi. Ular orasida, qonuniy va huquqiy-normativ tartibga solish tizimi ustivorlik asosida namoyon bo’lib, uni boshida valyuta ayriboshlash va tashqi savdo to’g’risidagi qonunlari, davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish konsepsiyasi orqali uning faoliyat chegaralarini belgilaydi. Bu qonunda xalqaro valyuta fondi, butunjahon savdo tashkiloti kabi xalqaro tashkilotlarning kodeksidan asosiy prinsiplaridan - savdoni erkinlashtirish haqidagi xalqaro shartnomalar, erkin va har tomonlama savdo tamoyillarini mavjudligi tufayli amalga oshirilib kelinmoqda.

Xitoy iqtisodiyotining eng asosiy yutug’i - “islohotlar va ochiqlik” siyosatini olib borishida o‘z aksini topib, Xitoyning tashqi dunyoga ochiqlik darajasining kengaytirilishi orqali amalga oshirila boshladi va tashqi savdo aylanmasining o’sishi, uning strukturasini yaxshilanishi hamda mamlakatga xorijiy kapitalni jalb qilinishida namoyon bo’ldi.

Bu borada xitoy iqtisodchisi Tzyan Fenning «Tashqi savdo hajmining to’xtovsiz o’sishi, uning tovar va geografik strukturasini o’zgarishi konsepsiyasiyani chuqurlashtirish va “ochiqlik” siyosatini amalga oshirish doirasida ro’y bergan va iqtisodiyot sektorini eksportni

rivojlantirishga ixtisoslashuvi natijasi edi“[16] degan fikriga qo'shilmay bo'lmaydi. Uning fikriga koʻra: “Tashqi savdo - XXR shakllangan davrdan boshlab rejali rivojlanish uchun mamlakatga yangi texnika texnologiyalarni kirib kelishi va oziq-ovqat havfsizligi ta'minlanishining asosiy manbaai sifatida muhim o'ringa ega bo'lgan”. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, tashqi savdo nafaqat mamalakatga yangi texnologiyalarni olib kirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega bo'lgan, balkim iqtisodiyotning boshqa sohalarida ham muhim o'rin egallagan.

Ammo, XXR rivojlanishining turli bosqichlarida mamlakat iqtisodiy siyosatidagi tashqi savdoning ahamiyati va ustunliklari sezilarli darajada farq qilgan. Birinchi 10-12-yillarda tashqi savdoning jadal rivojlanishi, birinchi navbatda, sotsialistik mamlakatlar bilan bo'lgan, “madaniy inqilob” davrida ancha turg'un holatga kelib qolgan edi, buning sababi Xitoy tashqi dunyo bilan aloqalarini qisqartira boshlaganida.

Tashqi savdo xorijdan alohida ilg'or texnologiyalar namunalarini sotib olish va ularga keyinchalik. Xitoyning o'zidamazkur texnologiyalarni ishlab chiqarish uchun chet el valyutalarning kelib tushish manbayi sifatida qaralgan (harbiy texnika, sonoat uskunalari va boshqalar ).

Mamlakatdagi eksport-import faoliyati miqyoslarini toraytirilishi, Xitoy iqtisodiyotining baynalminallashuv darajasining pasayishiga olib keldi. Bunday tendensiyalar bo'lishiga qaramasdan, tashqi savdo hajmi sezilarli darajada o'sgan bo'lsada, 1952-1954-yillarda 23,04 mlrd.yuandan, 1976-1978–yillarda 89,16 mlrd. yuangacha, bu degani 3,9 martaga o'sgan, lekin, uning sanoatda va qishloq xo'jaligida yalpi mahsulotlar qiymatidagi ulushi 8,16%dan 5,89% ga, ya'ni 2,27% ga kamayganligini koʻramiz.

XKP MK ning Uchinchi plenumi 11 chaqirig'ida (1978-yil dekabr) Xitoyning tashqi dunyoga ochiqligi e'lon qilingan va xitoy jamiyatining iqtisodiy islohatlarga qadam qo'yishi boshlangan. Ochiqlik g'oyasi (“dui wai kai fan”) juda muvaffaqiyatli bo'lgan va asosiy uzoq muddatli tashqi iqtisodiy siyosati edi[17].

Bu islohatlar boshlangandan so'ng, hukumat iqtisodiy rivojlanishda tashqi iqtisodiy omillarning o'rni qaytadan va chuqurroq ko'rib chiqildi. 1970 – yillarda mashhur bo'lgan “o'z kuchiga tayanish” (“zi li gen shen”) tamoili – iste'mol tovarlarini, texnika va texnologiyalarni importini, turli ko'rinishdagi xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni qisqartirish yoki umuman qilmaslik, “ochiqlik” siyosati bilan almashtirildi. 1980-yilning iyun oyida Den Syao Pin chet

---

[16]Цзян Фэн Государственное регулирование внешней торговли Китая Специальность 08.00.14 Мировая экономика диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук libed.ru/dissertatsiya/819238-1-...

[17] XKP MK ning 3- plenumi 11 chaqirig'ida (1978-yil dekabr)materiallari, [17] infotrans.by

el delegatsiyasi bilan uchrashuvida birinchi bora “Tashqi dunyoga ochiqlik” atamasini, Xitoyning tashqi dunyoga nisbatan iqtisodiy siyosati asosi sifatida ishlatgan va “Xitoy xalqaro munosabatlarda ochiqlik siyosatini amalga oshiradi, xalqaro arenaga chiqish yo’llarini kengaytiradi, rivojlangan mamlakatlar bilan tajriba almashadi, milliy rivojlanishni qo’llab quvvatlash uchun xorijiy kapitalni va texnikalarni jalb qilishga alohida e’tibor qaratadi” deb e’lon qildi.

1982-yil dekabr oyida XXR Konstitutsiyasining yangi tahririda tashqi ochiqlik siyosatini amalga oshirish mamlakatning muhim faoliyati sifatida belgilab qo’yilgan edi. Ochiqlik g’oyasi bir ovozdan partiya va jamiyat doirasida qo’llab chiqildi deb bo’lmaydi, chunki xitoy iqtisodiyoti aktiv holda ochiqlik siyosatining yutug’ va kamchiliklari haqida, xitoy xalqi uchun olib kelishi mumkin bo’lgan xavfli tomonlari haqida baxs va munozaralar olib borilgan. Ba’zilar bu ochiqlik g’oyasiga qarshi bo‘lishgan edi. Baxs-munozaralar oqibatida, tashqi iqtisodiy ochiqlik konsepsiyasi deyarli to’liq shakllandi, unga munosabat, konyuktura sifatida emas balkim uzoq muddatli strategiya sifatida, qoloqlikni yengib o’tishning asosiy dastagi sifatida, ilg’or mamlakatlarga yetib oluvchi mamlakatlar qatoriga kirish va tashqi savdo va tashqi iqtisodiy faoliyatda liderlar qatoriga kirish uchun yo’l sifatida mustahkamlana borgan.

Xitoy maksimal darajada, ichki rezervlarni ishga solib, XXI asrning boshlarida va jahon iqtisodiyotining globallashuv sharoitida, u tashqi savdo bo‘yicha jahonda liderlik pozitsiyasiga ega bo‘lish uchun harakatini boshladi. Xitoy ochiq iqtisodiyot konsepsiyasining muhim tarkibiy qismi Xitoy modelining qurilishi - “sotsializm spetsifikali” xitoy modeli ikki ma’noga ega, bir tomondan, bu XXRning asosiy tashqi iqtisodiy siyosatining strategik asosi bo’lib, u jahon liderlari pozitsiyasi va iqtisodiy-ijtimoiy sakrash uchun rivojlangan mamlakatlarni turli xil ko’rinishdagi iqtisdoiy yutuqlaridan foydalanishga qaratilgan. Ikkinchi tomondan, ochiqlik bu - insonlar ongining barcha yangi, zamonaviy, innovatsion narsalarga ochiqligi, sotsializmning boshlang’ich qurilishida yeg’ilgan, “to’rtlik bandasi” bilan bog’liq, turli xil dogmalardan voz kechish” va jahon birjalarida ishtiroki va h.k.). Texnik talablar va standartlar (sanoatda standartlashtirish haqidagi qonun va boshqalar); intellektual mulk huquqi (patentlar, avtorlik huquqi va h.k.).

Xitoyda tashqi savdo faoliyatini bojxona tarif va notarif tartibga solinishi o‘z ichiga: bojxona bojlarini, notarif tartibga solish dastaklarini, qoida va muolajalari kabi chora-tadbirlar majmuasini qamrab oladi. XXR Davlat soliq boshqarmasi va Xitoy Bosh bojxona boshqarmasi tomonidan har bir yil uchun eksport va import bojlari stavkasi “XXR eksport-import Bojxona tariflarida nashr etiladi”.

Ma’lumki, notarif tartibga solishning asosiy uslublariga kvotalash va litsenziyalash kiradi. Import va eksport tovarlarni yetqazib berishni kvotalash masalalari bilan XXR

rivojlanish va islohotlar bo‘yicha Davlat qo‘mitasi (XRIDQ) va XXR Tijorat vazirligi, litsenziyalash bilan esa XXR Tijorat vazirligi shug‘ullanadi. Har yili XRIDQ va XXR Tijorat vazirligi kvotalash va litsenziyalash chegarasida hamda ularga asosan, eksport va import tovarlari ro‘yxatini (asosan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va xom ashyo) nashr etadi. XRIDQ tomonidan belgilangan import kvotalari va olib kirish bojlari oxirgi yillarda (2017-2019yy.da) aytarli o‘zgarishsiz qoldi.

Aytish lozimki, Xitoy iqtisodiyoti anánaviy tarzda tashqi bozorga yoqori darajada bog‘lanib qolgan. XXR tovarlar eksporti hajmi bo‘yicha jahonda 1-o‘rinda turadi. Uning xorijga yetqazib beradigan tovarlari davlat valyuta daromadlarining 80%ni ta’minlaydi. Mana shu tovarlar eksporti sohasida 20 mln.k. band. Xorijiy bozorlarga yalpi 50 mingdan ortiq sanoat va qishloq xo‘jalik mahsulotlarining deyarli 20% olib chiqiladi. Xitoy iqtisodiyotining eksportga bog‘liqlik darajasi 2017 yilda 18,5% ni tashkil etdi.

Xitoyda tarif orqali tashqi savdoni tartibga solish bilan bog‘liq har yili nashr etiladigan asosiy normativ holatlar “XXR Bojxona eksport-import tariflari” da o‘z aksini topgan. Masalan, eksportni tarif orqali tartibga solish choralari qo‘llaniladigan (Interim duty rate special and special duty rate on export goods) tovarlar pozitsiyasi ahamiyatli tarzda qisqarib bormoqda. Agar, 2016 yildagi eksport solig‘iga tortilgan tovarlar pozitsiyasi 250 ta bo‘lgan bo‘lsa, 2017 yilda ularning soni 213 pozinssiyani tashkil etdi. Undan tashqari, 11ta pozitsiyadagi tarif stavkasi maksimal 40%li bo‘lganlar va vaqtinchalik “nol” satavka qollaniladigan 49 pozitsiyalar o‘zgarishsiz qoldi.

Xitoyda 2017 yilda notarif usullardan, eksportni kvotalash tartibi qishloq xo‘jaligi va xom ashyo tovarlari uchun keng qo‘llanildi. Kvotalar har yili XXR Tijorat vazirligi tomonidan mamlakat ichkarisidagi va jahon bozorlaridagi o‘zgarishlarga qarab, korreksiya qilinadi. Notarif usullardan eksportni litsenziyalash tartibi esa, XXR Tijorat vazirligining 28-sonli 2008 yildagi instruksiyasida aniqlab berilgan. Mazkur hujjat orqali XXR Tijorat vazirligi va XXR davlat bojxona boshqarmasi bilan birgalikda litsenziyalash asosida amalga oshiriladigan tovarlar eksportini ro‘yxati tasdiqlaydi.

# 3-BOB: XITOYNING “OCHIQ ESHIKLAR” SIYOSATI.

## 3.1. XXRda “ochiq eshiklar” siyosati dasturining qabul qilinishi

Xitoy davlatida 1978 yil dekabr oyida Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziy Ko‘mitasining 11 chaqiriq, 3–Plenumi bo‘lib o‘tdi, unda mamlakatda olib boriladigan iqtisodiy qurilishlarning bosh yo‘nalishi tasdiqlandi. Shu bilan birga, mamlakatda “ochiq eshiklar” siyosati e’lon qilinib, uning natijasida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish uchun keng yo‘l ochildi.

Xitoy iqtisodiy islohotlarining maqsadi qadam-baqadam mamlakatdagi mavjud rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tish bo‘lib, unda quyidagi tamoyillarga tayanildi:

reja sotsializmga ekvivalent emas;

mamlakatdagi ishlab chiqarish kuchlariga mustaqillik berish;

mamlakat aholisining farovonligini oshirishga erishishda kishini kishi tomonidan ekspluatatsiya qilinishiga barham berish va mavjud tafovut hamda farqlanishlarni yo‘qotish.

Sotsialistik bozor iqtisodiyoti tizimi sharoitida davlatning iqtisdiy vazifalari makroiqtisodiy boshqarish siyosatida o‘zining yorqin ifodasini topadi. Xitoy davlati sharoitidan kelib chiqqan holda, makroiqtisodiy boshqarishning zarurati mavjudligini bir qator sabablarini ajratib ko‘rsatish mumkindir:

bozorning kuchsizligi va uning kamchiliklari o‘rnini qoplash ehtiyojining mavjudligi. Bu masalalar – ekologiya, ijtimoiy siyosat va xaqiqat, shaxsni har tomonlama rivojlantirish va xalq maorifidir. Ushbu masalalarni hal etishda faqatgina bozorga tayanish qarama-qarshi natijalarga olib kelishi mumkin. Chunki, bu sohalardagi yutuqlar butun jamiyat uchun xizmat qiladi, insonlarni rivojlanishi va ularning yashash sharoitlarining yaxshilanishiga yordam beradi, demak, ular yorqin ifodalangan tashqi iqtisodiy samaraga egadir. Individium yoki korxona bunday xizmatlarni ko‘rsatish imkoniyatiga ega emas. Aynan shuning uchun davlat bozor kamchiliklarini to‘ldirish maqsadida makroiqtisodiy boshqarishni amalga oshirishi lozimdir. Ulardan tashqari, mamlakatdagi iqtisodiy o‘sish sur’atlari va iqtisodiyot tizimini bozor mexanizmlari yordamida, ya’ni talab va taklifga asoslangan holda boshqarilishi har doimgidek, stixiyali va sekinlik bilan bo‘ladi;

Makro va mikroiqtisodiyotlarda butun va xususiy, markaz va joylararo munosabatlarni boshqarish ehtiyojining mavjudligi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalararo, korxona va milliy iqtisodiyotlararo manfaatdorlikning vujudga kelishi va ular qiziqishlarining o‘zaro to‘qnashuvi yuz beradi. Bu narsa shuning uchun ham ro‘y beradiki, ya’ni har bir alohida olingan korxona, tarmoq yoki joylardagi firmalarda javobgarlik hissi o‘zini-o‘zi yuritish va o‘zini qoplash asosida olib boriladi. Albatta, bunda har bir korxona, tarmoq va joylardagi firmalar o‘zining aniq moddiy manfaatini izlaydi, shuning uchun ularning faoliyati aniq bosqichda qisqa muddatli, stixiyali va xususiy xharakterga egadir. Shu bilan birga turli korxonalararo, joylararo, tarmoqlararo ko‘pincha raqobat muhiti shakllanadi. Davlat va korxona orasida esa, manfaatlar qarama-qarshiligi mavjuddir. Milliy iqtisodiyot ko‘pdarajali, ko‘pmaqsadli va ko‘pfunksional organizm hisoblanadi. Unda turli tarmoqlar, korxonalar, firmalar o‘zining xususiyatlariga egadir. Agar, faqat bozor mexanizmiga tayanib ish yuritadigan bo‘lsalar, ular rivojlanishini bir umumiy maqsadga yo‘naltirish mumkin bo‘lmaydi;

makroiqtisodiy nazoratning kuchayishi bozorga o‘tish tipidagi iqtisodiyot talablariga javvob beradi. Xitoy iqtisodiyotining rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida quyidagi ularga xos bo‘lgan belgilari ma’lum bo‘ldi:

yangi va eski iqtisodiy tizimning birgalikda olib borilishi., unda yangi tizimni mutlaq formasi o‘rnatilganicha yo‘q va ba’zi bir hollarda eski tizimning ta’siri ulkandir;

iqtisodiyotning tez sur’atlarda o‘sishi inflyatsiya jarayoni bilan hamohang bo‘lmoqda;

iqtisodiyotda bosqichli siklik tebranishlarning haligacha mavjudligi;

iqtisodiyotning o‘sish sur’atlari tezlashdi, lekin iqtisodiy samara nisbatan kichikdir;

iqtisodiyotda bozor munosabatlarining roli va uning baynalminallashuvi uzluksiz ko‘paymoqda.

Xitoyni barqaror iqtisodiy o‘sishining asosi - bu milliy ishlab chiqarish bo‘lib, undagi mehnat unumdorligining jadal sur’atlarda oshirish imkoniyatlari, mamlakatning ishlab chiqarish sohasida va ayniqsa, uning sanoat sohasidagi mavjud muayyan salohiyatida ko‘rinadi. Shu sababli, har bir mamlakat o‘zining sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish sohasidagi amalga oshirayotgan iqtisodiy siyosatini o‘z ichki imkoniyatlariga va qarab belgilaydi.

Haqiqatdan ham, bugungi kunda hech bir davlat o‘zining rivojlangan ilmiy-texnikaviy bazasiga ega bo‘lmasdan turib, jahon hamjamiyatida oldingi pozisiyalarni egallash imkoniyatidan mahrumdir. Aynan ilm-fan va texnikaning dinamik rivojlanish muammolari globalizatsiya sharoitidagi o‘sib borayotgan Xitoy iqtisodiyoti uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ammo, shuni ta’kidlash joizki, Xitoy va unga o‘xshash rivojlanayotgan davlatlar rivojlangan zaruriy hamda ilg‘or ilmiy-texnikaviy baza va infraqurilmalarga to‘liq tarzda ega emasdirlar, chunki bu sohani rivojlantirish uchun mamlakat ancha katta mablag‘ va nisbatan yangiroq asosiy fondlarga ega bo‘lish lozimdir.

Hozirgi kunda Xitoy davlati o‘zining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha barqaror dinamikaga ega bo‘lib, ba’zi bir qator sohalarda esa, dunyoda yetakchi o‘rinlarni egallab kelmoqdadir. Har bir davlat uchun uning iqtisodiyotining asosi bo‘lgan ishlab chiqarish sohasining texnik salohiyati jihatdan mustahkamligi – uning ertangi kuni rivoji uchun juda jiddiy moddiy-texnik baza bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, Xitoy kabi yirik iqtisodiyotli davlatlar uchun ushbu sohani, ayniqsa, mamlakat og‘ir sanoatini rivojlantirish masalasi muhim strategik masalalardan hisoblanib, bugungi kun nuqtai nazaridan juda ham dolzarb muammolar qatoriga kiradi.

## 3.2. Xitoyda “ochiq eshiklar” siyosatining mohiyati, maqsad va vazifalari hamda ularni amalga oshirish bosqichlari

1979 yil Xitoyning “Ochiq eshiklar” siyosatini amalga oshirish uchun asos boʻldi desak mubolagʻa boʻlmaydi. Mazkur siyosatning mohiyati shundan iboratki, Xitoy hukumati 1970 yillar oxirida mamlakat xududining janubiy-sharqiy qismini dunyo mamlakatlari, xususan, industrial (sanoati) rivojlangan davlatlar sarmoyalarini iqtisodiyotga jalb qilish uchun ochib berdi. Ular esa, oʻz navbatida Xitoyga, nafaqat an’anaviy, ya’ni bevosita tashqi savdo bilan shugʻullanishni, balki, mamlakatga oʻz portfel va bevosita sarmoyalarini va kreditlarini, texnika va texnologiyalarini, ishlab chiqarish birlashmalari filiallarini, ilmiy-texnikaviy hamkorlik dasturlarini olib kirishdan iborat boʻldi. Bunda mamlakat boshchisi Den Syaopining buyuk sitatasi, ya’ni: - ”Kul rangmi yoki oq mushukmi, bizga farqi yoʻq, u sichqonni tutsa bas”, - degan soʻzlari yodimizga keladi.

Xitoyda mazkur “ochiq eshiklar” siyosatini amalga oshirish bilan bir vaqtning oʻzida xorijiy mamlakatlar bilan uzoq muddatli hamkorlik qilishning xuquqiy bazasi shakllandi. Ular mamlakatning janubiy-sharqiy qismida erkin iqtisodiy xududlarni tashkil etish bilan birga, koʻpgina vazifalarni bajara oladigan va xorijiy kontragentlar uchun imtiyozli investision tartibdagi “ochiq” iqtisodiy rayonlar va turli “ochiq shaharlar”, “ochiq chegara oldi xududlar”ni oʻz ichiga qamrab oldi.

Oxirgi 40 yil davomida Xitoyda kuzatilgan iqtisodiy oʻsish haqiqatda “iqtisodiy moʻjiza” boʻlgani hech kimga sir emas. Uning rivojlanish tendensiyasiga nazar tashlaydigan boʻlsak, 1976-yilgacha Xitoy yopiq iqisodiyot hisoblanar edi. Ammo 1978-yilda Den Syaopin tomonidan olib borilgan “Ochiq eshiklar” siyosati va shu maqsaddagi islohotlar natijasida, Xitoy jahon iqtisodiyotiga integratsiyalasha boshladi hamda Xitoy YaIMi yiliga oʻrtacha 10% oʻsishga erishdi. 1979-2014 - yillarda Xitoyning aholi jon boshiga YaIMi qariyb 16 marta, ya’ni 195 AQSh doll.dan 3583 AQShga oʻsdi. 2010-yilga kelib YaIM hajmi boʻyicha Yaponiyani ortda qoldirib, dunyodagi eng katta ikkinchi iqtisodiyotga aylandi. Shu davr mobaynida 500 mln.dan ortiq aholi qashshoqlikdan xalos boʻldi.

“Ochiq eshiklar” siyosati ikki turdagi asosiy siyosiy o'zgarishdan iborat boʻlib, ular quyidagilarni oʻz ichiga oladi::

1.geografik tomondan, mamlakatga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun ochiqlik;

2.umumxalq, shu siyosatga xos muassasalarni ochilishi.

1979 – yil iyulda boshlangan geografik ochilishi, Xitoy chegara viloyatlari Guangdong (Gongkong bilan chegaradosh) va Fujian (Tayvan dan bo'g'ozi orqali) imtiyozli siyosati moslashuvchan bo'lishi, 1980-yil may oyida Shengzhen, Zhuhai, Shantou va Xiamen maxsus iqtisodiy zonalarida tashkil etilishiga sabab bo’ldi. 1982-yil fevral oyida esa Yangtze daryo

deltasida, Ju daryo deltasida va boshqa uch - Fujian, Liaonin va Shandong viloyatlarida ochildi. 1984 -yil 14-mayda qo'shimcha qirg'oq shaharlari ochildi. 1990 yilda islohotlarning yangi bosqichida davomida, birinchi, Shanxayda Pudong ochildi. 1991 yilda Xitoy-Rossiya chegarasida to'rt chegara shaharlar ochildi. 1992-yilda Avgust oyida 15 ta yana dengizdan yiroqda bo’lgan shaharlar ochildi, va o'sha paytdan buyon, barcha Xitoy ustidan yirik shaharlar ergashganlar.

Tadqiqotlar natijasida ma’lum bo‘ldiki, ko‘p yillar davomida hukm surgan markaziy rejalashtirilgan iqtisodiyotdan zamonaviy bozor iqtisodiyotiga o‘tish maqsadida 1978-yildan boshlab “Ochiq eshiklar” siyosati doirasida ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Bunda Xitoyda turli shakldagi maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ)ni tashkil etish muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib, MIZlarni tashkil etishdan asosiy maqsadlar quyidagicha edi:

xorijiy kapitalni maksimal darajada jalb qilish, sanoatning ilm sig‘imli sohalarini yuqori texnologiyalar asosida rivojlantirish;

xalqaro mehnat taqsimotida samarali ishtirok etish, eksport hajmi va xorijiy valyuta tushumini oshirish;

MIZ joylashgan hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni Hong Kong, Singapur va boshqa yangi industrial davlatlaridagi kabi rivojlantirish;

arzon va ortiqcha ishchi kuchi hamda boy xomashyo salohiyatidan to‘gri foydalanish;

boshqaruv malakasiga ega bo‘lish va milliy kadrlarni tayyorlash.

Xitoyda MIZlarning tashkil etilish jarayonini 4 bosqichda kuzatishimiz mumkin: u 1970-yil oxiri 1980-yillar boshlari; 1980-yillar; 1990-yillar va 1990-yildan hozirgi kungacha davom etayotgan zamonaviy davrni qamrab oladi. 1979-yilda Guangdong va Fujian provinsiyalarida “maxsus siyosat va moslashuvchan choralar” tizimining joriy etilishi birlamchi qadam edi. Shu maqsadda 1981-yil noyabrda “Guangdong va Fujjan provinsiyalariga alohida iqtisodiy maqom berish toʽg‘risida” XXR Davlat Kengashi qarori e’lon qilindi.

Dastlab,1980-yil avgustda Guangdong provinsiyasidagi Shenzhen, Zhuhai va Shantou hamda o’tgan yilning oktabrida esa Fujian provinsiyasidagi Xiamen hududlari 4 ta maxsus iqtisodiy zonalarga aylantirildi. Ushbu MIZning maqsadi deyarli bir xil bo‘lib, maxsus moliyaviy, investitsion va savdo imtiyozlari orqali hududda barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish edi. Ular, asosan, joriy innovatsion siyosatni amalda sinovdan o‘tkazish uchun tashkil etilgan bo‘lib, agar loyiha o‘zini oqlasa, bunday MIZlarni mamlakat bo‘ylab keng tarqatish rejasi ko‘zda tutilgan.

MIZlarda joriy etilgan imtiyozlar va qulay ishlab chiqarish omillari yig‘indisi kutilmagan iqtisodiy o‘sishga sabab bo‘ldi. 1980-1984-yilda yillik Xitoy YaIMi o‘rtacha 10 % o‘sdi. Bu ko‘rsatkich Shenzhenda 58 %, Zhuhaida 32 %, Xiamenda 13 % va Shantouda esa 9 % bo‘ldi.

1986-yilgacha Shenzhenda kapital, mehnat, yer, texnologiya, aloqa va transport kabi ishlab chiqarish omillari kompleksi shakllanib bo‘lgan edi. 1988-yildan keyin yuqoridagi MIZlar safiga Hainan 5-MIZ sifatida qo‘shildi.

Yuqorida sanab o‘tilgan savdo va investitsiya muhitini rivojlantirish maqsadidagi zonalar o‘zini oqlagach, Xitoy o‘z “Ochiq eshiklar” siyosatini yanada kengaytirdi. 1984-yilda boshqa turdagi MIZlar – iqtisodiy texnologik taraqqiyot zonalari, boshqacha aytganda milliy sanoat parklari, tashkil etila boshlandi.

Xitoyni barqaror iqtisodiy o‘sishining asosi - bu milliy ishlab chiqarish bo‘lib, undagi mehnat unumdorligining jadal sur’atlarda oshirish imkoniyatlari, mamlakatning ishlab chiqarish sohasida va ayniqsa, uning sanoat sohasidagi mavjud muayyan salohiyatida ko‘rinadi. Shu sababli, har bir mamlakat o‘zining sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish sohasidagi amalga oshirayotgan iqtisodiy siyosatini o‘z ichki imkoniyatlariga va qarab belgilaydi.

1994 yilda sanoat korxonalarida amalga oshirilgan islohotlarda «chuqurlashuv» fazasi boshlandi. U ilgari qabul qilingan bir qator qarorlardan kelib chiqib amalga oshiriljdi. 1992 yildagi «Umumxalq mulki bo‘lgan sanoat korxonalarida xo‘jalik mexanizmini almashtirish holati» ularning keng masalalar doirasidagi avtonomiyasini mustahkamladi, jumladan: investisiyalash, narx-navo, ishchi kuchini yollash, eksport-import operatsiyalari kabilar.

1993 yildagi hukumatning «Sotsialistik bozor iqtisodiyoti tizimi ba’zi masalalarini tashkil etish» qarori zamonaviy korxonalar tizimini tashkil etishga qaratilgan bo‘lib, u 1994 yil 1 yanvardan boshlab, uning soliqqa tortishning yangi tizimi rasmiy ravishda ishga tushirildi. Unda daromad solig‘i stavkasi pasaytirilib, qo‘shimcha qiymat solig‘i unifikatsiyalandi.

Garchi, o‘sish sur’atlari mamlakat xududlarida bir maromda bo‘lmasada, (ya’ni, 1993 yilda eng baland o‘sish sur’ati – 27,3% ni tashkil etgan bo‘lsa, 1981 yilda esa, eng past o‘sish sur’ati – 4,3% ni tashkil etdi), amalda esa, biron bir marotaba ham ishlab chiqarish pastga tushmadi, ya’ni to‘lqinsimonlik amplitudasi 10% dan oshgan emas edi.

Sanoatni to‘lkinsimon o‘sishi, butun bir iqtisodiyot singari bo‘lmadi. Undagi har bir miqyosli kapital quyilmalar yuqori sur’atlarda uni o‘sishga olib kelib, undagi investisiya samarasi pasayib turdi. Shu noxushliklarni yengish uchun hukumat investision siyosatni kuchaytirdi, uning oqibatida uning o‘sish dinamikasi pasaydi. Keyingi sikl esa, yana kapital quyilmalarini ko‘paytirishdan boshlandi.

O‘sish sur’atlari bo‘yicha, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish boshqa barcha sohalarni ortda qoldirdi, bu esa xalq xo‘jaligida progressiv tizimiy ( strukturaviy) o‘zgarishlarga olib keldi. Sanoatning YaIM (yalpi ichki mahsulot) dagi ulushi 1996 yilda, 49% ni tashkil etdi. Ikkilamchi sektor orasida qayta ishlash sanoati muhim o‘rinni egalladi. Uning 30% atrofidagi

ishlab chiqarilgan mahsuloti mashinasozlik sanoatiga to‘g‘ri keldi. Og‘ir sanoatdagi qayta ishlash tarmog‘ining ulushi 1978 yildagi 52,5% dan 1996 yilda 60% ga yetdi.[18]

Hozirgi kunda sanoat ishlab chiqarilishidagi ustuvorlik texnika sig‘imi katta bo‘lgan ishlab chiqarilishga berilmokda. An’anaviy tarmoqlar, ya’ni, ko‘mir qazib olish, tekstil, yog‘ochni qayta ishlash, oziq-ovqat, oddiy mashinasozlik tarmoklari ulushi esa, aksincha, kamaymoqda. Ulardan farqli o‘laroq, neftni qayta ishlash, elektronika, kimyo, metallurgiya, transport va elektroenergetik uskunalarini ishlab chiqarish sezilarli tarzda ortib bordi. Ba’zi bir mashinasozlik tarmoqlari kundan kunga o‘z salohiyatini oshirib borishmoqda. Xitoy kemasozlik sanoati dunyoda uchinchi o‘rinni egallab, uning umumiy jahon kemasozligidagi ulushi 5% ni tashkil etmoqda. 1990 yillar boshidan elektron uskunalar ishlab chiqarish yiliga 30% ga o‘sib bordi. Bu tarmoqni sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 1990 yildagi 3,4% dan, 1997 yilga kelib – 4,6:%ga o‘sdi.[19]

Garchi, davlat sektori yalpi mahsulot ishlab chiqarishda o‘zining ustuvorligini asta-sekin yo‘qotayotgan bo‘lsa ham, u boshqa ko‘rsatkichlar bo‘yicha ustunligini saqlab kelmoqda. Unda asosiy fondlar, kapital quyilmalarning umumiy hajmi va davlat xazinasiga mablag‘ keltirish bo‘yicha, u o‘zining pozisiyasini saqlamoqdadir.

Mamlakatda ikki sektorli model yuzaga keldi. U yirik vamayda ishlab chiqarishga asoslangan bo‘lib, sanoatni qayta ro‘yxatga olish ma’lumotiga ko‘ra, sanoat korxonalarining 0,3% ni, ya’ni, ularning 23007 tasi «yirik va o‘rta» korxonalar kategoriyasiga kiritilgan edi. Ulardan, 6201 tasi «yirik» va 215 ta ob’ekt «juda ham yirik» deb tan olindi.

Bu sektorda 25% ishchi va xizmatchilar band bo‘lib, ularda 60% dan ortiqroq sanoatning asosiy fondlari joylashgandir. Ular davlat byudjetiga sanoat solig‘ining 60% ni beradi. Mayda ishlab chiqarish esa, asosan, qishloq korxonalarida olib borilib, ular isloxotlar mobaynida ancha o‘sdi. Ammo, leknn, ushbu ob’ektlar soni hozirda ancha kamayib, ularning faoliyati qishloq xo‘jalik ehtiyojini qondirish va aholiga xizmat ko‘rsatishga moslashgandir.

Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar ishlab chiqarish kuchlarini rasional joylashtirish siyosatini ham tubdan o‘zgartirib yubordi. Mamlakatda bozor munosabatlarini xalk xo‘jaligiga moslashtirish kursi e’lon kilindi.

Ishlab chiqarishni rasional xududiy tashkil etilishining yangi konsepsiyasi dengiz oldi, shahar oldi, va chegara oldi rayonlari salohiyatini va eski sanoat bazalarini yuqori iqtisodiy o‘sishini o‘z ichiga oladi va mamlakat markaziy va g‘arbiy rayonlarida joylashgan «yangi sanoat regionlarini» o‘zlashtirishni ko‘zlaydi.

---

[18] Чжунго няньцзянь,1997, 840 с.

[19] Ли Цзинцзи.Структурные изменения в народном хозяйстве Китая и тенденции развития.Дандай цэйцзинью 1998.№5, 18

Mamlakat dengiz oldi rayonlarining gurkirab rivojlanishida turli omillarning hissasi kattadir. Jumladan, Janubiy provinsiyalarga va erkin iqtisody zonalarga xorijiy kapital quyilmalarini kirib kelishi, dengiz oldi rayonlarida yuqori malakali ishchi kuchini mavjudligi, bu mintaqalarda iqtisodiy islohotlarning jadal olib borilishi, xom ashyolarning mavjudligidandir. Janubiy zonaning umumiy sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 1985 yildagi 60,3% dan 1998 yilga kelib, - 68,1% ga oshdi. Bunga e'tiboran, markaziy regionning umumiy sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 1985 yildagi 27,2% dan, 1998 yilga kelib, -21,6% ga, g'arbiy regionning ulushi esa, 1985 yildagi 12,5% dan, 1998 yilga kelib -10,3 % ga qisqardi.

Hozirgi kunda xitoy sanoat sohalari bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida ishlamoqda. 300 mingta markaziy rejalashtirish tizimidagi davlat korxonalaridan, atigi 10 mingtasigina real, amalda faoliyat ko'rsatmokda. 1990 yillar oxiriga kelib, direktiv ko'rsatkichlar soni 1980 yillardagi 120 tadan, 33 taga qisqartirildi.

Direktiv rejalashtirish chegarasida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulotni ulushi 40% dan, 4,5 % ga qisqardi. Agar, islohotlar boshida markaziy taqsimlanishga 256 ta mahsulot turi kirgan bo'lsa, hozirgi kunda ularning turi 11 taga qisqardi. 14 mingdan ortiqroq, yoki yirik va o'rta davlat korxonalarining 1/3 qismi korporativ xo'jalik tizimiga o'tkazildi. Mayda korxonalarning 50% dan —70% si isloh qilindi[20]

Islohotlar mobaynida mamlakatda keng miqyosda sanoatni texnik rekonstruksiyasi o'tkazildi. Sanoatni qayta ro'yxatdan o'tkazish asosida 1995 yildagi umumiy sanoat uskunalarining barchasi 1980 yildan so'ng, ishlab chiqarilganligi ma'lum bo'ldi. Yirik va o'rta korxonalarda 26% uskunalar ilg'or xalqaro standartlar darajasiga yetqazildi. 3200 turdagi sanoat uskunalaridan– 47,1%i import qilindi, ularning 52,9% i mahalliy, ya'ni xitoyning o'zi ishlab chiqargan sanoat uskunalari hisoblandi

Sanoatdagi bandlar soni sezilarli darajada o'smokda. 1995 yilda sanoatda 147,4 mln. kishi yoki xalq xo'jaligidagi bandlarning 21,4% ni tashkil etdi.[21]

Xitoy sanoatining jahon bozoriga kirishiga keng yo'l ochildi. Islohotlar mobaynida mamlakat eksporti hajmining o'sishi va uning yalpi daromaddagi ulushining ortishi bilan ko'zga tashlanib boradi. Agar 1980 yillarda bu kursatkich 3,1% ni tashkil etgan bo'lsa, 1995 yillarga kelib, u 22% ga o'sdi[22]. Ishlab chiqarishdagi iqtisodiy samaradorlik katta muammolarni keltirib chiqardi. 30% gina davlat korxonalarini mustahkam rentabelli korxonalar qatoriga kiritish mumkin bo'lib, 40% korxonalar esa zarar keltiruvchilar qatoriga kirar edi.

---

Манба: Го Кэо. Указ. соч. С.15.

[21] Чжунго цзинцзи нянбцзянь.1997. с.891.

[22] Чжунго щиган цзинцзибас.09.02.1998.

Mamlakatda mana shu mintaqiviy siyosatni norasional amalga oshirilishi, uni hukumat tomonidan mazkur yo‘nalish bo‘yicha keskin chora-tadbirlar ko‘rilishini talab qildi. Bu esa, o‘z navbatida mamlakatning mintaqaviy siyosatini asosiy yo‘nalishlarini, ya’ni mamlakat ishlab chiqarish kuchlarining rasional joylashtirish masalalarini aniqlab berar edi.

Mamlakatda iqtisoodiy islohotlarni keskinlashtirish va uning xo‘jalik tizimi rivojlanishini tezlashtirish muammolarini hal etishdagi strategik yondashuvlarni ishlab chiqish, 1992 yilda bo‘lib o‘tgan XKP ning XIY s’ezdida o‘zining yaqqol aksini topdi. Unda makroiqtisodiy darajada davlatning boshqarish jarayonlarini qayta qarab chiqish zarurati mavjudligi va uni amalda o‘zgartirish lozimligi to‘g‘risida gap yurgizildi.

# 4-BOB: XXRDA TASHQI SAVDONI AMALGA OSHIRISH SHART-SHAROITLARI

## 4.1.Xitoyda tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun yaratilgan shart - sharoitlar

Xitoy iqtisodiy islohotlarini amalga oshirish davrida makroboshqarish siyosatida aniq maqsadlar birdaniga paydo bo‘lgani yo‘q. Makroiqtisodiy boshqarishni maqsadini avval iqtisodiy o‘sish sur’atlarida ko‘rsak bo‘ladi, ya’ni jamiyat taraqqiyotini har tomonlama tezkorlik bilan o‘sish yo‘li orqali qo‘llab-quvvatlash, davlat kuch-qudratini oshirish, xalqni yashash darajasini ko‘tarish va qashshoqlikni yo‘qotishda ko‘rish mumkin. Ushbu siyosat natijasida, xitoy iqtisodiyoti miqyoslari tez kengaytirishga va xalq farovonligini oshirishga erishilgan bo‘lsada, u yana o‘zi bilan birga bir qator salbiy natijalarni ham olib keldi. Ular – “Iqtisodiyotning qizib ketishi” va inflyatsiya darajasining yuqoriligidir.

Undan tashqari, iqtisodiy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlash bilan birga, yalpi talab va taklifning muvozanatini ushlab turish, iqtisodiyot tarkibini takomillashtirishga yordam berish masalalari ham asta-sekin aniqlandi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish siyosati mamlakatdagi iqtisodiy muvozanatni qo‘llab-quvvatlashdan tashqari, yana ham umumiy ta’minot va talabni, ham ishlab chiqarish, iste’mol va kapital quyilmalarini o‘zaro kelishilgan tizimga olib kelishi muqarardir.Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning turli xil uslublari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iboratdir:

ma’muriy;

iqtisodiy;

yuridik.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida esa, aynan iqtisodiy boshqarish usuli katta rol o‘ynaydi. Ushbu boshqarishning asosiy iqtisodiy vositalari bo‘lib, moliyaviy siyosat, soliq (fiskal) siyosat, pul-kredit siyosati, ijtimoiy siyosat xizmat qiladi.

Xitoy iqtisodiyotida qisqa vaqt mobaynida bozorning roli va uning tashqi dunyo uchun ochiqligi bir karra oshdi. Mamlakatning iqtisodiy o‘sish sur’atlari sezilarli tarzda tezlashdi. Natijada aholining yashash darajasi ham o‘sib bordi. Ushbu yutuqlar mamlakatning 1992 yilda “sotsialistik spesifikali ” bozor iqtisodiyotiga o‘tishiga zamin yaratdi va bu holat Xitoy xukumatida mamlakat iqtisodiyotini tartibga solishda davlatning roli naqadar yuqoriligi bilan uzviy bog‘liq bo‘ldi. Bu jarayon 1992 yilning 12 oktyabrida XKP ning 14 Umumxitoy s’ezdida “1992-2000 yillarga” mo‘ljalllangan mamlakatda jamiyat qurilishi yo‘nalishlari va uni isloh qilishning asosiy maqsad va vazifalarida o‘z aksini topdi.

Xitoy Xalq Respublikasida hozirgi kunda olib borilayotgan va amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar 1978 yilda uning “ochiq eshiklar” siyosatiga asos solinishi bilan boshlandi. Xitoy iqtisodiy islohotlarining “bosh arxitektori” hisoblangan buyuk Den Syaopin XXR ning kelajak rivojlanish yo‘lini belgilab berib, u quyidagi mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish tamoyillarini e’lon qildi:

Mamlakatdagi mavjud ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga to‘sqinlik qilmaslik;

Reja sotsializmga, bozor esa kapitalizmga ekvivalent (teng) emas. Reja va bozor iqtisodiyoidan har ikkala tizimda ham foydalanish mumkindir;

Inson ongini o‘stirib borish, xalqning moddiy boyishini ta’minlashga ko‘maklashish.

1990 yillar boshida “Xitoy iqtisodiy modeli” ning shakllanishiga asos solindi. 1992 yilning 12 oktyabrida XKP ning Umumxitoy 14- s’ezdi bo‘lib o‘tdi va unda 1990-2000 yillarda Xitoy jamiyatini qurishning asosiy yo‘nalishlari ham iqtisodiy islohotlarni qaysi yo‘nalishlarda chuqurlashtirish vazifalari aniqlab olindi. ular:

birinchidan, mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy. islohotlar sur’atlarini tezlashtirishda :

a) davlat korxonalarida xo‘jalik yuritishning dastaklarini qayta ko‘rib chiqish, ayniqsa yirik va o‘rta davlat korxonalarini bozor talablariga yaqinlashtirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish;

b) bozor tizimi infratuzilmasini takomillashtirish, iste’mol tovarlari bozorlarini, ishlab chiqarish vositalari bozorini, moliya bozorlarini isloh qilish va narx siyosatini qayta ko‘rib chiqish;

c) ijtimoiy ta’minot va taqsimot tizimi islohotlarini chuqurlashtirishdan iboratdir.

Davlat, jamiyat va xususiy manfaatlarini inobatga olgan holda, milliy iqtisodiyotdagi adolatli taqsimotni amalga oshirish, ya’ni davlat va jamoa korxonalari, markaz va joylardagi daromadlar taqsimoini muvofiqlashtirib borishdir, undan tashqari, ish haqini tartibga solib turish, ijtimoiy ta’minot tizimini intensiv ravishda takomillashtirib borish, aholini ish joylari

bilan ta'minlash, pensiya va tibbiy yordamni yaxshilash, shahar va qishloqlarda uy-joy qurilishini davom ettirishdan iboratdir.

ikkinchidan, xorijiy hamkorlikni rivojlantirish, mamlakatga jalb etilayotgan xorijiy sarmoyalardan, mavjud tabiiy resurslardan, texnika v texnologiyalardan samarali foydalanish lozimdir. Xitoy erkin iqtisodiy xududlarini tashqi dunyoga ochiqligini kengaytirish. Pudun iqtisodiy rayonini rivojlantirish. Shanxay shahrini mintaqadagi xalqaro moliyaviy markazga aylantirish lozim. Shu bilan birga, Yanszi havzasi shaharlarini, ya'ni Guandun, Fuszyan, Xaynan va Boxay zonasidagi shaharlarni tashqi dunyoga kengroq ochish mezonlarini ishlab chiqish lozimligi belgilab olindi.

uchinchidan, ishlab chiqarish tarkibini sifat jihatdan tartibga solish va uning samaradorligini oshirish, asosiy "uchta industriyani rivojlantirish" (qishloq xo'jaligi, sanoat tarmoqlari, xizmat ko'rsatish sohasini)

to'rtinchidan, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni rivojlantirish, ta'lim va ma'rifatni mamlakat xududi bo'ylab teng baravar rivojlantirish. Markaziy va g'arbiy rayonlardagi ishchilarning ishlab chiqarish malakachini oshirish va ilmiy-texnikaviy taraqqiyot yutuqlarini ishlab chiqarishga amalda joriy etish yo'llari belgilab olindi.

Xitoydagi iqtisodiy islohotlar jarayonini uch bosqichga bo'lish mumkin:

1– bosqich 1978 yilning dekabr oyidan to -1984 yil sentyabr oylarini o'z ichiga olib, unda asosiy e'tibor mamlakat qishloq xo'jaligiga va xaq to'lash asosida uy xo'jaligini, pudrat javobgarchiligining turli shakllarini rivojlantirishga qaratildi. Bu esa, mamlakatdagi 100 mln. lab fermerlarning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'paytirishdan manfaatdor ekanligini ko'rsati. Shaharlarda iqtisodiy jududlar eksperiment tariqasida isloh etishda o'tqazila boshladi. Ular natijasida 14 ta erkin port shaharlari ochildi. Mamlakatda ko'p bosqichli bank tizimi yaratildi. Uning asosini markaziy bank – Xitoy banki, ishtirokchilarini esa, boshqa davlat va tijorat banklari hamda maqsadli moliyalash banklari, nobank moliya institutlari tashkil etdi.

2– bosqich 1984 yilning oktyabr oyidan to 1991 yilning dekabr oyigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, unda iqtisodiy islohotlar markazi mamlakat shaharlariga ko'chdi. Bunda asosiy e'tibor korxonalarning ish faoliyatlarini oshirishga qaratildi. Makroboshqaruv tizimi isloh qilindi va mamlakatni tashqi dunyo uchun ochishga yo'naltirilgan xarakatlar davom ettirildi.

3– bosqich 1992 yilning yanvar oyidan to 2000 yilgacha davom etib, unda e'tibor mamlakatda "sotsialistik spesifikali bozor iqtisodiyoti"ni qurishga qaratildi.

Xitoyda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayoni va mamlakatni tashqi dunyo uchun ochish 1978 yilning dekabr oyida Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasining 11 chaqiriq 3-Plenumida ko'rib chiqildi hamda unda mamlakatda amalga oshirilishi lozim bo'lgan iqtisodiy qurilishlarning bosh yo'nalishlari tasdiqlandi. Uning maqsadi mamlakatda

mavjud bo‘lgan rejali iqtisodiyotdan qadam-baqadam bozor iqtisodiyotiga o‘tish bo‘lib, unda quyidagi tamoyillarga tayanildi:

“Sotsializmning mazmuni – ishlab chiqarish kuchlariga mustaqillik berish, uning umumiy maqsadi esa, - mamlakatda yashayotgan barcha aholining farovonligiga erishishda iqtisodiyotdagi mavjud kishini kishi tomonidan ekspluatatsiya qilishga barham berish va daromadlar darajasidagi katta farqlanishni yo‘qotishdan iboratdir”.

Iqtisodiy islohotlarning boshida quyidagi asosiy vazifalarni hal etish belgilab olindi:

mamlakatdagi o‘sha davrda mavjud bo‘lgan oziq-ovqat muammosini hal etish;

mamlakat aholisini ish bilan to‘liqroq ta’minlash;

Xitoyda barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishdan iborat edi.

Yuqorida belgilab olingan vazifalarni hal etish uchun mamlakatda 1980 yilda “To‘rtlik modernizatsiyasi” dasturi ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiq qilindi. Ushbu dasturga asosan, birinchi navbatda qaysi sohalarni modernizatsiyalash lozimligi aniqlandi va ular quyidagi sohalar deb belgilandi:

Mamlakat qishloq xo‘jaligini rivojlantirish;

Uning sanoatini (ayniqsa, qayta ishlash sohasini) rivojlantirish;

Fan va texnika yutuqlaridan samarali foydalangan holda, ushbu sohani rivojlantirish;

Mamlakat harbiy kuchlarini yanada mustahkamlashdan iboratdir.

Ular natijasida, 1990-yillar mobaynida mamlakatda “sotsialistik spesifikali bozor iqtisodiyoti” shakllandi.

## 4.2. XXR tashqi savdo faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza

Hozirgi davrda XXRning “G20 (katta 20lik)”, ATES, BRIKS, SHHTlaridagi faoliyati jadallashib, u boshqa mintaqaviy tuzilmalarda ham faol qatnashmoqda. Bu harakatlar esa, Xitoyga uning xalqaro maydondagi o‘rnini mustahkamlashga yordam bermoqda.

Xitoy tashqi savdo faoliyatini tartibga solishning asosi - bu uning normativ--huquqiy bazasi hisoblanib, unda quyidagi TIF tartibga solishning qonuniy aktlari mavjuddir:

- 2004-yildan beri tahrirdagi “Tashqi savdo to‘g‘risida” gi XXR qonuni hisoblanib, unga doimiy ravishda o‘zgartirilib va qo‘shimchalar kiritilib kelinadi. Mazkur qonunning qo‘llanilish sohasi xalqaro savdo va intellectual mulk huquqi bilan bog‘liq tashqi savdo hisoblanadi hamda u tovarlar va xizmatlar eksporti va importini o‘z ichiga oladi.

- 1999-yildan beri tahrirdagi “Shartnomalar to‘g‘risida” gi XXRsi qonuni sotsialistik modernizatsiyani jadallashtirishni, jamiyatda iqtisodiy tartibni ta’minlovchi, shartnomalar tuzishda ishtirok etuvchi tomonlarning qonuniy huquqini himoya qilish uchun ishlab chiqilgandir.

- 2005-yildan beri tahrirdagi “Kompaniyalar to‘g‘risida” gi  XXRsi qonuni. Mazkur qonunni qabul qilishdan maqsad, kompaniyalarni faoliyatlarini tashkil etishni tartibga solish, kompaniyalar ishtiroqchilari (hissadorlar) va kreditorlar huquqlari va manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy-iqtisodiy tartibni qo‘llab-quvvatlash, mamlakatda sotsialistik bozor iqtisodiyotini rivojlanishiga yordam berishdan iborat.

Mana shu asosiy qonunlardan tashqari, tashqi savdoda bevosita tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan: bojxona, investitsion, bank, valyuta-moliya, soliq qonunchiligi, intellectual mulkni himoya qilish to‘g‘risidagi qonunchiliklar. aralash munosabatlarni tartibga soluvchi normativ aktlar holati ham qo‘llaniladi.  Mamlakatga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni tartibga soluvchi asosiy organ bu – XXRsi rivojlanish va islohotlar bo‘yicha Davlat qo‘mitasi  (ГКРР КНР) hisoblanadi. Uning faoliyati qonuniy asosini .quyidagi hujjatlar tashkil etadi:

“Xitoy va xorijiy kapitalli qo‘shma pay to‘g‘risida” gi XXRsi qonini va uni qo‘llash bo‘yicha Holat;

“Kooperatsion (kontraktli) qo‘shma korxonalar to‘g‘risida” gi XXRsi qonuni va uni qo‘llash bo‘yicha Holat;

3. “Xorijiy kapitalli korxonalar to‘g‘risida” gi XXRsi qonuni;

4. “Chet el investitsiyasini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” gi XXRsi Davlat kengashi Holati;

5. “Tashqi savdo to‘g‘risida ” gi XXR si qonuni[23];

6. “Xitoy va xorijiy kapitalli qo‘shma pay korxonalari ustav kapitali va umumiy investitsiya hajmi o‘rtasidagi nisbat to‘g‘risida” muvaqqat holat;

7.“Doimiy vakolatli xorijiy korxonalarni ro‘yxatga olish to‘g‘risida” gi qoida va normalar[24].

Umuman, tashqi savdo munosabatlarini tartibga solish iqtisodiy va ma’muriy usullar yordamida amalga oshiriladi. Ma’muriy usullar – huquqiy qonun va normalar asosidagi chegaralangan hamda ruxsat etilgan choralar (savdo munosabatlarini tartibga soluvchi aktlar, bojxona kodeksi, qoida va qarorlar) hisoblanadi. Ulardan eng samaralisi – bojxona orqali tartibga solish bo‘lib, u bojxona organlari tuzilmasini, tariflarni ishlab chiqish va tasdiqlash tartibini, boj undirish tamoillari va masalalarini o‘zida aks ettiruvchi bojxona kodeksini qamrab oladi.

---

[23] Галенович Ю.М. Взгляд на Россию из Китая. Прошлое и настоящее России и наших отношений с Китаем в трактовке китайских ученых. М.; Время, 2010. – 304 с.

[24] Абросимова, С. В. Межстрановая предпринимательская деятельность в условиях глобализации /С. В. Абросимова // Российское Предпринимательство. – 2012. – №12. – С. 15.

Savdo bitimlari ishtirokchilariga nisbatan imtiyozli savdo tartiblari va preferensiyalarini qo‘llashning huquqiy asosi bo‘lib, “XXRsi import-eksport tarifi to‘g‘risidagi holat” xizmat qiladi. Mazkur hujjat asosida XXR bojxona tariflari bo‘yicha Davlat kengashi Qomitasi (uning vazifasiga davlat tariff siyosatini ishlab chiqish kiradi) har yili “XXRsini eksport-import bojxona tarifi” ni tasdiqlaydi. Ushbu imtiyozli import tarifi 2015-yildan beri ahamiyatli tarzda o‘zgarmagan va xanuzgacha mamlakatda muayyan kategoriyali imtiyozli import stavkalari qo‘llanilmoqda.

Tashqi savdoni tartibga solishning davlat notarif (ma’muriy) uslublari bu - ro‘yxatdan o‘tqazish, litsenziyalash, kvotalash va kontingenlash, eksport, import va valyuta nazorati, tovarni deklaratsiyalash, turli imtiyozlar tizimi hisoblanadi[25]

Xitoyda 2ta eksport va omportni notarif tartibga solish uslublar kategoriyasi mavjud bo‘lib, ular: miqdoriy uslublar va texnik tomondan tartibga solish choralari hisoblanadi va u har yilda o‘zgarib turadi.

Miqdoriy uslublarga tovarlarni kvotalash, litsenziyalash hamda tovarlarni import va eksport qilishni taqiqlash hisoblanadi. Xitoyda eksportni kvotalash tartibi asosan, xom ashyo tovarlariga (ko‘mir, rangli va noyob metallar) hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga, donli guruhlar (guruch va makkajo‘xori) tegishlidir.

XXRsi Tijorat vazirligi tomonidan har yili eksport kvotalari jahon va ichki xom ashy ova oziq-ovqat bozorlaridagi holatlarga qarab, korrektirovka qilinadi. Xususan, 2015 yilning 1 yanvaridan boshlab, XXRsi Davlat kengashi qarori bilan noyob yer elementlari, ko‘mir va boshqa xom ashyo mahsulotlari turlarini eksport qilishda kvota bekor qilindi. Importga bo‘lgan kvotalash Xitoyda quyidagi 8 ta tovarlar guruhlariga qo‘llaniladi: bug‘doy, makka, guruch, shaker, jun, junli kiyimlarga, paxta va 15 ta kimyoviy o‘g‘itlarga. Kvotalar miqdori ham har yili XXRsi Tijorat vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

**Litsenziyalash.** Eksport va importni litsenziyalash tartibi XXRsi Tijorat vazirligini 2008 yildagi № 28 sonli ko‘rsatmasiga binoan belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra. XXRsi Tijorat vazirligi har yili Bosh bojxona boshqarmasi bilan birgalikda, eksport va import qilinadigan tovarlari ro‘yxatini mazkur vazirlik va joylardagi vakolatli organlar tomonidan berilgan litsenziya asosida tasdiqlaydi.

**Importni bekor qilish**. Mamlakatga olib kirish uchun taqiqlangan tovarlar ro‘yxati XXRsi Tijorat vazirligi tomonidan tartibga solinadi va tegishli saytlarda nashr etiladi.

---

[25] Гурвич, В. Китайский локомотив / В. Гурвич // Аналитика малого предпринимательства. – М., 2011. – 421 с.

**Texnik tomondan tartibga solish**. Xitoyda eng ko‘p tarqalgan texnik to‘siqlar (bar’ ýer) bu – milliy andozalarga rioya qilish, import qilinadigan mahsulotlarga sifat sertifikatini olish, tovarni markirovka va maxsus qadoqlash, muayyan sanitar-gigiena normalari talablariga rioya qilish, murakkablasgan bojxona muolajalarini bajarish to‘g‘risidagi talablar hisoblanadi.

Xitoydagi mavjud harakatdagi texnik to‘siqlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, asosan, ular mamlakatga import qilinadigan tovarlarning asoaiy bandlarini tashkil etmaydi va xom ashyo hamda mineral resurslardan iborat bo‘lib, ular Xitoy importuning 80%ni tashkil etmoqda.

# 5-BOB: XITOY TASHQI SAVDO TIZIMINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH

## 5.1. XXRda tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari

Ma’lumki, XXRda tashqi savdoni rivojlantirish uchun turli xil choralar qo‘llanilib kelmoqda. Ulardan biri - mamlakatda amalga oshirilgan (1991-gacha) eksportga moliyaviy dotatsiyalar ajratish usuli bo‘ldi. Shu bilan birga, mamlakatdagi «2-turdagi valyuta tizimi» (1994-gacha); eksport uchun mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarga tashqi savdo tashkilotlari tomonidan moliyaviy mustaqillikni berilishi; kreditlar berishni qo‘llab-quvvatlash; ularni bojxona soliqlaridan ozod qilish va boshqalar.

Ushbu siyosatning asosiy maqsadi - valyuta zahirasini yaratish va uning hajmini ko‘paytirib borishdir.Tayyor mahsulotlar bilan savdo qilishning turli shakllarini davlat tomonidan rag’batlantirilishi, mamlakatda, eksport qilish uchun tovar ishlab chiqarishning rivojlanishiga olib keldi. Natijada, mazkur holat mamlakat eksportining asosiy, yetakchi kuchiga aylandi. Bunga, mamlakatdagi umumsiyosiy holat, alohida ma’muriy rayonlar hisoblangan, Gonkong va Aomenning bir-biri bilan yaqin qo‘shniligi, mamlakat Janubiy-Sharqiy qismining suv yo‘liga qulay joylashganligi, u yerdagi ishchi kuchining arzonligi va uning boy resurslari hamda boshqa ko‘p omillar ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Xitoy tashqi savdo aktivining rivojlanish dinamikasi, ayniqsa, mamlakat eksportining mazkur XX asrda, nisbatan, yuqori ko‘rsatkichlar bilan rivojlanish imkonini berdi. Ushbu vaziyatning isbotini oxirgi 40 yillik, ya’ni, Xitoy iqtisodiy islohotlar tajribasi bilan amalda ko‘rish mumkin. Haqiqatdan ham, uning tashqi savdo taktikasi, sezilarli darajada mamlakatning moddiy resusrslarini samarali tarzda ishlatish va taqsimlash imkonini berdi va mamlakat iqtisodiyotining doimiy o‘sishini ta’minladi.

Ammo, shu bilan birga, ta’kidlash joizki, har bir davlat, o‘zining eksport operatsiyalarini faqatgina, mamlakatga valyutani kiritish maqsadidagina rivojlantirishi, uning salbiy tomonlarini ko‘rsatib, mamlakat iqtisodiyotini orqaga tortishi mumkin. Xitoyda, «valyuta

ishlab olish (qo‘lga kiritish)» siyosatini amalga oshirish davrining uzoq muddat davom etishi tufayli, uning eksport qiymati ko‘rsatkichlari ham ortib bordi. Ammo, lekin, uning savdo sharoitlari mutlaqo o‘zgargani yo‘q. Bu holat esa, mamlakat rahbariyatiga jiddiy signal bo‘lib xizmat qildi. Shu bilan birga, bu davrda Xitoy eksportida sifatli o‘zgarishlar ham ro‘y berdi, ya’ni, eksport umumiy qiymatining 86,9%i xom-ashyoni tayyor sanoat mahsulotiga aylantirilishdan tushdi. Unda mashinasozlik va elektronika sohasining eksport ulushi 39,5% ga, uning qiymati esa, 96,3 mlrd.$ ga yetdi.

Shuni ta’kidlash lozimki, ilgari Xitoy eksportinig o‘sishi, ekstensiv xarakterga ega bo‘lib, u mahsulot miqdorini oshirishga tayanar edi. Hozirgi kunga kelib, bu holat keskin o‘zgarmoqda. 2005-yilning yanvarida Xitoydagi xorijiy sarmoya ishtirokidagi kompaniyalarning eksport va importi hajmi 697,99 mlrd.$ga yetdi va o‘tgan yilga nisbatan, 29% lik o‘sish ko‘rsatdi. Bu korxonalarga mamlakat umumiy tashqi savdosining 49,6%i to‘g’ri keldi. Ayni paytda, davlat korxonalarining umumiy eksport va import hajmi 86,62 mlrd.$ ga teng bo‘ldi. (17,4% o‘sish). Kollektiv va xususiy korxonalar eksport-importi 40,1% ga o‘sib, 427,6 mlrd.$ ga yetdi.

Xullas, mamlakat tashqi savdosining tinmay o‘sib borishi natijasida, Xitoy iqtisodiyotining unga bo‘lgan bog‘liqligi ham ortib bormoqda. Oxirgi ma’lumotlarga qaraganda, ushbu bog‘liqlik 60% ni, importdan bog‘liqlik esa, 31% ni tashkil etgan[26].

XXR rivojlanishining turli bosqichlarida, mamlakat iqtisodiy siyosatidagi tashqi savdoning ahamiyati va ustunliklari sezilarli darajada farq qilgan. Boshlang‘ich davrdagi 10-12 yillarda tashqi savdoning aktiv rivojlanishi birinchi navbatda, sotsialistik mamlakatlar bilan aloqalar tufayli bo’lgan, “madaniy inqilob” davrida esa, ushbu aloqalar ancha turg‘un holatga kelib qolgan edi, uning sababi, Xitoy tashqi dunyo bilan aloqalarini qisqartira boshlaganidadir.Tashqi savdo xorijdan alohida ilg‘or texnologiyalar namunalarini sotib olish va ularni keyinchalik, ularga Xitoyning o‘zida ishlab chiqarish uchun valyutalarning kelib tushish manbayi sifatida qaralgan (harbiy texnika, sanoat uskunalari va boshqalar).

Mamlakatda eksport-import faoliyati miqyosining toraytirilishi natijasida, xitoy iqtisodiyotining baynalminallashuv darajasini pasayishi yuz berdi. Bunday tendensiyalar bo‘lishiga qaramasdan, tashqi savdo hajmi sezilarli darajada o‘sgan bo’lsada 1952-1954 yillarda 23,04 mlrd.yuandan, 1976-1978 – yillarda 89,16 mlrd. yuangacha, bu degani 3,9 martaga o‘sgan, lekin, uning sanoatda va qishloq xo‘jaligida yalpi mahsulotlar qiymatidagi ulushi 8,16%dan 5,89% ga, ya’ni 2,27% ga kamaygan[27].

---

[26]Экономика Китая, Ван Менкуй и др.2005,феврал.78 с

[27]Мировая экономика: глобальние тенденции за 100 лет. / Под ред. И.С.Королева. – М.: Юрист, 2003. – 604 С

XKP MK ning 3-plenumi 11-chaqirig‘ida (1978-yil dekabr) Xitoyning tashqi dunyoga ochiqligi e’lon qilingan va xitoy jamiyatining iqtisodiy islohatlarga qadam qo‘yishni boshlagan. Ochiqlik g‘oyasi (“dui wai kai fan”) juda muvaffaqiyatli bo‘lgan va asosiy uzoq muddatli tashqi iqtisodiy siyosat edi. Bu islohotlar boshlangandan so‘ng, hukumat iqtisodiy rivojlanishda tashqi iqtisodiy omillarning o‘rnini qaytadan chuqur ko‘rib chiqdi. 1968-70-yillarda mashhur bo‘lgan “o‘z kuchiga tayanish” (“zi li gen shen”) tamoili – iste’mol tovarlarini, texnika va texnologiyalarni importini, turli ko‘rinishdagi xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni qisqartirish yoki ularni umuman jalb qilmaslik, “ochiqlik” siyosati bilan almashtirildi.

1980-yilning iyun oyida Den Syaopin chet el delegatsiyasi bilan uchrashuvida birinchi bora “Tashqi dunyoga ochiqlik” atamasini, Xitoyning tashqi dunyoga nisbatan iqtisodiy siyosatini asosi sifatida ishlatgan va “Xitoy xalqaro munosabatlarda ochiqlik siyosatini amalga oshiradi, xalqaro arenaga chiqish yo‘llarini kengaytiradi, rivojlangan mamlakatlar bilan tajriba almashadi, milliy rivojlanishni qo‘llab quvvatlash uchun xorijiy kapitalni va texnikalarni jalb qilishga alohida e’tibor qaratadi” deb e’lon qildi.

1982-yilning dekabr oyida XXR Konstitutsiyasining yangi tahririda tashqi ochiqlik siyosatini amalga oshirish mamlakatning muhim faoliyati sifatida belgilab qo‘yildi.

Ochiqlik g’oyasi bir ovozdan partiya va jamiyat doirasida qo‘llab-quvvatlandi deb bo‘lmaydi, chunki, xitoy iqtisodiyoti aktiv holda ochiqlik siyosatining yutuq va kamchiliklari haqida, xitoy xalqi uchun olib kelishi mumkin bo‘lgan xavfli tomonlari haqida baxs va munozaralar olib borilgan. Ba’zilar bu ochiqlik g’oyasiga qarshi edi. Baxs-munozaralar oqibatida tashqi iqtisodiy ochiqlik konsepsiyasi deyarli to‘liq shakllandi, unga munosabat, konyuktura sifatida emas, balki, uzoq muddatli strategiya sifatida, qoloqlikni yengib o‘tishning asosiy dastagi sifatida, ilg’or mamlakatlarga yetib oluvchi mamlakatlar qatoriga kirish va tashqi savdo hamda tashqi iqtisodiy faoliyatda yetakchilar qatoriga kirishning bir yo‘li sifatida mustahkamlana borgan.

Xitoy maksimal darajada ichki rezervlarni ishga solib, XXI asrda tashqi savdo bo‘yicha, o‘sib borayotgan jahon iqtisodiyotining globallashuvida jahon liderlik pozitsiyasiga erishdi.

Xitoyning ochiq iqtisodiyot konsepsiyasining muhim tarkibiy qismi xitoy modelining qurilishi “sotsializm xitoy spetsifikasi bilan ikki ma’noga ega, bir tomondan, bu XXRning asosiy tashqi iqtisodiy siyosatini strategik asosi bo‘lib, u jahon liderlari pozitsiyasi va iqtisodiy-ijtimoiy sakrash uchun, rivojlangan mamlakatlarni turli xil ko’rinishdagi iqtisdoiy yutuqlaridan foydalanishga qaratilgan. Ikkinchi tomondan, ochiqlik bu odamlar ongining barcha yangi, zamonaviy, innovatsion narsalarga ochiqligi, sotsializmning boshlang’ich qurilishida yig’ilgan, “to’rtlik bandasi” bilan bog’liq, turli xil dogmalardan voz kechish ”.

Xitoyning ochiqlik konsepsiyasi, o’z ichiga quyidagi holatlarni qamrab oladi:

mamalakatning umumiy boshqaruvi ostida, borgan sari ko’proq bozor mexanizmlari asosida faoliyat olib boruvchi, xalq xo‘jaligi kompleksining butunligi. Bunda xalq xo‘jaligi kompleksi tartibiga ko‘ra jahon xo‘jaligi va Xalqaro iqtisodiy aloqalar tizimiga integratsiyalashishi zarur;

xalqaro mehnat taqsimotida mamlakatning qiyosiy ustunligidan samarali foydalanish;

miliy iqtisodiyot manfaatlaridan kelib chiqqan holda, balanslashgan, ichki bozorni xorijiy tovarlar, kapital, bilim, texnologiya va axborot oqimiga ochiqligi;

Xitoy tashqi savdosini rivojlanish strategiyasining evolyutsiyasi.

Tashqi savdoning rivojlanish strategiyasi eksport va import qilinadigan tovarlarning nisbatan narxini o‘zgartirib, ayrim tarmoqlarning ishlab chiqarish va savdosini rag’batlantirish siyosati hisoblanadi. Xitoyning tashqi savdo strategiyasining evolyutsiyasi 2001 yilda Jahon Savdo Tashkilotining tarixiy ishtiroki bilan ikki asosiy bosqichga bo’linishi mumkin edi. "JST oldin ishtirok etish" bosqichida Xitoyning savdoni rivojlantirish strategiyasi 1980 yildan 2001 yilgacha to‘rt bosqichga aylandi, (1984-1990), "eksportni rivojlantirish va marginal savdoni liberallashtirish" (1991-1993) va "radikal savdoni liberallashtirish" (1994), "import o’rnini bosish va marginal eksportni rag’batlantirish" (1980-1983-2001). Ular markaziy hukumatning iqtisodiy institutsional islohot va ochiq eshiklar siyosati uchun savdo hamda sanoat siyosati strategiyasini ochib beradi.

"JSTga kirishdan keyingi bosqich" ga kelsak, Xitoy import o‘rnini bosadigan yoki eksportni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan savdoni rivojlantirish yangi strategiyasini barqaror rivojlanish uchun qulay, ichki va tashqi talabni kelishilgan holda, import va eksportning savdo balansidagi strategiyasiga aylantirdi. Shu bilan birga, umumiy iqtisodiy rivojlanish rejasi doirasida 2001 yildan boshlab, Xitoyning savdo siyosati jihatidan uchta bosqichga o‘tadi, ya’ni "Jahon Savdo Tashkilotiga kirish uchun majburiyatlarni bajarish va savdoni liberallashtirishni davom ettirish" (2001-2005), "savdo siyosatini tartibga solish va uni o‘sish sur’atini o’zgartirish" (2006-2008), "global moliyaviy inqirozdan xalos bo‘lish va uni tiklash" (2008 yildan hozirgi kunga qadar).

Tashqi savdo mamlakatning iqtisodiy hamkorlikda va raqobatda qatnashishini asosiy shakli va kanali, tashqi dunyoga ochiqlikni muhim tarkibi va boshlang’ich punktidir. Savdoni rivojlantirish va isloh qilish davlatning tartibga solish mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Tashqi savdo aloqalarini davlat tomonidan tartibga solinishi – bu mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarga davlat organlari va xizmatlari tomonidan ishlatiladigan shakllar, usullar va dastaklar, shuningdek, davlat va milliy manfaatlar, maqsadlar va vazifalar yig’indisi. Davlat tomonidan tartibga solish qonun va boshqa davlat aktlari, qarorlar va bayonnomalarni qabul qilish orqali amalga oshiriladi.

Har qanday davlatning tashqi savdo siyosati hukumatning umumiqtisodiy yo‘nalishining muhim tarkibiy qismi sanaladi, yanada torroq ma’noda esa, eksport-import, tovar oqimlari hajmi, tovar tarkibi va juhforiy yo‘nalishini tartibga solish bilan bog’liq byudjet-soliq faoliyati sohalaridan biridir.Tashqi savdo siyosati xo‘jalik rivojlanishining ichki jihatlari bilan uzviy bog’liq bo‘lganligi uchun, uning bosh vazifasi mamlakat ichkarisida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va milliy boyliklni ko‘paytirish uchun zarur bo‘lgan qulay tashqi iqtisodiy sharoitlarni shakllantirish hisoblanadi.

Erkin savdo siyosati (yoki Fritidyerlik – inglizcha free trade) iqtisodiy hayotning bir hodisasi sifatida XVIII asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘lgan. Uning nazariy jihatdan asoslanishida A.Smitning mashhur asari – “Xalqlar boyligi, tabiati va sabablari” hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Fritryderlik nazariyasi boshqa bir ingliz iqtisodchisi D. Rikardo asarlarida rivojlantirildi va deyarli nihoyasiga yetkazildi. D. Rikardo Adam Smitning raqobat sharoitida erkin tadbirkorlik ahamiyati va mamlakat iqtisodiyotini “ko‘rinmas qo‘l” hukmronligiga, ya’ni bozorning o‘z-o‘zini boshqarish qonunlari ixtiyoriga topshiruvchi jamiyatning “tungi qorovuli” sifatidagi davlat roli haqidagi g’oyalarini rivojlantirdi.

Erkin savdo siyosatining klassik namunalarini XIX asrning ikkinchi yarmidagi ingliz-sakson mamlakatlari, ayniqsa, Buyuk Britaniya va uning dominionlari (1947-yilgacha Britaniya tarkibiga kirgan, rasmiy jihatdan mustaqil bo‘lgan davlatlar) iqtisodiyotida kuzatish mumkin. Iqtisodiy nazariyada, odatda, erkin savdo proteksionizm siyosatiga (inglz. protection – himoya, homiylik), ya’ni milliy iqtisodiyotning ichki va tashqi bozor tamoillarini salbiy ta’sirlaridan himoyalash maqsadida, davlat tomonidan joriy etiladigan iqtisodiy va ma’muriy chora-tadbirlar tizimi qarama qarshi qo‘yiladi.

Proteksionizm ilk davlatlar shakllangan paytdan buyon mavjuddir. Bu siyosatning tamoyillarini nazariy jihatdan amerakilik davlat arbobi A. Gamilton (XVIII asrning o‘rtalari) o‘z asarlarida ishlab chiqqan. Biroq, proteksionizm amaliy chora-tadbirlar seriyasi sifatida sayyoramizda so‘l (sobiq SSSR) va o‘ng (“Uchinchi reyx” – fashistlar Germaniyasi) siyosiy oqimlarining totalitar rejimi davrida o’z kulminatsion nuqtasiga yetgan. Bu mamlakatlarda savdo sohasida davlat monopoliyasi mavjud edi.

Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solinishi xalqaro shartnomalar, mamlakatning qonun va boshqa normativ huquqiy aktlari orqali amalga oshiriladi:

- bojxona – ta’riflari orqali tartibga solish;
- notarif tartibga solish;
- tashqi savdo xizmatlari va intellektual mulkni taqiqlash va chegaralash

Tashqi savdoni tartibga solishning ikki usuli mavjud. bular: valyuta va moliyaviy harakterga ega bo’lgan tartibga solish usullari hisoblanadi.

Ma'lumki, deyarli barcha mamlakatlarda tovarlarga nisbatan, chegaralarda bojxona solig'iga tortish qo'llaniladi. Uning maqsadi, birinchi o'rinda, xorijiy va milliy ishlab chiqarish tovarlariga bir xil soliq tizimini yaratishdir. Bunday usullarga aksiz soliqlar, boshqa tenglashtiruvchi soliq va yig'imlar, shuningdek, litsenzion yig'im, ro'yxatdan o'tish uchun yig'imlar kiradi.

Iqtisodiy va ma'muriy xarakterga ega bo'lgan tartibga solish usuli;

Valyuta va moliyaviy xarakterga ega bo'lgan tartibga solish usuliga xorijiy valyutani ishlatishga turli xil cheklovlar qo'yish kiradi: valyuta kurslarining ko'pligi, xorijiy valyuta bilan operatsiyalarga soliqlar, foizsiz garovlar. Valyuta kurslarining ko'pligi deganda kelishuv, hamkor va tovarning turiga qarab milliy valyutani xorijiyga qayta hisoblashni differensial kursini joriy qilish tushuniladi. Qator rivojlanayotgan mamalakatlarda xorijiy valyuta operatsiyalari uchun soliqlar, kiritilayotgan tovarlar narxining 50-60% ini tashkil qiladi[28].

## 5.2. Xitoy tashqi savdosini davlat tomonidan tartibga solishning ko'rinishlari

Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish turli ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Ularni tovar oqimlariga ta'siri tabiatiga ko'ra, bir-biridan jiddiy farq qiluvchi ikkita asosiy tiplarga ajratish mumkin: iqtisodiy va ma'muriy.

Iqtisodiy, ya'ni tarifli usullar tovar narxiga bevosita ta'sir qiladi. Bu usullar davlatlar tashqi savdo amaliyotida eng keng tarqalgan, chunki, ular birdaniga uchta vazifani hal qilish imkonini beradi:

1. fiskal – byudjet uchun qo'shimcha mablag'larni olish;

2. rag'batlantiruvchi – xorijiy hamkorlar bilan aloqalarni rivojlantirish;

3. proteksionistik – milliy tovar ishlab chiqaruvchilar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish.

Tashqi savdoni tarifli tartibga solish usullari qatoriga bojxona bojlari, bojlar, yig'imlar, shuningdek, boshqa bilvosita soliqlar, masalan, aksizlar kiradi.

Tarifsiz usullar – tovar ayirboshlashga ta'sir qilish dastaklarini, ya'ni olib kiriladigan yoki olib chiqiladigan mahsulot hajmi va nomenklaturasini cheklashni bildiradi. Ular ko'proq rivojlanayotgan va hukumat tomonidan proteksionistik iqtisodiy siyosatni talab qiluvchi, bozor tuzilmalari shakllanayotgan o'tish davri iqtisodiyotli mamlakatlarga xosdir.

Advalor (lot. – ad valorem - qiymatdan) bunda bojxona boji sotuvchi tomonidan qayd etilgan. Tovar qiymatidan foiz ko'rinishida bo'ladi.

Aralash – bunda maxsus va advalor bojlar birgalikda qo'llaniladi. JSTga a'zo bo'lgandan so'ng, Xitoy bojxona tarifini 15%dan 12%ga pasaytirdi, keyin esa, 9,5%gacha yetkazdi.

Jadval 5.2.1.

[28]Ни Сяолин. Расширять внутреннее потребление! //Китай, №9 (47), 2009. С.32.

XXR import tariflariga bojxona stavkalari kategoriyasi[29]

| | |
|---|---|
| RNB stavkalari | JSTga a'zo mamlakatlar tovarlariga, Xitoy bilan bojxona preferensiyalari haqida ikki tomonlama kelishuvga ega mamlakatlar va XXR bojxona hududlari |
| Hududiy kelishuv doirasida qo‘llaniladigan stavkalar | Xitoy bilan, imtiyozli bojxona tartibini ko‘zlovchi, hududiy kelishuvlarda qatnashuvchi mamlakatlar tovarlari uchun: ASEAN mamlakatlari (Bruney, Kambodja, Indoneziya, Malayziya, Laos, Myanma, Singapur, Tailand, Vetnam) no‘l stavkalar qo‘llaniladi, ammo 2005-yilning 20-iyulidan Xitoy bilan hududiy kelishuvda qatnashuvchi ASEANning 6ta mamlakalatlari uchun (Bruney, Myanma, Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tailand) 137 ta tovar pozitsiyalariga RNB stavkalariga mos keluvchi stavkalar qo'llaniladi.<br>Osiyo-Tinch okeani mamlakatlari kelishuvida (J.Koreya, Shri- Lanka,Bangladesh, Hindiston, Laos) 982ta tovar pozitsiyalariga;Xitoy-Pokiston preferensial savdo haqidagi kelishuviga ko'ra Pokistonda import qilinuvchi, imtiyozli stavkalar 2244ta tovarga kengaytirildi. Gonkong va Makao (2003-yilda yanada torroq savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish rejalari asosida bu hududlar bilan “no'l stavkalari”ni o‘rnatilishi). |
| Oddiy stavkalar | 143 ta import bojxona pozitsiyalari bo‘yicha, o‘simlik yog'i, kimyoviy xom ashyo, avtomobillar va ularga qo‘shimcha qurilmalar kabi tovarlar guruhiga kiruvchilarga stavkalar pasaytirilgan. |
| Maxsus kombinatsiyalangan stavkalar | 55 ta tovar pozitsiyalari bo‘yicha, xususan, go‘sht, tovuq, pivo, xom neft, foto va kinotasma, videotexnika. Bundan tashqari, XXR va Pokiston va ASEANning 6ta mamlakatlariga shuningdek kombinatsiyalashgan bojlar undiriladi. |
| Maxsus preferensial bojlar | Xitoy bilan maxsus bojxona imtiyozlari o‘rnatgan mamlakatlar tovarlari uchun qo‘llaniladi (Kambodja, Myanma, Laos va Bangladesh) – import qilinuvchi tovarlar uchun no‘l darajadagi bojxona bojlarini anglatadi, faqat ma'lum bir baliq mahsulotlari, tekstil tolalari, elektrik mashinalar va uskunalar bundan mustasno. Sudan va Xitoy tomonidan nisbatan iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar deb tan olingan 26 ta Afrika mamlakatlari uchun 2005-yil yanvar oyidan “no‘l stavkalar”i o‘rnatilgan. |
| Axborot texnologiyalar | 2006 yilning bojxona tarifi |

Shu bilan birga, Xitoy AQShdan unga, (2010-yilgacha) o‘tish davri berilishiga erishdi[30]. Yoqoridagi jadval 1.dan ko'rinib turibdiki, Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiyotida tashqi savdoning davlat tomonidan tartibga solinishi, alohida e'tiborga loyiqdir. Bunda bojxona tarif stavkalari muhim rolni o‘ynaydi. Har bir tovar turlariga nisbatan alohida bojxona tarif stavkalari joriy qilingan. Bunda, asosan, tovar, mahsulotlarning turlari, mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati hamda mazkur tovar-mahsulotlarning mamlakatda mavjud yoki yo‘qligi hisobga olingan.

Hududiy kelishuvlarga ko‘ra, ayrim davlatlar bilan boshqacharoq bojxona tarif stavkalari joriy etishgan, ba'zi tovarlarga nisbatan oddiy tarif stavkalari saqlanib qolingan. Maxsus

[29]Государственное регулирование во внешней торговле Китайской Народной Республики - http://www.russchinatrade.ru/ru/useful-info/cn-foreign-trade-regulation

[30]Бергер Я.М. Экономическая стратегия Китая.-М.: Магистр, 2009.- 574 С.

mahsulotlar uchun esa, kombinatsiyalashgan bojxona tarif stavkalari joriy qilingan. Xitoy bilan maxsus bojxona imtiyozlari o’rnatgan mamlakatlar tovarlari uchun maxsus preferensial bojlar mavjud bo‘lgan.

AQShning hozirgi prezidenti Tramp Xitoyni do‘st sifatida qabul qilganligini bildirdi, AQShning Xitoy tufayli duch kelgan tijoriy kamomadini nazorat qilib bo‘lmaydigan darajaga yetganligi sababli, chora ko‘rishga majbur ekanligini tilga oldi. Trampning aytishicha, Xitoyga tadbiq etiladigan qo‘shimcha boj solig’i va tovar importi bo‘yicha cheklovlarning qiymati 60 mlrd dollarni tashkil qiladi. Oq uy tomonidan e’lon qilingan hujjatga ko‘ra, Tramp Xitoyga nisbatan qo’shimcha boj solig’i va tovar importi bo’yicha cheklovlarni belgilash vazifasini AQSh xazina vazirligi bilan savdo tashkilotiga topshirdi.

2006 va 2008 - yillarda Xitoy va uning savdo hamkorlari o‘rtasidagi savdo-sotiqni taqiqlash tobora jiddiylashdi. Xitoy bilan JST o‘rtasida kelishmovchiliklarni hal qilish mehanizmida, himoyachi sifatida, 12ta ish mavjud edi. AQSh, Evropa Ittifoqi, Kanada, Meksika va boshqa mamlakatlar Xitoyning avtomobil qismlarini import qilish, soliq imtiyozlari va mahalliy kompaniyalarning bevosita subsidiyalari, IPR qonunchiligi va ovozli-tasviriy mahsulotlar, savdo va tarqatish huquqi, imtiyozli kreditlar va boshqa rag’batlantirish choralari bo‘yicha maslahat so‘radi. Aksariyat hollarda, Xitoy JST a’zolarining qarorini qabul qildi va JSTga muvofiq bo‘lmagan siyosatni qayta ko‘rib chiqdi va bekor qildi. .

Bir tomondan, Xitoy eksportni barqarorlashtirish va savdoni moliyalashtirishni rag’batlantirish, eksportni nazorat qilishni qisqartirish va eksportga QQSni oshirish bo‘yicha choralar ko‘rdi. Xitoyning valyuta kursi rejimi AQSh dollariga o‘tish uchun avvalgi tizimga qaytarildi va hokimiyat 2005-yildan buyon davom etayotgan RMBning qadrsizligini to‘xtatdi. Chegara RMB-dan imtiyozli pilot dastur va valyuta almashtirishni tartibga solishni 2009-yil aprel oyidan amalga oshirildi. Bundan tashqari, to‘g’ridan-to‘g’ri xorijiy investitsiyalarni tartibga solish erkinlashtirildi va uni tasdiqlash jarayoni soddalashtirildi.

Boshqa tomondan, Xitoy moliyaviy inqirozining bufer zarbalariga qarshi, importni himoya qilishning vaqtinchalik harakatlarini amalga oshirdi. Ayrim tovarlar bo‘yicha imtiyozli tariflar vaqtinchalik bekor qilindi. Hukumat import tovarlarining avtomatik litsenziyalash ro‘yxatini kengaytirdi. Savdo bo‘yicha chora-tadbirlar avvalgiga nisbatan, tezroq boshlandi. Mahalliy mahsulot va xizmatlarni ma’muriy ko‘rsatmalar bilan harid qilish uchun katta fiskal stimulda davlat haridlari amalga oshirildi. Mahalliy tarmoqlarni himoya qilish uchun bir nechta yangi qonunlar va qoidalar e’lon qilindi (masalan, mahalliy pochta jo‘natmalarini himoya qilish uchun yangi pochta qonunlari qabul qilindi). Xitoyning savdo siyosatiga oid tuzatishlar unga global inqirozni bartaraf etishda va ayniqsa, inqirozning boshida savdo ish faoliyatini yaxshilashda yordam berdi. Jahon iqtisodiyoti va tashqi talabning asta-sekin tiklanishi bilan,

Xitoyning tashqi savdosi 2010-yil noyabr oyida ijobiy o‘sishga aylandi va 2011-yildan buyon, jadal sur’atlarda o‘smoqda.

2015-yil yanvar-mart oyida Xitoy tashqi savdo hajmi oldingi yilning birinchi choragiga nisbatan, 6 foizga pasaydi va 5,54 trln. yuanni yoki 902,3 mlrd. AQSh dollarni tashkil qildi. 2015-yilning birinchi choragida import va eksportning umumiy hajmi 5,54 trln. yuan.ni tashkil qildi. Xususan, eksport 3,15 trln. yuanni tashkil qildi va 4,9%ga o‘sdi. Import 2,39 trln yuanga yetdi va 17,3%ga pasaydi. Savdo balansining ijobiy saldosi bu yilning birinchi uch oyi ichida 6,1 marta 755,3 mlrd. yuanga oshdi[31]. 2015-2018-yillarda Xitoy tashqi savdo aylanmasi o‘rtacha 8,8%ga oshdi, 2018-yilda esa, o‘tgan yilning shu oyiga nisbatan 12,6% ga o‘ sdi (5.2.2.-jadval).

Jadval 5.2.2.

**Xitoy tashqi savdo aylanmasi dinamikasi 2015-2018 - yillarda[32] mlrd.doll.va %da**

| Yillar | Tashqi savdo hajmi | O‘sish, %da |
|---|---|---|
| 2015 | 3904,1 | -10.9 |
| 2016 | 4089,3 | 13,5 |
| 2017 | 4104,47 | 11,4 |
| 2018 | 4620.0 | 12,6 |

XXR tijorat vazirligining hisobotiga ko‘ra, 2015-yilda Xitoy tashqi savdosi o‘rta yoki past sura’tlarda o‘sdi. “2015-yil bahor – Xitoy tashqi savdosidagi ahvol haqidagi hisobotida”, bu yili jahon iqtisodiyoti o‘rtacha tiklanish tendensiyasini saqlab qoladi, jahon bozoridagi raqobat yanayam qattiqlashishi ta’kislab o‘tildi. Xitoy tashqi savdosi, tashqi talabning sustligi, tashqarida cheklovlarning ko‘payishi, an’anaviy raqobatbardoshlikni pasayishi va boshqa shu kabi muommolar bilan to‘qnash keladi. Hisobotda aytilishicha, Xitoy hukumati tashqi savdo uchun yaxshi shart-sharoitlar yaratish, tashqi savdoda Xitoyni yangi ustunliklarini aktiv rivojlantirish uchun, moliyaviy xizmatlarni yaxshilash va tashkilotlarga jahon bozorlarini o‘zlashtirishga yordam berish va qo‘llab-quvvatlash uchun chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

“Xitoy iqtisodiyoti rivojlanishning yangi omillariga o‘tishida, mamlakat tashqi savdosida sifat ko‘rsatkichlarining oshishiga olib boruvchi o‘zgarishlar kuzatilmoqda”. Hisobotda, 2014-yilda eksport hajmi 6,1%ga o‘sgani va 2,34 trln. doll. tashkil qilgani ko‘rsatib o‘tilgan. Import esa, 1,96 tlrn. doll.ni tashkil qilgan, bu esa, 2013-yilga nisbatan 0,4%ga o‘sganini ko‘rsatadi[33].

XXR tijorat vazirligining tashqi savdo boshqarmasini boshlig’ining o’rinbosari Tzyan Veyning fikricha, importning nminimal darajada oshishi qator faktorlaga bog’liq bo‘lgan:

[31]Ли Сяхуэй ,Чжан Пик, Чжан Сяозцин. Экономический рост в годы реформы и изменения структуры. М.:Шанхай, 2008, С.24.
[32] World Economic Statistics – Economic Supply & Demand
[33] China Statistical Yearbook 2016. Beijing: China Statistics Press, 2016.

- “Birinchidan, bir necha oylar davomida Xitoy iqtisodiyotining o‘sish sur’atlarining sekinlashuvi kuzatilmoqda;

- Ikkinchidan, xitoy sanoatida importni qoplovchi ishlab chiqarish rivojlanayotgani kuzatilmoqda;

- Uchinchidan, mamlakatda mehnat talab ishlab chiqarishni sekinlashuvi ro‘y bermoqda, ular esa, mamlakatda importni oshishiga an’anaviy yordam berar edi;

- To‘rtinchidan, tabiiy resursklarga narxlarning pasayishi, ayniqsa, neftga, ko‘rsatkichlarni qisqarishiga qo‘shimcha sabab bo‘ldi”, - deb Tzyan Vey ta’rif berdi. Iqtisodiyotining o‘sish sur’atlari 7,7%gacha sekinlashdi, 2014-yilda esa, 7,3%ni tashkil qildi[34].

2014-yilda Xitoyning tashqi savdo hajmi 3,4%ga o‘sdi – 4,3 trln. dolllarni tashkil qildi. Bu haqida 2015-yil 13-yanvar kuni XXR Bosh bojxona boshqarmasining hisobatida e’lon qilindi[35]. Ammo, lekin, 2015-yildan boshlab, bu tendensiya pasayib bordi (jadval5.2.3. ga qaralsin).

Jadval 5.2.3.

1980 - 2018-yillarda XXR ekort va import hajmining o‘sish dinamikasi ,%da[36]

| Yillar | Import kvotasi (%) | Eksport kvotasi(%) |
|---|---|---|
| 1980 | 6,57 | 5,97 |
| 1985 | 13,95 | 8,97 |
| 1990 | 13,78 | 16,0 |
| 1995 | 18,18 | 20,48 |
| 2000 | 18,78 | 20,8 |
| 2005 | 29,62 | 34,19 |
| 2010 | 23,21 | 26,24 |
| 2014 | 20,38 | 24,35 |
| 2017 | 15,9 | 7,9 |
| 2018 | 21,4/15,8 | 21,4/9,9 |

Xitoy tashqi savdosining xususiyati – bu uzoq davrlargacha saqlanib kelgan uning eksportini ahamiyatli tarzda importidan ortiqroq bo‘lishidir. Biroq, 2001 yildan so‘ng, mamlakat import hajmining ortib borish tendensiyasi kuzatila boshladi. Bu esa, XXR sini jahon ishlab chiqarish jarayoniga chuqur kirib borishi va o‘z iqtisodiyotini ehtiyojlarini import orqali qondirishning zarurligi bilan va jahon bozorida narxlarning o‘sishi bilan kuchayib bordi. Biroq, 2005 yilga kelib, import hajmining pasayish tendensiyasi kuzatildi va ko‘pgina tarmoqlarda eksportning hajmi ortdi hamda bu jarayon 2006 yilda ham saqlanib qoldi.

Xitoy iqtisodiyoti an’anaviy ravishda, tashqi savdodan bog’liqligi yoqori darajada bo‘lganligi bilan tavsiflanadi. XXR tovarlar eksporti hajmi bo‘yicha, dunyoda 1-o‘rinni

[34] World Economic Statistics
[35] XXR Bosh bojxona boshqarmasi
[36] World Economic Statistics – Economic Supply & Demand

egallaydi, xorijga tovar yetqazib berishda davlat valyuta daromadlarining 80%iga yaqinini ta’minlaydi. Mamlakat eksport mahsulotlarini ishlab chiqarish tarmoqlarida 20 mln.k.ga yaqin aholi band bo‘lib, jahon xorij bozorlariga 50 ming turdagi sanoat va qishloq xo‘jalik yalpi mahsulotlarining deyarli 20%i eksport qilinadi. Xitoy iqtisodiyotining tovarlar eksportiga bog’liqlik darajasi 2017 yilda 18,5%ni tashkil etdi (2016 yilda – 19,4%).

XXRsi hozirgi davrda dunyoning 233 ta mamlakat va mintaqalari bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirmoqda. Xitoyning asosiy savdo hamkorlari rivojlangan mamlakatlar bo‘lib, birinchi navbatda, EI, AQSh, Yaponiya hisoblanadi va mamlakat tashqi savdo aylanmasining yarmidan ko‘prog’i ular hissasiga to‘g’ri keladi.

XXR ning JST ga a’zo bo‘lgandan keyingi (2001y.) davrda, u o‘z zimmasiga mazkur tashkilot doirasidagi bitimlar ijrosini oladi. Undan tashqari, eksportni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha, 2004 yilda “Tashqi savdo to‘g’risida”gi qonun ishga tushdi. Ushbu qonun sanoat alohida tarmoqlarini davlat subsidiyalar va rejimlar orqali tartibga soladi. XXRda ligitimlik asosida milliy eksportni qo‘llab-quvvatlash mexanizmi tashkil etilgan va faoliyat ko‘rsatmoqda.

XXRsi eksport strategiyasini amalga oshiruvchi asosiy muassasa – bu XXR Tijorat vazirligi hisoblanib, eksport va importni qo‘llab-quvvatlash vazifalarini amalga oshiruvchi bo’linma – tashqi savdo departamenti va uning tarkibidagi bir qator tarmoqlar bo’linmalari faoliyat ko’rsatmoqda.

XXR Tijorat vazirligi vakolatiga xorijdagi savdo maslahatchilari kanselyariyasi faoliatlarini muvofiqlashtirish kiradi. Xorijdagi xitoy elchixonalari tarkibida 216ta vakolatxonalar faoliyat yurgizadi. Ular xorijiy mamlakatlarda tijorat kompaniyalari va boshqa tashkilotlariga xizmat ko‘rsatadi.

Eksportni qo‘llab-quvvatlash institutlari tizimida muhim o‘rinni Xitoy xalqaro savdoni qo‘llab-quvvatlash qo‘mitasi va xitoy tadbirkorlar davlat birlashmasi egallaydi (ККСМТ).

Undan tashqari (ККСМТ), mahalliy eksport mahsulotlarini ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash ishlarida, Xitoy xalqaro savdo-sanoat palatasi ham faol qatnashmoqda (China Chamber of International Commerce – CCOIC – 1988y.tashkil etilgan).

Tarifli tartibga solish bo‘yicha, Xitoyning asosiy normativ holati har yili nashr etiladigan “XXR Bojxona eksport-import tarifi”da aks etadi. 2017 yildagi tarifda 2016 yilga nisbatan, quyidagi o‘zgarishlar mavjud:

Tovar qatorlari miqdori sezilarli tarzda qisqardi va ularga nisbatan eksportni tartibga solish choralari qo‘llanildi (Interim duty rate special and special duty rate on export goods). Agar, 2016 yilda eksport solig’i solinadigan 250 ta tovarlar qatorlari mavjud bo‘lgan bo‘lsa,2017 yilga kelib, ularni soni 213 qatorga kamaytirildi;

40% li maksimal tarif stavkasi qo‘llaniladigan (11ta) qatorlar 2016 yildagi darajada qoldi;

49 ta pozitsiyalar bo‘yicha “no‘l” vaqtinchalik stavka 2016 yildagi darajada qoldi.

XXRda qo‘llaniladigan eksportni notarif tartibga solish kvotalash va litsenziyalashni o‘z ichiga oladi.

Kvotalash – 2017 yilda Xitoyda eksportni kvotalash tartibi xom ashyo va qishloq xo’jalik mahsulotlari uchun qo‘llanildi.

Litsenziyalash – Eksportni litsenziyalash tartibi 2008 yildagi 28-sonli XXR Tijorat vazirligi instruksiyasi orqali aniqlangan.

Xitoyda milliy eksportni davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmi quyidagi 4 ta bazaviy elementlardan tashkil topgan:

Kreditlash orqali qo‘llab-quvvatlash;

Sug‘urtani ta’minlash;

Soliq preferensiyalari;

Milliy valyutada tashqi savdo hisoblarini amalga oshirish.

Kredit berish orqali qo‘llab-quvvatlash - eksportni kreditlash orqali qo‘llab-quvvatlash Xitoy eksport-import banki orqali amalga oshiriladi (Eksimbank) va u 1994 yilning aprel oyida ishga tushirildi hamda bank bevosita XXR Davlar Kengashiga qaraydi (uning bosh ofisi Pekinda joylashgandir).

Sug’urtali ta’minlashda barcha kreditlar Eksim bank tomonidan sug‘urtalangan bo‘lishi kerak (Sinosure). U 2001 yilning 18 dekabrida tashkil etilgan bo‘lib, u Xitoy xalq sug‘urta kompaniyasi qoshidagi eksport kreditlarini sug’urtalash departamenti (PICC) va Xitoy eksim bankining birlashuvi natijasida vujudga keldi.

Sinosure sug’urta kompaniyasi davlat maqomiga ega bo‘lib, u yoqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlarni eksport qilish va bu boradagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun muhim dastak ro‘lini bajaradi. Uning kapital manbayi – davlat byudjeti evaziga shakllanadigan eksport kreditlarini sug‘urtalaydigan tavakkal fondi hisoblanadi.

Soliq preferensiyalari (yengilliklari**)** - Xitoyda eksportni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmidagi, tovarlarni eksport qilishda QQSni qaytarish mexanizmi shaklidagi soliq preferensiyalari muhim o‘rinni egallaydi.

QQSni qaytarish siyosati Xitoyda 1985 yildan qo‘llanilib kelinadi. Bu juda eguluvchan mexanizm bo‘lib, u xalqaro bozorlar kon’yukturasi va jahon iqtisodiy holatiga qarab tovarlarni eksport qilishda QQSni qaytarish koeffitsientini o‘sishi yoki pasayishida qo‘llaniladi.

XXR soliq qonunchiligiga binoan, mamlakatda eksport qilish uchun, QQSni olishda 3 darajali stavka tasdiqlangan bo‘lib, unda asosiy stavka 17%ni, ba’zi mahsulotlar turi uchun imtiyozli stavka (asosan, qishloq xo‘jalik mahsulotlari uchun) – 11%; uncha katta hajmda

bo‘lmagan mahsulotlar uchun (katta miqdordagi kichik korxonalar uchun) – 6% deb belgilangan.

QQS ni qaytarib olish “avvaliga, eksport qilish chog‘ida QQS ni to‘lash, keyin esa, uni qaytarish” tamoyili asosida amalga oshiriladi. XXR bojxona organlari eksport mahsulotlari uchun QQS qaytarish summasini hisoblashda quyidagi formulani qo‘llashadi:

| Qaytarishgamo’ljallan gansoliqsummasi | = | FOB shartidagi eksport tovarlari narxi | X | Yuan kursining xorijiy valyutaga nisbati | X | QQSniqaytari shstavkasi |
|---|---|---|---|---|---|---|

**5.3.Xitoy milliy valyutasidagi tashqi savdo hisob-kitoblari**

Yuan umumiy kursini baynalminallashtiruv chegarasida Xitoy hukumati tomonidan olib borilayotgan transchegaraviy savdoning milliy valyutadagi tashqi savdodagi hisoblarni bosqichma-bosqich joriy etilish mexanizmi – milliy eksporterlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning muhim dastagi bo‘lib xizmat qildi. Hozirgi davrda XXRda transchegaraviy to‘lovlarni amalga oshirishda milliy pul birligidan foydalanishning samarali tizimi shakllandi va u o‘z ichiga quyidagilarni qamrab olgan:

Transchegaraviy to‘lovlarni amalga oshirishda tovarlar va xizmatlar savdosi

O‘zaro hisob-kitoblar svop-kelishuvlarini amalga oshirishda milliy valyutadan foydalanish;

XXR iqtisodiyotiga transchegaraviy to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni kiritish.

Mamlakat tashqarisiga xitoy to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni yuanda kiritish.

Xitoy Xalq Bankining ma’lumotiga ko‘ra, 2017 yilda yuandagi transchegaraviy savdo hisob-kitoblarining umumiy hajmi 4,36 trln.yuanni tashkil etdi, bu esa, 2016 yilga nisbatan 16,6% ga qisqargan. Investitsion faoliyat chegarasidagi transchegaraviy hisob-kitoblar hajmi 1,64 trln.yuanni tashkil etdi[37].

2016 yil yakunlari bo’yicha Xitoyning tashqi qarz miqdori, uning ichki qarziga nisbatan uncha katta emas, ya’ni 1,43 trln.doll.ni tashkil etib, u o’tgan yilga nisbatan 2,7% ga o’sgan. Uning umumiy miqdorini 61%i qisqa muddatli qarzlar ulushiga to’g’ri keladi. Unda qarzdorlikning asosiy indikatorlari xalqaro qabul qilingan standartlar chegarasidadir. Tashqi qarzning mamlakat YaIMga nisbati 13%ni tashkil etib, uning qisqa muddatli tashqi qarzini valyuta zahirasiga nisbati esa, 29% atrofidadir[38].

---

[37]Государственное регулирование во внешней торговле Китайской Народной Республики - http://www.russchinatrade.ru/ru/useful-info/cn-foreign-trade-regulation

[38]Credit to the non-financial sector // Bank for International Settlements. BIS Statistical Bulletin.2017. June 6. URL: http://www.bis.org/statistics/tables_f.pdf .Resolving China’s Corporate Debt Problem // IMF Working Paper.2016.October14.URL:http://www.imf.org/~/media/Websites/IMF/imported-

Xitoy rahbariyati moliyaviy tavakkalchilikni oldini olishni o'zining ustuvor masalalaridan biri deb qaraydi va shuningdek, XXRsi mamlakatda moliyaviy barqarorlik holatini saqlash va undagi tavakkalchilikni nazorat qilishga qodir ekanliklari haqida ko'p marotaba rasmiy e'lon qilishgan  Shu bilan birga, bir qator tavakkalchiliklar o'ziga juda katta e'tibor talab qiladi[39].Bu esa, bank tizimidagi qaytarilmas kreditlar hajmi, likvidlilik muammosi, qora banking miqyosi, tashqi silkinishlar, ko'chmas mulk bozoridagi noqulay tendensiyalar, iqtisodiyotdagi ahamiyatli qarzdorlik miqdori hamda internet-moliya sohasidagi holat bilan asoslanadi[40]Yaqin kunlargacha mavjud bo'lgan Xitoyning moliyaviy tizimini tartibga solish fragmentar xarakteriga ega bo'lib, tartibga solishning ba'zi sohalarida bo'shliqni yaratdi, tekshiruv sohasidan tashqarida turli operatsiyalarni amalga oshirishga imkon berdi, va natijada mamlakatning tez o'sayotgan moliyaviy tarmog'i uchun nobarqaror tavakkalni ko'payishiga olib keldi.

2017 yilning mart oyi o'rtalarida Pekinda yopiq formatda beshinchi Moliya masalalari bo'yicha milliy kengash (National Financial Work Conference) bo'lib o'tdi va unda keying 5 yilda moliya sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari aniqlandi. Uning natijasi sifatida XXR Davlat kengashi qoshida moliyaviy rivojlanish va barqarorlik maxsus qo'mitasi (Financial Stability and Development Committee) tashkil etildi. Unga XXR moliyaviy sohasini tartibga solish va takshiruvni muvofiqlashtirish vazifasi yuklatildi. Shunday qilib, mazkur kengashning natijalari Xitoyni tavakkalchilikni nazorat qilishga va iqtisodiyotning moliyaviy tarkibini mustahkamlash va barqarorlashtirish maqsadida, uni tartibga solishni murakkablashtirishni ko'rsatmoqda.

Xitoy iqtisodiyotini rivojlanishining zamonaviy (joriy) tendensiyalari undagi iqtisodiy o'sish sur'atlarini 6,5–6,7%lar oralig'ida to'xtatib, u o'zining asosiy sekinlashuv bosqichiga o'tganligi ko'rsatmoqda. Bu holat esa, Xitoy hukumati uchun iqtisodiy islohotlar jarayonini chuqurlashtirish va moliyaviy yo'qotish hamda tavakkallarni qisqartirish imkoniyatini tug'diradi.

Xitoy iqtisodiyotida yuz berayotgan tartibga solish va nazorat qilish jarayonlarini e'tiborga olgan holda, aytish lozimki, unda iqtisodiy nobarqarorlikni va tartibga solib

---

fulltextpdf/external/pubs/ft/wp/2016/_wp16203.ashx;

[39]Global watchdog warns over China's debt levels // Financial Times. 2016. September 19.URL: https://www.ft.com/content/fc825300-7e44-11e6-8e50-8ec15fb462f4.

[40]China's Economic Outlook in Six Charts // International Monetary Fund. IMF Country focus. 2017. August 15. URL: http://www.imf.org/en/News/Articles/2017/08/09/NA081517-China-Economic-Outlook-in-Six-Charts.экономика China outstanding foreign debt falls to $1.42 trillion at end-2016 /Reuters. 2017.March 31/. URL: http://www.reuters.com/article/us-china-economy-foreign-debt/chinaoutstanding-foreign-debt-falls-to-1-42-trillion-at-end-2016-idUSKBN17212G?il=0

bo’lmaydigan iqtisodiy o’sishni sekinlashuv tavakkalligi chegaralanganlik ehtimoli nisbatan ancha kichikdir[41].

Umuman olganda, Xitoy o’z iqtisodiy rivojlanishida mamlakat ichkarisidagi ko’pgina murakkab muammolarga va global darajadagi noaniqliklarning o’sib borish jarayoniga to’qnashib qolgan bo’lishiga qaramay, u mamlakatdagi keng miqyosli iqtisodiy islohotlarni davom ettirishga va barqaror iqtisodiy o’sishni saqlab qolishga muvaffaq bo’ldi. Shu bilan birga, mamlakat iqtisodiyoti islohotlar tarkibi sohasida ijobiy o’zgarishlarni va tavakkalni nazorat ostida ushlab turish qobiliyati mavjudligini ko’rsatdi. Natijada esa, ularni umumlashtirganda, bu holatlar XXRsiga kelajakda jahon iqtisodiyotida eng tez rivojlanayotgan yirik mamlakat bo‘lib qolishiga yordam bermoqda.

SWIFT (global axborot-kommunikatsiya to‘lovlar va hisob-kitoblar tizimi) da hisobga olingan barcha to‘lov operatsiyalar umumiy hajmidagi yuanning ulushi 2017 yilda 1,61%ga teng bo‘ldi, 2016 yilda esa bu ko‘rsatkich 2,31%ga teng edi. (AQSH dollari, evro, funt sterling, yapon ienasidan keyingi 5-o‘rin yuanga to‘g‘ri kelmoqda).

Demak, 2017- yildagi Xitoy Xalq Bankining ma’lumotiga ko‘ra, xitoy regulyatori dunyoning 36ta mamlakati bilan o‘zaro to‘lov va hisob-kitoblarni yuanda amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan kelishuvlar hajmi 3,3 trln.yuan (498 mlrd.doll.)ni tashkil etdi. Dunyoning 23 mamlakatlari bilan (JanSHO, Evropa, Yaqin Sharq, AQSh, Afrika va Okeaniya) yuanda operatsiyalarni amalga oshirish uchun kliring xizmati ishga tushirildi.

# 6-BOB: XITOYNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A’ZO BO‘LISHI

## 6.1. Jahon savdo tashkiloti faoliyati. Xitoyning JST ga a’zo bo’lish bo’yicha harakatlari

**Jahon savdo tashkiloti** (JST) — jahon mamlakatlarining o‘zaro savdo hamda savdo siyosati rejimini boshqaruvchi xalqaro tashkilot hisoblanadi. Xalqaro savdoda tashkilotga a’zo va ishtirokchi mamlakatlar uchun majburiy bo‘lgan tamoyillar va qoidalar belgilangan hukumatlararo ko‘p tomonlama shartnomalar asosida faoliyat olib boradi. 1995-y. da 1948—94 y. larda ish olib borgan Tariflar va savdo bo‘yicha Bosh kelishuv (General Agreement on Tarifs and Trade — GATT) negizida tashkil qilingan. BMTtizimiga kiradi. Idorasi Shveysariya (Jeneva) da.

---

[41]New committee to coordinate financial reform, regulation // The State Council of the People's Republic of China.2017.July 18.URL:http://english.gov.cn/news/top_news/2017/07/18/content_

281475737061826.htm.Indices of Gross Domestic Product // National Bureau of Statistics of China. National China outstanding foreign debt falls to $1.42 trillion at end-2016 // Reuters. 2017. March 31. URL: http://www.reuters.com/article/us-china-economy-foreign-debt/chinaoutstanding-foreign-debt-falls-to-1-42-trillion-at-end-2016-idUSKBN17212G?il=0

JST jahon savdosi qoidalarini ishlab chiqish yo‘li bilan davlatlar savdo siyosatiga ta’sir ko‘rsatish, savdo munosabatlarini erkinlashtiradigan va qatiy tartib-qoidaga soladigan muzokaralar uchun yig‘ilishlar o‘tkazish, davlatlararo savdoda yuzaga keladigan nizolarni hal qilish va b. vazifalarni bajaradi. JSTning oliy organi — barcha a’zo mamlakatlar Vazirlar Konferensiyasi bo‘lib, kamida 2 yilda bir marta o‘tkaziladi. Joriy ishlarga Bosh kengash (tovarlar savdosi bo‘yicha kengash, xizmatlar savdosi bo‘yicha kengash, intellektual mulk masalalari bo‘yicha kengash), sekretariat, doimiy qo‘mitalar rahbarlik qiladi.

JST faoliyati a’zo mamlakatlarning o‘zaro manfaatlarini turli tadbirlar (asosan boj imtiyozlari, to‘siqlari va b.)ni qo‘llash b-n himoya qilishga qaratilgan. A’zo mamlakatlar JST talablarini bajarish b-n birga tashkilotning boshqa a’zolariga savdoda mumkin qadar qulaylik berish rejimini (birinchi navbatda boj tariflarini pasaytirish) qo‘llaydi, o‘z ichki bozorini chet el korporatsiyalari uchun ochiq qilish majburiyatini oladi.

133 ta mamlakat to‘la huquqli a’zo, 30ta mamlakat, shu jumladan Rossiya, O‘zbekiston, Qozog‘iston JST da kuzatuvchi maqomiga ega va 1992—93 y. larda tashkilotga a’zo bo‘lish uchun ariza bergan.

JST ning ustavi «milliy tizim» ni nazarda tutgan bo‘lib, unda davlat faqat mahalliy yoki xorijiy sarmoyadorlarni rag‘banlantirishi ta’qiqlanadi, ya’ni ularga muayyan chegara qo’yib bo‘lmaydi. 1980-yillarda, Xitoyda tashkil qilingan maxsus, erkin iqtisodiy zonalar, aynan, xorijiy tadbirkorlik uchungina, turli-tuman moliyaviy-iqtisodiy imtiyozlar ustiga «qurilgan» edi. Ularning, XXR eksport daromadidagi ulushi 90-yillar oxiriga kelib, 1988-yilga nisbatan, 2 barobar oshib ketdi va 25% ni tashkil etdi. Bundan tashqari, ularning Xitoy tayyor sanoat mahsulotlari eksportidagi ulushi 40% ni tashkil etdi.

Xitoyning JST ga a’zo bo‘lish uchun qilgan harakatlarini 2 bosqichga bo‘lish mumkin:

1-bosqich – 1984-yildan to 1994-yilgacha bo‘lgan davr;

2-bosqich – 1995-yildan to 2001-yilgacha;

3-bosqich - 2002 yildan to hozirgi kungacha

Birinchi bosqichda, ya’ni bu tashkilot GATT deb nomlangan davrdan boshlab, bu masala bo‘yicha tuzilgan ishchi guruhining 19 ta majlisi bo‘lib o‘tdi. Ushbu majlislar chegarasida, ishchi guruh XXR sining iqtisodiy siyosatini muhokama qildilar. Undan tashqari, ikki va ko‘p tomonlama olib borilgan kelishuvlarda yana mamlakatning bozor iqtisodiyotiga o‘tishi, Xitoyning tashqi savdo siyosati va bojxona tarif va bojlari masalalari muhokama qilindi va bu yo‘nalishda Xitoy oldida qanday muammolarni hal etishi kerakligi ko‘rib chiqildi.

Ikkinchi bosqich, unda olib borilgan kelishuvlarning qiyinlashuvi bilan xarakterlanadi. Bu davrda tashkilotni nomi o‘zgartirilib, u Jahon Savdo Tashkilotiga aylandi. Ushbu bosqichda, Xitoyning xizmat ko‘rsatish sohasi, ya’ni, bank, moliya, sug‘urta sektorlari, ulgurji va chakana

savdo va intellektual mulk huquqi masalalari ko‘tarildi. Shu bilan birga, uning soliqlar siyosati va Xitoy EIZ laridagi imtiyozli (preferensial) soliqlar stavkasi masalalari ham muhokama qilindi. O‘z navbatida, Xitoy tashqi dunyo uchun o‘z bozorlarini ochib berish va savdoni erkinlashtirish bo‘yicha qator majburiyatlarni oldi. Natijada, uzoq davom etgan kelishuvlar poyonida, 11-dekabr 2001-yilda, XXR si JST ning 143-a’zosi bo‘ldi.

## 6.2. XXRni JSTga a’zo bo‘lgandan keyingi birinchi natijalari

Xitoy o‘z iqtisodiy islohotlarini davom ettirish va tashqi aloqalarni kengaytirish niyatida, tashqi dunyo uchun, 1980-yildan boshlab, o‘zining 5 ta maxsus, erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etdi. 1984-yilda, Xitoy hukumati bu ishlarni davomi sifatida yana, 14 ta dengiz bo‘yi shaharlarini ochiq deb e’lon qiladi. Ushbu zonalarda turli xil sanoat - savdo, texnopolislar, texnoparklar barpo etiladi.

1990-yilda esa, Xitoy hukumati Shanxayda, yangi Pundun rayonining ochish va rivojlantirish bo‘yicha qaror qabul qildi, keyinchalik Yanszi daryosi havzasida bir qancha erkin portlarni ham tashkil qildi.1992-yildan boshlab, Davlat kengashi qaroriga binoan, ushbu zona ishga tushirildi. Keyinchalik, mamlakatda, yana 15ta soliqsiz zona, 32ta texnik-iqtisodiy o‘zlashtirish zonalari va 53ta davlat ahamiyatidagi yangi, yuqori texnologiyalarni o‘zlashtirish zonalari tashkil qilindi.

Uchinchi bosqichda XXRsi JST tomonidan qo’yilgan talablarga javob berishga xarakat qila boshlab, o’zida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati va ularning xalqari andozalarga to’g’ri kelishi ustidan nazoratni kuchaytirdi.

Keyingi yillarda esa, mamlakat tashqi savdosida eksportning tez sur’atlarda ortib borishi savdo balansida ijobiy saldoni saqlanishiga olib keldi. Eksportni rekord darajasiga erishishga 1994 yil boshida yuanni devalvatsiya qilinishi (yuanning uning real sotib olish qobiliyatidan past darajaga tushirilishi) va uning natijasida yuanni yagona boshqaruvchan kursga keltirilishi hamda hukumatning xorijiy valyutani tartibga solish va nazorat qilish bo’yicha qator tadbirlari va shu bilan birga uning moliya kredit siyosatini yumshoqroq olib borilishi natijasida yuz berdi. Mamlakatning ichki bozor kon’yunkturasi omili ham aynan ushbu yo’nalishda harakatlandi. Xitoyda investitsion talab va kapitalni jamg’arilishini ushlab turish siyosatini olib borish natijasi uning ishlab chiqargan mahsulotlarini sotilishini qiyinlashtirdi.

Mamlakatning “ochiq” tashqi iqtisodiy siyosati uning tashqi savdo geografiyasini kengayishiga olib keldi. Hozirgi kunda Xitoy dunyoning 200 dan ortiq mamlakatlari va xududlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni amalga oshirmoqda. XXR ni geografik tarkibining muhim xususiyatlari shundan iboratki, u iqtisodiy islohotlarning birinchi kunlaridan boshlab dunyoning sanoati rivojlangan davlatlari bilan, ya’ni AQSh, Yaponiya va Evropa Ittifoqi davlatlari bilan tijorat aloqalarini o’rnatishga yo’naltirildi. 1980-1990 yillardagi XXR tashqi

savdo aylanmasining 55% i ushbu davlatlar ulushiga to'g'ri keldi. Keyinchalik mazkur ko'rsatkich pasayib bordi va 1990 yillar o'rtalariga kelib u 46,5% ni tashkil etdi. Natijada, Xitoy bir muncha iqtisodiy bog'liqlikka yuz tutdi.U esa, milliy iqtisodiyotni isloh qilish maqsadida importga bog'lanib qolishni, zarur texnika va uskunalarni mamlakatga olib kirishni hamda tashqi dunyo bilan o'zaro xo'jalik harakatlarini kengaytirishni anglatadi.

Shular qatorida, Xitoy Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari bilan ham o'zaro iqtisodiy hamkorlikni amalga oshirishga kirishdi. Bu esa, uning mutloq savdo hajmining o'sishida mazkur davlatlarning ulushlarini ortib borayotganligi bilan xarakterlanadi.

Xitoy tashqi savdosining rivojlanishiga sezilarli tarzda jahon iqtisodiyotining jonlanishi, umumiy talabning ortishi va asosiy tovar bozorlarida jahon narxlarining o'sishi ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, eksportni qo'llab-quvvatlashga va importni ratsionallashtirishga qaratilgan tashqi savdoni qattiq ma'muriy tartibga solish saqlanib qoldi. Tashqi savdoning milliy iqtisodiyotdagi rolini oshirish bilan birga, Xitoyni jahon iqtisodiy tizimidagi pozisiyasi ham mustahkamlanib bordi. Xitoy o'zining jahon savdosidagi nisbatan uncha katta bo'lmagan (4,1%)ulushi orqali u islohotlar davrida dunyoning savdo qiluvchi yetakchi davlatiga aylandi. U dunyo eksportida 7 o'rinni, dunyo importida esa, 8 o'rinni egalladi.

Ta'kidlash joizki, amalda Xitoy dunyodagi yetakchi mamlakatlarning birinchi o'nligiga kirib, hozirda o'zining milliy iqtisodiyotini yuqori sur'atlarda rivojlanishi, xorijiy sarmoyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilishi, YaMM umumiy hajmi bilan boshqa dunyo davlaridan ajralib turadi. Xitoy o'zining tashqi savdo-iqtisodiy aloqalarini olib borishda eng qulay tartib (EQT-RNB)dan foydalanadi va dunyoning 23 ta davlatlari uni "Preferensiyalarning umumiy tizimi"ga (muayyan imtiyozlarni umumiy tizimiga) kiritishgandir. EI davlatlari, Yaponiya, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Rossiya davlatlari shular jumlasiga kiradi. Bu esa, Xitoyga bojxona bojlarini o'rtacha 10% ga tushirish natijasida eksportdan sezilarli miqdorda mablag'ni ishlab olishga va jahon bozorida qulay pozisiyalarni egallashiga yordam berdi.

Xitoy o'z import va eksportini kengaytirish bilan birga, xorijiy texnologiyalarni mamlakatga kiritish; boshqa davlatlar uchun moddiy yordam ko'rsatish siyosatini takomillashtirish; xorijiy kapitaldan foydalanish bo'yicha hamkorlik qilish; chet eldagi qurilish ob'ektlarida pudrat ishlarini bajarish; texnologiyalar eksportida mehnat xizmatlarini ko'rsatish; ob'ektlarni investisiyalash va xorijda o'z korxonalarini tashkil etish ishlarini rivojlantira boshladi. 1979 yildan boshlab Xitoyning barcha provinsiyalari, markazga bo'ysunuvchi shaharlari va avtonom rayonlari hamda bir qator ochiq iqtisodiy hududlari tashqi savdoni olib borishda turli darajadagi avtonomiyaga ega bo'ldilar. Ularda mahalliy ma'muriy organlarga bo'ysunuvchi tashqi savdo boshqarmalari va tashqi savdo kompaniyalari tashkil etildi.

Provinsiyalar hukumatlari qaramog'iga kompaniyalarning xorijiy valyutadan tushgan tushumlarini bir qismi (o'rtacha 30% atrofida) kelib tusha boshladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, 1980 yillar o'rtalarida Xitoydagi provinsiyalar, markazga bo'ysunuvchi shaharlar va avtonom rayonlar hamda bir qator ochiq iqtisodiy hududlar tashqi savdo bilan shug'ullanishga avtonom tarzli huquqiga ega bo'lgan maqomni oldilar.

Desentralizatsiya (nomarkazlashuv) jarayoni bilan birgalikda mamlakatda makroiqtisodiy nazorat ham mustahkamlanib borildi. 1982 yilda bir qator tashkilotlarning birlashuvi natijasida Tashqi iqtisodiy aloqalar va tashqi savdo vazirligi tashkil etildi. Mana shu vazirlikka qarashli kompaniyalar soni ko'payib borib, ular asosiy strategik tovarlar eksporti bilan shug'ullanishni o'zida saqlab qoldilar.

Tashqi savdo samaradorligini oshirishga Xitoy hukumati tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy tadbirlar katta ta'sir ko'rsatdi. Umuman, eksportni qo'llab-quvvatlash va uning zararlarini yo'qotish maqsadida, yuan bosqichma-bosqich devalvatsiya qilindi, natijada uning real sotib olish qobiliyati rasmiy kursga yaqinlashdi

Ushbu amalga oshirilgan ishlar natijasida mamlakatda turli shakllardagi xalqaro ayriboshlash va hamkorlik arxitektonikasi shakllandi. Unda eksport tashqi savdoning negizi bo'lib, boshqa hamma tashqi iqtisodiy va tashqi savdo tashkilotlari bir-birlariga yordam beruvchi va oxir oqibatda savdoni rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shuvchi strukturalarga aylandi.

1991 yilda Xitoy tashqi savdo islohotlari sohasida yangi bosqichga ko'tarildi. Unda eksportni chegaralashga yotuvchi tovarlar turlari qisqartirildi. Endilikda tovarlarni lisenziyalashga 138 tagina tovarlar turlari kiritildi.

Davlat ahamiyatiga molik bo'lgan 16 turdagi tovarlar eksporti ustidan qattiq davlat nazorati o'rnatildi. Ular: don, bug'doy, soyali dukatlar, choy, ko'mir, neft, va neft mahsulotlaridir. Shu bilan birga chet el kompaniyalariga cheklovlarga kirgizilmagan tovarlarni hohlagan miqdorda olib chiqishga va xitoy korxonalariga esa, faqatgina o'z ishlab chiqargan mahsulotlarini eksport qilishga ruxsat etildi.

1994 yilda tashqi savdoni isloh qilishda muhim qadamlar qo'yildi. Xususan, tashqi savdoning direktiv rejalari bekor qilindi; umumiy import hajmini boshqaruvchi reja; eksportdan keladigan tushumlar va tovarlarni import qilishda valyutadan foydalanish bo'yicha reja; importni normalashni boshqarish va muhim tovarlarni eksport qilish bo'yicha rejalar ishlab chiqildi va takomillashtirildi; bojxona bojlari tarkibini tartibga solish davom etmoqda, tashqi savdo sohasidagi qonunlarni ishlab chiqish va takomillashtirish jarayoni kundan-kunga kuchaymoqda.

Tashqi savdoni erkinlashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar importdan kelib tushgan bojxona bojlarini pasaytirishni o'z ichiga oladi.

1991 yilda Xitoyda 40 ta pozitsiya bo'yicha tariflar pasaytirilgan bo'lsa, 1992 yilda ular 241 pozisiya bo'yicha va 1993 yilda import bojxona stavkalarini pasaytirishning eng yirik holati yuz berdi, ya'ni 3371 ta tovarlar bo'yicha va sal keyinroq esa yana 2898 ta tovarlar bo'yicha import bojxona stavkalari pasaytirildi.

1994 yilda mamlakatda 206 ta tovarlar guruhlari bo'yicha, 1995 yilda esa, yana 367 ta tovarlar guruhlari bo'yicha tarif cheklovlari bekor qilindi.Shular bilan birga Xitoy hukumati 1985 yilda mahalliy ishlab chiqarvchilarni himoya qilish uchun qabul qilingan importni tartibga solish bo'yicha soliqni bekor qilishga majbur bo'ldi.

1996 yilda tashqi savdoni erkinlashtirish yo'nalishida yana yangi qadamlar qo'yildi. Xususan, yana o'rtacha 35% ga import bojxona bojlari darajasi pasaytirildi va ular Xitoy importi umumiy hajmining 76% ni tashkil etuvchi 5 ming ta tovarlar guruhlari assortimenti uchun kamaytirildi. Undan tashqari, 176 ta tovarlar guruhlari bo'yicha notarif cheklovlar orqali tartibga solish bekor qilindi. Ular esa, notarif to'siqlarning 1/3 qismini tashkil etadi.

Garchi, 1990 yillar boshida Xitoyning jahon savdosidagi ulushi nisbatan past (1,70%) bo'lishiga qaramay, u islohotlar davrida sezilarli darajada o'sdi. Agar, 1992 yillarda uning ulushi 2,20% ni tashkil etgan bo'lsa, 1999 yilga kelib, u 3,80% ni tashkil etdi. 2000 yillarga kelib, u 4,0% ga chiqdi va nihoyat, 2008 yilda uning ulushi 6% dan oshib ketdi.

Shunday qilib, notarif cheklovlar ta'siridagi import tovarlari nomenklaturasining (kvota, lisenziya va turli xil ma'muriy nazorat choralarining)ulushi 1992 yildagi 20% dan 1997 yilda 5% gacha kamaydi. XXR ni bu boradagi tuzilgan rejasi bo'yicha u 2010 yilgacha notarif cheklovlarning asosiy qismini bekor qilishga va 2020 yilga kelib esa, JST normalariga zid keladigan barcha to'siqlardan xolos bo'lishga ahd qilgan.

**1 bosqich**-1979-1984 yillarda amalga oshirilib, unda tashqi iqtisodiy kompleksning boshqaruv tizimini desentralizatsiyalash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi va ular quyidagilarni o'z ichiga oldi, ya'ni mamlakat Tashqi Savdo Vazirligini va unga bo'ysunuvchi tashqi savdo kompaniyalarini eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishdagi yakkaxonlik (monopollik) huquqidan xolos etdilar

Ushbu jarayon tarmoqlar kesimida sanoat-savdo birlashmalarini sanoat muassasalariga yoki Tashqi savdo Vazirligiga qarashli qilib qo'yib, ularga kompaniyalarni birgalikda boshqarish vazifasini yukladi, ya'ni, sanoat korxonalariga eksport mahsulotlarini ishlab chiqarishni, tashqi savdo kompaniyalariga esa, ularni jahon bozorida sotish va ulardan ko'rilgan foyda va zararlarga birgalikda ma'sul bo'lishni yukladi.

1982 yildan boshlab, sanoat korxonalari, sotish va ta'minot tashkilotlari va tashqi savdo kompaniyalari orasidagi aloqalarni tiklash oqibatida ularni bevosita XXR Davlat Kengashiga bo'ysunuvchi yirik umumdavlat birlashmalariga aylantirish bo'yicha ishlar olib borildi. Natijada mamlakatda Xitoy avtomobil sanoati kompaniyasi va Xitoy neft-kimyo kompaniyalari tashkil etildi.

1980 yilda XXR Davlat Kengashi bir qator yirik va o'rta sanoat korxonalariga tashqi bozorga chiqish huquqini berish bo'yicha qaror qabul qildi. Biroq, bunday huquqga ega bo'lgan kompaniyalar tashqi savdo muassasasi nazoratidan to'liq chiqmadilar va ularning moliyaviy mustaqillik masalasi har bir korhona uchun turlicha hal qilinar edi.

Tashqi savdo islohotlarining 1 bosqichida eksport mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarning xo'jalik mustaqilligi bir ozgina kengaydi. Ulardan mahalliy ma'muriy organlar va tarmoq vazirliklari real foyda ko'rdilar. Shunday qilib, 1980 yillar boshida xo'jalik hisobini joriy qilishni va tashqi savdo kompaniyalari faoliyatlarini o'zlari moliyalashlarini qo'llab-quvvatlashga amalda erishilmadi.

Mana shu sharoitlarda, Xitoyda tashqi savdoni isloh qilishning **2-bosqichi** boshlanib, u 4 yil (1984-1987 yy.) davom etdi. Uning natijasida, davlat va xo'jalik organlari orasidagi vazifalar chegaralarini bo'lish bo'yicha, iqtisodiy boshqarish uslublaridan keng foydalanish bo'yicha, tashqi savdo kompaniyalarining mustaqillikka erishishlari bo'yicha qadamlar qo'yildi. Agantlik kelishuvlari tizimini joriy etish islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Unda tashqi savdo kompaniyalari eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda sanoat korxonalarini agentlari (vositachi) vazifasini bajarish huquqini oldilar. Davlat tomonidan yagona eksport tovarlarini sotib olish tizimi bir tomondan, eksport mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar va import mahsulotlarini iste'mol qiluvchilar orasida shartnoma tuzish tizimi bilan, ikkinchi tomondan, tashqi savdo kompaniyalari bilan almashtirildi.

Tashqi savdoni rejalashtirish ishlari jiddiy o'zgarishlarga yuz tutdi. 1985 yildan boshlab Tashqi iqtisodiy aloqalar va tashqi savdo vazirligi (TIA va TSV)eksport tovarlarini sotib olishni rejalashtirishni to'xtatdilar. Uning o'rniga korxonalar arizalari asosida rejalashtirish darajasi uchun direktiv va indikativ rejalarni kiritdilar. Mahalliy hukumat organlariga TIA va TSV vakolatlarining bir qismi bo'lgan eksport va import uchun lisenziyalar berish huquqi berildi. Bir vaqtning o'zida lisenziyalashga yotadigan tovarlar ro'yxati kengaydi va 1986 yilning boshiga kelib ularga xitoy eksportining 54% va xitoy importining deyarli 30% ga to'g'ri keldi.

1985 yillardagi savdo sharoitining yomonlashuvi, mamlakatning ichki rayonlaridagi iste'mol tovarlari importini davlat tomonidan tartibga solishning bo'shashganligi holatida yuqori narxlarda qayta sotilishi tovarlar kamomadi va spekulyativ (olib-sotar)operatsiyalarining kelib chiqishiga sabab bo'ldi va xitoy hukumatini tashqi savdo

operatsiyalarini amalga oshirishda nazoratni kuchaytirishga hamda qisman ma’muriy boshqaruv uslublariga qaytishga majbur qildi.

1988 yilda Xitoyda boshlangan tarmoqni boshqarishning yangi tizimiga o’tish chegarasida provinsiyalarning pudrat ma’suliyati tizimini joriy qilinishi – tashqi savdo islohotlari **3-bosqichining** asosiy mohiyatini keltirib chiqaradi. Ular 3 yil mobaynida valyuta tushumining o’rtacha 75% ini markazga o’tqazishlari lozim edi. Ko’pgina tashqi savdo kompaniyalari provinsiya hukumati qaramog’iga o’tqazilib, ular mustaqil ravishda kompaniyalar uchun valyuta o’tqazish normalarini belgilash huquqiga ega edilar.

Shu bilan birga eksporterlar uchun byudjetdan ajratiladigan dotatsiyalar miqdori muzlatilib, eksportni rejadan tashqari dotatsiyalash to’xtatildi. Markazga faqatgina rejadan tashqari bo’lgan valyuta daromadlarining 20% gina o’tqazilib, qolgan 80% i eksport mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga qoldirilar edi. Uchta tarmoq: yengil va oyoq kiyimlarini ishlab chiqarish sanoati, badiiy-hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishlar o’z-o’zini qoplash bo’yicha tajriba tartibiga o’tqazilgan bo’lib, ular qaramog’da valyuta tushumining hammasi qoldirilar edi va ularga beriladigan dotatsiyalar bekor qilindi. Lekin, baribir, tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy samaradorlik muammolari hal qilinmadi. Eksportga davlat tomonidan subsidiyalar berish va eksportni rejalashtirish saqlanib qolib, tashqi savdo kompaniyalarini asosiy qismi o’z-o’zini qoplay olmadilar va oxir oqibatda mahalliy tashqi savdo kompaniyalari tashqil etilib, ular orasidagi raqobat kuchaydi hamda tashqi savdo daromadlari kamaydi. Mazkur holatni tuzatish uchun 1989-1990 yillarda tashqi savdo kompaniyalarini “tartibga solish” o’tqazildi, uning natijasida 1991 yil o’rtasiga kelib, mamlakatda 1300 ga yaqin kompaniyalar yo’q qilindi (bu ushbu korxonalar umumiy sonining 27% ini tashkil etdi).[42] Undan tashqari bir qator boshqa cheklovlar ham qo’yildi: masalan, qator uzoq muddatli iste’mol tovarlarini (avtomobillar, maishiy elektronika mahsulotlariga) “keragidan ortiq” import qilinishi man etildi qimmatbaho tovarlarni mamlakatga olib kirish uchun keragidan ancha yuqori import boji belgilandi (200% gacha). Natijada, qattiq ma’muriy chora-tadbirlar islohotlar jarayonini bir oz vaqtga surib qo’yib, tashqi faoliyatni tartibga solishga yordam berdi va eksportni barqaror ravishda o’sishini qo’llab-quvvatladi hamda norasional importni cheklab qo’ydi.

1991 yilda tashqi savdo tizimi islohotlari  bozorga yo’naltirilgan o’zgarishlarni tezlashtirish va chuqurlashtirish umumiy kursi chegarasida o’zining **yangi bosqichi 4-bosqichiga** o’tdi. Tarmoqlar oldida xalqaro normalar asosida ularni bozor tartibida faoliyat

---

[42] Цзинцзи цаньхаобао, 24.03.2000 г.

ko'rsatishga o'tqazish masalasi yuzaga keldi. 1992 yilda Xitoy jahonda qo'llaniladigan tovarlarga kod qo'yish va ularni garmonizatsiyalash tizimini foydalanishga o'tdi.

1991-93 yillarda Xitoyda tashqi savdoni erkinlashtirish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar orasidan 1991 yil boshida eksportga subsidiyani bekor qilish, 1992 yil 1 apreldagi "importga o'rnatilgan soliqni tartibga solish" deb atalmish choralarini qayd etish mumkin.

Eksport lisenziyalarini berish tizimiga sezilarli o'zgarishlar kiritilib, ko'pchilik tovarlarga (2/3) u bekor qilindi. Yuqorida ta'kidlangan 16 ta strategik tovarlarga: choy, paxta, shoyi, guruch, soya, makkajo'xori, neft va neft mahsulotlari, toshko'mir va boshqalarga davlat tomonidan o'rnatilgan monopoliya saqlanib qoldi. Shu bilan birga, eksportga lisenziya berishning tanlov asosida amalga oshirilishi joriy etilib, bir qator tovarlar uchun (sement, bug'doy) provinsiya organlarining bitimlarni lisenziyalash huquqi kengaytirildi. Mikrodarajada savdo-sanoat konsorsiumlarini tashkil etish tajribalari olib borildi. Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgan korxonalar qatori kengaydi, eksportni qo'llash tizimi takomillashtirildi.

Xitoyda eksportni barqaror o'sishi bo'yicha muayyan umidlar uning eksport mahsulotlarini, jumladan, mashina va uskunalar, elektrotexnik va qishloq xo'jalik tovarlari va tekstil mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bog'liqdir. 1990 yillarda Xitoyning eksport mahsulotlari soni 10 ming.dan oshib ketgan bo'lib, uning eksportdagi ulushi 46% ni, uni valyuta tushumi esa 38% ni tashkil etar edi.[43]

1994 yil mamlakatda yagona valyuta bozorini shakllantirish yo'lida qo'yilgan muhim qadami bo'lib, u yilning 1 yanvarida hukumat qarori bilan Xitoyda milliy valyutaning "yagona boshqariladigan suzib yuruvchi kursi" belgilanib e'lon qilindi va yuan kursining ikki tomonlama tizimi bekor qilindi. Natijada yuan amalda 1 AQSh dollari - 5,7 yuandan 8,7 yuanga devalvatsiya qilindi.

Tashqi savdodagi islohotlarning huquqiy asosi – 1994 yilda qabul qilingan "XXR ning tashqi savdo to'g'risidagi" qonuni bo'lib, unda JST talablariga mos holda davlatning yagona ochiq tashqi savdo siyosati tamoyillari belgilandi.

1995-1996 yillarda Xitoy hukumati tomonidan eksport-import operatsiyalarini boshqarishni erkinlashtirish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi bilan tashqi savdoni isloh etishning **5-bosqichi** boshlandi. Eksportni qo'llab-quvvatlash (rag'batlantirish), shartnoma narxlarini oshirishda, ichki mahalliy va eksporter korxonalar orasidagi tartibsiz raqobatni kamaytirish uchun Xitoy kvota auksionlari amaliyotini qo'lladi. Mamlakatdagi "strategik" xom ashyolar hisoblangan tovarlarga: xususan, neft, paxta tolasi, guruch, soya,

[43] Цзинцзи цаньхаобао, 13.12.2001 г.

ko'mir, minerallarga ; an'anaviy yengil, oziq-ovqat, tekstil va mahalliy sanoat mahsulotlari eksportiga hamda ikki tomonlama kelishuvlari bo'yicha belgilangan tovarlarni mamlakatdan olib chiqishga kvota cheklovlari qo'yildi. (ya'ni, ayolIar uchun tekstil va oyoq-kiyimlariga, AQSh bilan tekstil va po'lat ishlab chiqarishga).

Undan tashqari, Xitoyda importga o'rnatilgan bojxona bojlari darajasi o'rtacha 35% ga pasaytirildi. Bu esa, deyarli 5 ming tovarlar guruhlari assortimentining va Xitoy umumiy importining 76% ni tashkil etadi. Shular qatorida 176 ta tovarlar guruhlari uchun tartibga solishning notarif cheklovlari bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlari bekor qilindi, bu esa, kuchda qolgan notarif to'siqlarning 1/3 ga tengdir.

1996 yilning 1 aprelidan boshlab, Xitoy importga o'rnatilgan tarif stavkalarini (umumiy 6 mingta tovarlaridan 4,9 mingtasiga) qisqartirdi. Bu jarayon islohotlar davridagi tariflarni pasaytirish bo'yicha amalga oshirilgan eng yirik tadbirlarni o'z ichiga oladi.

1990 yillarning ikkinchi yarmida Osiyoda yuz bergan moliyaviy inqiroz barcha mazkur mintaqadagi davlatlar iqtisodiyotiga katta talofatlar olib kirdi. Xitoy tashqi savdosida esa, uning ta'siri deyarli sezilmadi. (Agar 1997 yilda Xitoy tashqi savdo hajmi 325,06 mlrd.AQSh doll.dan iborat bo'lgan bo'lsa, 1998 yilda u 323,7 mlrd. AQSh doll.teng bo'ldi). Bunda mamlakat eksportining hajmi -0,42% ga va importining hajmi -1,59% ga qisqardi.

Islohotlar davrida Xitoyning eksport-import tarkibi jiddiy o'zgarishlarga yuz tutib, agar, 1980 yillar boshida uning eksportining nisbati, ya'ni qishloq xo'jaligi mahsulotlari 25,4% ni, mineral xom ashyolar 26,3% ni va tayyor mahsulotlar – 44,2% ni; importining nisbati: qishloq xo'jalik mahsulotlari – 32,6% ni, mineral xom ashyolar – 4% ni va tayyor mahsulotlar – 58,8% ni tashkil etgan bo'lsa, 90 yillar oxiriga kelib, ushbu nisbatlar eksport bo'yicha: - 9,6%: 4,6%:85,8% ni; uning importi esa: - 12,1%:6,2%:81,7% [44] ni tashkil etib, mamlakat tashqi savdosida tayyor mahsulotlarning salmog'i kundan-kunga ortib borayotganligini ko'rsatadi.

2001 yilning 11 dekbrida XXR sini JST ga 143-a'zosi bo'lishi bilan uning tashqi iqtisodiy faoliyatida tubdan o'zgarishlar yuz berdi va mamlakat tashqi savdosini rivojlanishida hamda uni isloh etishda yangi bosqichni boshlab berdi.Unda tashqi savdoni, asosan erkinlashtirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, 2001 yildan boshlab, 5 yil mobaynida mamlakat eksport va importning umumiy hajmi yiliga o'rtacha 22% ni tashkil etib, u 3,5 martaga ortdi va uning ijobiy saldosi 22,6 dan 177,5 mlrd. AQSh doll. ni tashkil etdi.[45]

---

[44] Манба: Pomfred R.Es China “Large Country”? OECD Development Centre, 2000.P.39/

[45] Манба: Анализ перспектив китайской экономики – весенний доклад 2007 г. Под.ред.Чэнь Цзягуй.- Пекин,2007.с.156-157.

Xulosa qilib ta'kidlash joizki, Xitoy 2001 yilda JST ga a'zo bo'lishi bilan o'zining tashqi savdosini isloh etishning **yangi bosqichida (6 bosqich**) yuzaga kelgan barcha imkoniyatlarini ishga solmoqda.

## 7 - BOB: XITOY VA AQSH SAVDO – IQTISODIY ALOQALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

### 7.1.Xitoy va AQSh diplomatik aloqalarining o'rnatilishi. Ikki mamlakat o'zaro savdo-iqtisodiy aloqalarining rivojlanish bosqichlari

Xitoyning Amerika Qo'shma Shtatlari bilan bo'lgan munosabatlari uning boshqa g'arb davlatlari bilan bo'lgan tashqi iqtisodiy aloqalarida ustuvor ahamiyatga egadir Sababi, 1990 yillardan boshlab, AQSh Xitoyning savdo hamkorlari orasida Yaponiya va Gonkongdan keyingi mustahkam 3-o'rinni egalladi. Shu bilan birga, u xitoy iqtisodiyotiga barqaror ravishda tadbirkorlik kapitalini olib kirayotgan  yirik g'arb investorlaridan biri hamdir.

Xitoy-amerika savdo munosabatlarining real rivojlanishi 1970 yillar oxiridan boshlanib, bu davrda Xitoy davlati o'zining ochiq tashqi iqtisodiy siyosatini amalga oshirishga kirishdi va AQSh bilan diplomatik aloqalarini o'rnatdi hamda savdo kelishuviga qo'l qo'yish orqali ikki tomonlama aloqalarning rivojlanishi uchun huquqiy bazani shakllantirdi. 1983 yildan boshlab esa, xitoy-amerika qo'shma savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hay'atining yillik kengashini o'tqaza boshladilar.

Xitoy va AQSh o'zaro munosabatlari Xitoy Ijtimoiy Fanlar akademiyasining "AQSh bo'yicha izlanishlar" instituti professori Tao Venchjoning  fikriga ko'ra 3 bosqichga bo'linadi:

**1-bosqich** – diplomatik aloqalar o'rnatilgan kundan boshlab, to 1989 yilning may oyigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, bu davrda Xitoy o'zining "ochiqlik va islohotlar" siyosatini amalga oshirdi. Bunda o'sha davrda hukumat rahbari bo'lgan Den Syaopin tomonidan amalga oshirilayotgan siyosatda AQSh davlati bilan Xitoy o'rtasidagi munosabatlarni normal holatga keltirish ko'zda tutildi

Den Syaopin ikki davlatlararo diplomatik munosabatlarni o'rnatilayotgan  paytda  3 ta shartni qisqacha bayon etdi:

1954 yilda tuzilgan "AQSh va Tayvanning birgalikda himoya qilish bo'yicha bitimini" bekor qilish;

Tayvandan AQShning harbiy qurollangan kuchlarni olib chiqib ketish;

Tayvan bilan diplomatik munosabatlarni to'xtatish

Amerika tomoni bu shartlarni qabul qilmadi. Biroq, AQSh ham o'zining yagona shartini Xitoy hukumati oldiga qo'ydi: ya'ni, ikki tomonlama munosabatlar yaxshilanayotgan paytda Xitoy Tayvan muammosida harbiy kuchlardan foydalanmaslik to'g'risida e'lon qilishi darkor.

Lekin, Den Syaopin bunga rozi bo'lmadi va "Tayvan masalasi" ni tinch yo'l bilan hal qilishni hohlashini bildirdi, ammo buni hal etish Xitoyning ichki siyosati ekanligini ham eslatib qo'ydi. Ikki tomonlama diplomatik aloqalar o'rnatilgandan so'ng, Xitoy va AQSh munosabatlarni gurkirab rivojlandi. 1979 yilning fevral oyida Den Syaopin AQSh ga birinchi marotaba tashrif buyurdi va bu tashrif XXR tashkil etgan kundan keyingi 1-tashrif bo'ldi. AQSh da bu tashrif xalq orasidan keng tarqalib, unga nisbatan iliq taasurotlar qoldirdi.

**2-bosqich-** bu xitoy-amerika munosabatlarining yaxshilanayotgan davri bo'lib, 1990 yillarda xalqaro maydonda mazkur munosabatlar keskin o'zgarishlarga olib keldi. Chunki 1990 yillar boshida sobiq sovet ittifoqining parchalanishi natijasida dunyoda AQShning yakka super hokimligi vujudga keldi. 1995-1996 yillarda har ikki davlat vakillarining bir-biriga tashriflari amalga oshirildi. Ayniqsa, Klinton hukumati Xitoy bilan aloqalarni tartibga solish bo'yicha muayyan xarakatlar qilindi.

1997 yilda Xitoy XKP ning raisi Szyan Szemin AQSh ga safar qildi. Unga javoban, 1998 yilda AQSh prezidenti B.Klinton Xitoyga bordi va undan buyon Xitoyning Tayvan masalasiga aralashmasligini bildirdi.Oxir oqibatda, ikki davlat rahbarlari kelajakda konstruktiv hamkorlik qilishga tayyor ekanliklarini bildirdilar.Ammo, lekin, 1999 yilni 8 mayida Belgradda yuz bergan noxush holat mazkur munosabatlarni murakkablashtirdi. Ya'ni, Belgraddagi Xitoy elchixonasi AQSh ning noto'g'ri uchirilgan raketasi orqali barbod bo'lganligi, ikki tomonlama aloqalarning jiddiylashuviga olib keldi. Shu yilning 9 sentyabrida Yangi Zelandiyaning Okland shahrida o'tkazilgan ATES sammitida har ikkala davlat rahbarlari ushbu buzilgan aloqalarni yangi darajaga olib chiqish bo'yicha qaror qabul qilindi. Unda Xitoyni JST ga a'zo bo'lishi borasida amalga oshirilayotgan kelishuvlarni yakunlashga va uni qisqa vaqtlarda a'zolikka qabul qilishga qaror qilindi.

**3-bosqich** – bu XXI asr boshidan to hozirgi kungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi va unda AQSh va Xitoy orasidagi konstruktiv munosabatlarni har tomonlama rivojlantirish ishlari amalga oshirilmoqda. 2001 yilning 1 aprelida Xitoyning Xaynan provinsiyasida Xitoy va Amerika qiruvchi samoletlarining to'qnashuvi yuz berdi. Har ikkala hukumat rahbarlarining telefon orqali xitoy-amerika munosabatlarining muhimligi to'g'risidagi suhbatlaridan so'ng, har ikkala davlat rahbarlari o'zlari uchun ushbu munosabatlar va aloqalarning zarurligini anglab yetdilar

Xitoy va AQSh tashqi savdosining mana shu yillardagi rivojlanish dinamikasiga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, agar 1978 yilda ularning o'zaro tovar aylanmasi hattoki 1 mlrd.AQSh doll.ni ham tashkil etmagan bo'lsa, oradan qandaydir 10 yil o'tgandan so'ng, ya'ni, 1988 yilga kelib, ushbu davlatlarning savdo aylanmasi hajmining 10 mlrd.AQSh doll.dan ortib ketganligining (demak, yiliga 1 mlrd.doll.ga ortgan) guvohi bo'lamiz. 1995 yilga kelib esa, u

40 mlrd.AQSh doll.ni va 2006 yilda 261 mlrd.AQSh doll.ni tashkil etdi.[46] Shular qatorida, ta'kidlash lozimki, ushbu davlatlarning Gonkong orqali reeksportini hisobga olgandagi real savdo ko'rsatkichlari xitoy statistikasiga nisbatan, 1,5-2 marotabaga ortadi.

### 7.2. Ikki mamlakatning o'zaro tovar aylanmasi dinamikasi

Xitoy mashina va uskunalar eksportining asosiy iste'molchilari: AQSh (22,6%); Yaponiya (8,7%); Germaniya (5,35%); Niderlandiya (3,5%) va Koreya Respublikasi (2,6%) hisoblanadi. Xitoyning yengil va tekstil sanoati mahsulotlarini iste'molchilari esa, Yaponiya (21,5%), AQSh (17,8); Rossiya Federatsiyasi (4,0%); Germaniya (2,6%) va Koreya Respublikasi (1,6%). Xitoyning mazkur sanoatini rivojlanishi AQSh va Hindiston mamlakatlaridan olib kiriladigan paxta xom ashyosiga bog'liqligi kuchaymoqda. Biroq, mazkur davlatlarning savdo aloqalari rivojlanish dinamikasini yuqoriligiga qaramasdan, umuman olganda, ular yuz berayotgan siyosiy muammolarga nihoyatda ta'sirchan va nobarqaror bo'lib qolmoqda. Uning natijasida esa, o'zaro savdo-iqtisodiy aloqalar yanayam qiyinlashadi. Buni biz mana shu davrlarda 3 marotaba yuz bergan (1982-1983; 1986; 1990 yy.) ikki tomonlama savdo aloqalarning qisqarganligida kuzatishimiz mumkin.[47]

Ushbu savdo aloqalaridagi birinchi pasayish har ikki davlatning ikki tomonlama aloqalardan haddan tashqari yuqori natijalarni kutganligi oqibatida yuz berib, unda Xitoy hukumati o'z sanoatini modernizatsiyalash (yangilash) uchun AQSh dan ilg'or texnologiyalar va uskunalarni olib kirish bo'yicha yirik miqyosli iqtisodiy yordamni asossiz kutganligi; AQSh esa, ushbu hamkorlikdan sobiq Sovet ittifoqi bilan bo'lgan siyosiy kurashida siyosiy strategik manfaatlar izlab katta xatolarga yuz tutishida ko'rindi. Shu bilan birga AQSh, eng avvalo, xitoy bozoridan o'zi uchun cheklanmagan miqdorda joy egallashga, investision hamkorlikda asosiy urg'uni XXR sidagi neft konlarini o'zlashtirishga qaratdi.

O'z navbatida, xitoyning yirik miqyosli arzon tekstil mahsulotlari eksporti AQSh da unga qarshi Xitoydan sotib olinayotgan tovarlarga nisbatan qattiq nazorat bilan birga kerakli choralar ko'rilishiga olib keldi (AQSh o'z ilg'or texnologiyalarini Xitoyga olib kirishni qisqartirdi). Bunga javoban, Xitoy amerikadan kirib kelayotgan import mahsulotlarini qisqartirdi. Hattoki, paxta tolasi, soya, sintetik tolalar, don importini to'xtatdi

Xitoy-Amerika iqtisodiy aloqalariga bevosita an'anaviy tarzda ta'sir etadigan muhim siyosiy muammolardan biri – bu Tayvan muammosidir. Ushbu muammo orqali Xitoy AQSh ga o'z ta'sirini o'tqazadi. Buni 1982-83 yillarda yuz bergan ikki tomonlama aloqalarning yomonlashuvi oqibatida savdo hajmining qisqarganligida ko'rishimiz mumkin. Xitoy

---

[46] Манба: Китайская Народная Республика: политика, экономика, культура, 2007 г.154 с.

[47] М.А.Потапов. Внешнеэкономическая политика Китая: противоречия и проблемы.,М., Изд.во "Буква", 1998, 104 с.

amerikaning Tayvanga qurol-aslaha sotishiga va amerika yuqori hukumat a’zolarining Tayvan ma’muriyati bilan aloqalariga keskin qarshi chiqadi

1989 yildagi Tayvanda yuz bergan voqealardan so’ng, AQSh hukumati Xitoyga nisbatan iqtisodiy sanksiyalarni qo’llashga majbur bo’lib, uni kreditlashni to’xtatdi va texnologiyalar importini qisqartirdi. Uning oqibatida o’zaro savdo biroz qisqardi  va ikki tomonlama aloqalarning sekinlashishiga olib keldi.

1993 yilda AQSh da hukumat tepasiga B.Klintonning kelishi bilan vaziyat o’zgara boshladi. Chunki, Klinton ma’muriyati xitoy bozorida Evropa ittifoqi va Yaponiya tomonidan raqobatning ortib borayotganligiga o’z e’tiborini qarata boshladi va bu yo’nalishda XXR bilan faol dialog taktikasiga o’tdi. Uning natijasida savdo aloqalarini rivojlanishiga va ayniqsa, Xitoy iqtisodiyotiga sarmoyalar qo’yishning faollashuviga olib keldi.

1990 yillar o‘rtalariga kelib, xitoy-amerika iqtisodiy aloqalarida, ya’ni, davlat tashkilotlari, nodavlat organlari, ishbilarmonlar doirasi va alohida tijorat strukturalari miqyosida murakkab munosabatlar yuzaga keldi. 1996 yilda AQSh Xitoyning savdo hamkorlari orasida 2-o’rinni, Xitoy esa, amerikaning savdo hamkorlari orasida 5-o’rinni egallashga erishdilar. Xitoy AQSh ning samoletsozlik, kompyuterlar, bug’doy va paxta tolasi bo’yicha yirik buyurtmachisiga aylandi.

Xitoy va amerika ikki tomonlama savdosi tarkibi hali yetarlicha keng bo’lmay, ammo lekin, u diversifikatsiyalanish tendensiyasiga egadir. Xitoyning AQSh ga eksportida an’anaviy mahsulotlar bilan birga, ya’ni: tekstil va san’at mahsulotlari, kiyim-kechak, oyoq-kiyimlar (ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish umumiy hajmining 1/3 qismi) bilan birga, mashinasozlik va elektronika (televizorlar, radiopriemniklar, fotoaparatlar va h.k.) sanoatining mahsulotlari ulushi ko’payib bormoqda. Xitoyning importida esa, mashina-texnik, energetika, avtomobilsozlik uskunalari, jihozlar, qishloq xo’jalik mahsulotlari va neft-kimyo sanoati mahsulotlari ustuvorlikka egadir.

1970-yillar oxirida rivojlana boshlagan amerika-xitoy qo’shma tadbirkorligi asosan, kontinental shelfda neft konlarini o’zlashtirish sohasi bo’yicha hamkorlikni o’z ichiga olib, 1990 yillarning birinchi yarmida ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishidagi kuchli dvigatel rolini o’ynadi. Ular orasidagi hamkorlikning shakl va sohalari ham sifat jihatidan o’zgarib bordi. Xitoy bozoriga sekin-asta nafakat yirik (Ford, Ay-Bi-Em, Djeneral-Elektrik, Djeneral-Motors, Vestingauz, Yunayted-Texnolodji, Motorola, Xyulett-Pakkard, Koka-Kola va h.k.) balki o’rta va kichik hajmdagi amerika biznesi kirib kela boshladi.

AQSh korporatsiyalari xitoyning ishlab chiqarishni texnologik va ilm sig’imi katta bo’lgan sohalariga, ayniqsa, xitoy tomoni manfaatdor bo’lgan yo’nalishlarga (telekommunikatsiya, informatika, biotexnologiya, yangi materiallar) faol kirib, ularni

o’zlashtirdilar. Zamonaviy hamkorlik “mahsulotning hayotiy siklini” hamma bosqichlarini, hattoki, sotilgandan keyingi xizmat ko’rsatishni ham o’z ichiga olib, investisiyalarning tarmoqlar tarkibi optimallashtirilib, uning noishlab chiqarish sohasi ham faol o’zlashtirilmoqda.

Hozirgi kunda AQSh bilan qo’shma tadbirkorlik Xitoy uchun texnologiyalarni sotib olishda, tajriba orttirishda, kadrlarni tayyorlashda, savdo aloqalarini rivojlantirishda muhim rag’batlantiruvchi manba hisoblanadi. 1997 yil boshiga kelib, Xitoy iqtisodiyotiga qo’yilgan AQSh ning 22 mingdan ortiq kelishuv-kontrakst investisiyalarini umumiy hajmi 35,2 mlrd.AQSh doll.ga yetib, ularda amalda foydalanilgani 14,3 mlrd.AQSh doll. tashkil qildi.

Amerika yirik biznesining manfaatlari ko’p hollarda, AQSh prezidentlari tomonidan har yili Xitoyga nisbatan qo’llaniladigan “eng qulay tartib” (RNB-rejim naibolshego blagopriyatstvovaniya v torgovle) ni qo’llashga yordam beradi).

Xitoyni AQSh lari bilan keyinchalik ham savdo aloqalarini amalga oshirishiga to’sqinlik qiluvchi muhim omillardan biri – bu AQSh ning Xitoy uchun savdoda “eng qulay tartib” ni doimiy asosda qo’llashga ruxsat berilmaganligidadir. AQSh ning 1974 yildagi savdo to’g’risidagi, “bozor iqtisodiyotli” bo’lmagan davlatlarda emigratsiya erkinligi to’g’risidagi qonuniga Djekson-Venik o’zgartirishi kiritilishiga qaramasdan, AQSh baribir, har yili 1980 yillardan boshlab “eng qulay tartib”ni faqat bir yilga uzaytirishni ko’rib chiqadi. Uning sababini esa, AQSh Xitoydani inson huquqlarining buzilishi holatlari bilan, Tibet muammosining mavjudligi bilan, Xitoyning noqonuniy tarzda qurol-yarog’lar va yadro texnologiyalarini sotishi bilan, eksport tovarlarini ishlab chiqarishda qomoqxonalardagi mahbuslarning xizmatidan foydalanish bilan, tug’ilishni chegaralash siyosati bilan, intelektual mulk huquqining buzulishi bilan bog’lab ro’kach qiladi. 1994 yilda AQSh Prezidenti B.Klinton bu bog‘erkinliklarni bekor qildi, ammo, baribir ushbu holatlar davom etaverdi, chunki , AQSh uchun Xitoy tovarlari, ishlab chiqarish kuchlarini arzonligi asosiy omil edi.

AQSh tomonidan Xitoyga “EQT” (RNB) ni uzluksiz berilishi natijasida ularning ikki tomonlama savdo –iqtisodiy aloqalari ham kundan-kunga rivojlanib bordi. Jahon Bankining hisob-kitoblariga qaraganda, “EQT”ning Xitoy uchun bekor qilinishi natijasida amerikalik iste’molchilar xitoyni asosiy tovarlar nomenklaturasi 5-10 marotabaga o’sishi natijasida ularga qo’yilgan import bojlaridan 14 mlrd.doll.miqdorida zarar ko’rishi mumkin ekan.

Undan tashqari, Xitoy o’z navbatida, AQSh ga tovarlarni eksport qilishni 42-96% ga pasaytirishga majbur bo’lib, yiliga 7 mlrd doll.dan to 15 mlrd.doll.gacha yo’qotishi, AQSh esa, shunga o’xshash operatsiyalardan 4-8 mlrd.doll. zarar ko’rishi mumkin edi.[48] Mazkur masalada Gonkong omili muhim ahamiyat kasb etib, “EQT” bekor qilinishi natijasida ushbu xudud orqali

[48] М.А.Потапов. Внешнеэкономическая политика Китая: противоречия и проблемы.,М., Изд.во “Буква”, 1998, 108с.

o'tadigan reeksport pasayishi mumkin. Amerikalik mutaxassislarning hisobiga ko'ra, u 31-45% atrofida pasayishi mumkin. Uning qiymati esa 8,5-12,3 mlrd.doll.ni tashkil etib, u bevosita 80 ming ish o'rinlarini qisqarishiga olib kelishi mumkin[49]

Jadval 7.1.1.

**Xitoy va AQSh YaIMning rivojlanish dinamikasi (2000-2020- yy.) mlrd.AQSh doll.[50]**

| mamlakatlar | 2000 | 2005 | 2012 | 2015 | 2016 | 2018 | 2019 | 2020 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Xitoy | 1211,3 | 2285,9 | 8560.5 | 9607,2 | 11064,7 | 13218,8 | 14415.1 | 15062,5 |
| AQSH | 10284.7 | 13093,7 | 16155,3 | 18120,7 | 18624,5 | 20494,0 | 21344,6 | 20930,0 |

Ikki tomonlama xitoy-amerika munosabatlaridagi jiddiy muammo – bu o'zaro savdodagi disbalans (muvozanatning buzilishi) hisoblanib, u AQSh ning ahamiyatli kamomadi (defisit) bilan tavsiflanadi. Amerika hisob-kitoblariga ko'ra bu kamomad uzluksiz o'sib bormoqda. U 1980 yillarning ikkinchi yarmidan boshlab 10 mln.doll.dan 1996 yilga kelib - 39,5 mlrd. doll.ni tashkil qildi. Xitoy hisobiga ko'ra, u atigi 10,5 mlrd.doll.ni tashkil etdi. Mazkur disbalansning mavjudligi sabablaridan biri – hisob-kitoblar uslublarining har xilligi bo'lib, u Gonkong orqali xitoy tovarlari reeksporti hajmiga bog'liqdir. (Unga Xitoy va AQSh eksportining 60% i to'g'ri keladi).

Jadval 7.1.2.

**2010-2018-yillarda Xitoy va AQSh ning eksport-import operatsiyalari hajmi, mlrd.doll.[51]**

| mamlakatlar | | 2010 | 2012 | 2014 | 2016 | 2018 |
|---|---|---|---|---|---|---|
| XXR | import | 1396,2 | 1818,4 | 1959,2 | 1587,2 | 2651,0 |
| | eksport | 1577,7 | 2048,7 | 2342,2 | 2097,6 | 2548,1 |
| | tovar aylanmasi | 2974.0 | 3838,3 | 4201,5 | 3685,5 | 5199,1 |
| AQSh | import | 1969,1 | 2336,5 | 2412,5 | 2250,1 | 2706.5 |
| | eksport | 1278,5 | 1545,7 | 1620,5 | 1451,0 | 2190,2 |
| | tovar aylanmasi | 3247,7 | 3882,2 | 4033,1 | 3701,1 | 4896.7 |

Xitoy va AQSh orasidagi savdo defisitining o'sishini asosiy sababi Yangi industrial mamlakatlarini xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlaridan tayyor mahsulotlarni qayta ishlash va yig'ish vazifalari bo'yicha o'zlarining mehnat talab ishlab chiqarishlarini Xitoyning janubiy

[49] China Daily. Business Weekly, 5.05.1996.
[50] Манба: Гайгэ кайфан и лай ды.Чжунго вайцзяо.(Дипломатия Китая периода реформ и открытости) Под ред.Тянь Цзэнпэя, Пекин, 1993,с.409-410. hamda Чжунго шанъу фачжань баогао 2017. 18-19 b. Asosida tayyorlandi.
[51] World Bank Open Data. Free and open access to global development data. URL: https://data.worldbank.org/indicator/SP.POP.TOTL.

provinsiyalariga ko’chirilishi bo’ldi. Ya’ni, Gonkong, Tayvan, Singapur, Koreya Respublika kabi davlatlarining Xitoyga ko’chirilgan korxonalari o’z mahsulotlarini an’anaviy kanallar bo’yicha, xususan, Gonkong va Tayvan orqali AQSh ga eksport qiladilar. Uning oqibatida, AQSh ning Xitoy bilan savdosidagi defisiti ortib boradi, Yangi Industrial Mamlakatlar bilan esa pasayadi.

Shundan ko’rinib turibdiki, xitoy-amerika tashqi savdosidagi disbalans xitoy bozorining ochiqlik darajasini ko’rsatuvchi ko’rsatkich bo’lib va Xitoy iqtisodiyotini erkinlashtirish dastagi ham bo’lib xizmat qila olmaydi. Shu bilan birga, ushbu kamomad Xitoyga nisbatan AQSh ning diskriminasion (kamsituvchi) siyosatini yaqqol ko’rsatib turibdi. Mana shu va shunga o’xshash muammolarni Xitoy JST ga a’zo bo’lganidan so’ng sekin-asta hal qila boshladi.

Xitoy-amerika ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarini rivojlanishiga xalaqit berayotgan yirik omillardan biri – bu AQSh tomonidan ilg’or texnika va texnologiyalar eksportiga cheklovlar qo’yilganligi bo’lib, u XXR ga eksportni qattiq nazorat qilinishi va ularga lisenziyalash tizimini o’rnatilishi bilan belgilanadi. 1983 yildan boshlab, AQSh ning Xitoyga texnologiyalarni eksport qilish sharoitlari sekin-asta yumshatilib borildi. Xitoy uchun AQSh tomonidan texnika va texnologiyalarni eksport qilish hajmining ortishi, Xitoy hukumati tomonidan unga nisbatan savdo-siyosiy tartibini erkinlashtirish talabining qo’yilishi, xitoy bozoriga tovarlar va xizmatlarning kirib kelishini osonlashtirish, intellektual mulkni himoya qilish huquqini joriy qilish bilan bog’liqdir.

Xitoyning tekstil mahsulotlari eksportiga AQSh tomonidan o’rnatilgan cheklovlarning mavjudligi (85% gacha bo’lgan uning hajmi amerika tomonidan qo’yilgan miqdoriy cheklovlarga to’g’ri keladi) har ikki tomonlama o’zaro iqtisodiy munosabatlardagi jiddiy og’riq nuqtasi bo’lib qolmoqda. Tekstil bo’yicha har bir ikki tomonlama kelishuvlar ko’p raundli kelishuvlarga aylanib, ular natijasida ko’pincha o’zaro iqtisodiy sanksiyalarni belgilash xavflari kelib chiqar edi. 1980-1990 yillar mobynida XXR va AQSh tomonidan tekstil bo’yicha 5 ta kelishuvlar olib borildi (1980, 1983, 1988, 1994 va 1997 yillarda). Shular bilan birga cheklovlar belgilangan tovarlar guruhlarining soni 5 tadan (1979 y.) 88 taga (1994 y.) ko’paydi AQSh ning bojxona organlari yiliga boshqa 3-chi davlatlar orqali mamlakatga kirib kelayotgan “nolegal” xitoy tekstil tovarlarini 2 mlrd.doll. deb belgilasalar, uning legal holda kirib kelish hajmini 4,5-5,0 mlrd.loll. deb baholashmoqda.

Xitoy tashqi savdosining xususiyati – bu uzoq davrlargacha saqlanib kelgan uning eksportini ahamiyatli tarzda importidan ortiqroq bo‘lishidir. Biroq, 2001 yildan so‘ng, import hajmining ortib borishi tendensiyasi kuzatila boshladi. Bu esa, XXR sini jahon ishlab chiqarish jarayoniga chuqur kirib borishi va o‘z iqtisodiyotini ehtiyojlarini import orqali qondirishning

zarurligi bilan va jahon bozorida narxlarning o‘sishi bilan kuchayib bordi. Biroq, 2005 yilga kelib, import hajmining pasayish tendensiyasi bilan ko‘pgina tarmoqlarda eksportning ortishi kuzatildi va bu jarayon 2006 yilda ham saqlanib qoldi. Bu jarayonga turli omillar sabab bo‘lib, ular:

- birinchidan, mamlakatga kirib kelayotgan investiyalar hajmining pasayishi bilan, ya’ni agar, 2003 yilda chet el sarmoyalari hajmi 27,7% ni tashkil etgan bo‘lsa, u 2005 yilga kelib – 26,% ga va 2006 yilda esa, 24,0% ga pasaydi. Mazkur pasayish natijasida sanoat uchun uskuna va jihozlar importi iste’molining pasayishiga olib keldi;

- ikkinchidan, ba’zi bir tarmoqlarda mahalliy ishlab chiqarishning keskin o‘sishi kuzatildi (alyuminiy va po‘lat ishlab chiqarishda);

- uchinchidan, mamlakatdagi don mahsulotldarini yetishtirishning ko‘payishi bilan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini import qilish ehtiyojini kamaytirdi;

- to‘rtinchidan, mamlakatda neft va neft mahsulotlari importining o‘sish sur’ati sekinlashdi. Uning sabablari bo‘lib, qisman, ichki bozordagi narxlarni qattiq tartibga solinishi bo‘lsa, qisman esa, mamlakatda neftning strategik zahirasini tashkil etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan faol siyosat hisoblandi.

Xitoyning tashqi savdo aylanmasi dinamikasi ahamiyatli tarzda uning YaIM ni o‘sishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Agar, 2001 yilda mamlakat eksportining o‘sishi uning YaIM ni 7,5% i ta’minlagan bo‘lsa, 2006 yilga kelib, u 36,4% ni tashkil etdi. Boshqacha qilib aytsak, agar, 2006 yilda mamlakatdagi iqtisodiy o‘sish 10,7% ni tashkil etgan bo‘lsa, uning 3,89% i Xitoy tashqi savdosining tez rivojlanishi natijasida yuzaga keldi. [52]

Shular qatorida Xitoy tashqi savdosidagi tovarlar tarkibi asta-sekinlik bilan o‘zgarib bormoqda. Ular orasida qayta ishlab chiqarish sanoati sohasida ishlab chiqarilgan tovarlar savdosi tez sur’atlarda o‘sdi. Agar, 2001 yilda ular hajmi 241,5 mlrd.AQSh doll. ga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2006 yilga kelib, u 3,4 marotabaga o‘sdi, ya’ni, 831,9 mlrd.AQSh doll.ga teng bo‘ldi. Bu holat esa, mamlakatdagi an’anaviy tarmoqlar mahsulotlari ulushining qisqarishiga olib keldi. Shu bilan birga, mehnat talab tarmoqlar ulushi ham yuqori texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarish foydasiga qisqarib bordi. Ammo, lekin, 2006 yilda mamlakat qayta ishlash tarmog‘i mahsulotlari eksporti va importining o‘sish sur’atlari uning an’anaviy tarmoqlari mahsulotlari eksporti va importi o‘sish sur’atlaridan bir muncha past bo‘ldi. Ya’ni, agar, 2006 yilda qayta ishlab chiqarish sohasi mahsulotlari eksporti va importining o‘sish suratlari – 22,5% va 17,3% ni tashkil etgan bo‘lsa, xaddi shu ko‘rsatkichlar Xitoy an’anaviy tarmoqlari mahsulotlarini eksporti va importining o‘sish sur’atlari – 32,1% va 19,1% dan iborat bo‘ldi.

[52] Чжунго шаньу фачжань баогао (Доклад о развитии торговли), Пекин, 2007,с.8.

Uning asosiy sabablaridan biri – xom ashyoni importidan foydalanuvchi tarmoqlar ulushining ortishidadir.

Ta'kidlash joizki, 2006 yilda turli mulk shaklidagi milliy korxonalarning tashqi savdo aylanmasi (minin she) 307,66 mlrd.AQSh doll.ni va tashqi savdo aylanmasining 17,5% ni tashkil etdi, ular jumlasidan eksport 213,9 mlrd.doll.dan iborat bo'lib, bu o'tgan 2005 yilga nisbatan, 43,6% na tengdir. 2006 yilda Xitoy davlat korxonalarining tashqi savdo aylanmasidagi hajmi - 416,6 mlrd.dollni tashkil etib, u hajm bo'yicha 3-o'rinni egalladi. Xitoy xorijiy kapitalidan foydalangan korxonalarni eksport va import hajmlari shu davrda 1036,4 mlrd.doll.ni tashkil etdi va u mamlakat umumiy tashqi savdo aylanmasining 58,9% ni ko'rsatdi. Mana shu korxonalar mahsulotlari eksporti 2006 yilda 26,9% ga o'sdi.

Xitoy yengil va tekstil sanoati mahsulotlarining mamlakat eksportidagi ulushini pasayib borishiga qaramay, mazkur tarmoqlar mahsulotlari eksporti yuqori sur'atlarda bo'ldi (28,9%). Yengil va tekstil sanoati mahsulotlarining asosiy iste'molchilari Yaponiya (21,5%); AQSh (17,8%); Rossiya Federatsiyasi (4,0%); Germaniya (2,6%) va Janubiy Koreya (1,6%) mamlakatlari hisoblanadi. Mazkur sanoat mahsulotlarining 10% i Gonkong orqali boshqa rivojlanayotgan davlatlarga sotiladi. Hozirgi kunda Xitoy tekstil sanoatining AQSh va Hindistondan keltiriladigan paxta tolasiga bog'liqligi kuchayib bormoqda.

Xitoy iqtisodiyotining oxirgi 2-3 yillardagi rivojlanish xususiyatlaridan biri – bu undagi resurslarning yetishmasligi (defisit) hisoblanadi. Xitoy o'zining mavjud iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab turish uchun, bir tomondan, mineral resurslar importin iahamiyatli tarzda oshirib borishi yoki, ikkinchi tomondan, mavjud mineral resurslar va sanoat mahsulotlari eksportini chegaralashi va ichki bozorda ulardan foydalanishni qisqartirishi lozimdir.

Xitoy Xalq Respublikasi Moliya vazirligi va XXR Davlat Bosh soliq boshqarmasi 2009 yilning 1 fevralidan boshlab o'z kiyim-kechak va tekstil mahsulotlari eksportiga oldindan o'rnatilgan 14% lik soliq stavkasi o'rniga uni 15% ga ko'targanliklarini e'lon qildilar. Mazkur soliq stavkasini ko'tarilishi 3325 ta tovar nomenklaturasi uchun belgilandi.

Shular bilan bir qatorda, Xitoy o'z o'yinchoqlarini AQSh va EI mamlakatlariga eksport qilish bilan ham shug'ullanib, o'tgan 2008 yilda ularni eksport qilish sur'ati sekinlasha bordi. Uning asosiy sababi esa, tez tarqalayotgan jaxon moliyaviy inqirozi sharoitida unga bo'lgan talabning kamayib borishi bilan bog'liqdir. XXR si Bosh Bojxona boshqarmasining ma'lumotlariga ko'ra 2008 yilning 11 oyida (yanvar-noyabr) Xitoy 8,04 mlrd.AQSh doll.lik o'yinchoqlarni eksport qilgan bo'lib, u o'tgan yilning aynan shu davriga nisbatan 2,5% ga ko'p demakdir. Shu bilan birga uning o'sish sur'ati xisobot yilida 17,8% ga qisqargan.

O'yinchoqlar eksporti hajmining qisqarishina asosiy sabab, ushbu mahsulotlarning sifatsizligi va mazkur mahsulotlarga nisbatan qo'yilayotgan xavfsizlik darajasining ortishi

bo‘ldi. Mana shu mahsulotlarni Xitoydan import qiluvchi asosiy davlatlar AQSh va EI mamlakatlari hisoblanib, ular bu pozisiyada 1 va 2-o‘rinni egallaydilar hamda ularning xitoy o‘yinchoqlarini import qilishdagi ulushi 67,1% ga tengdir.

2008 yil ma’lumotiga ko‘ra, ikki davlat orasidagi savdo aylanmasi 300 mlrd.AQSh doll.dan oshib ketdi. AQSh ning umumiy tovar aylanmasida uning Xitoy bilan savdosi ulushi 11% ni tashkil etadi. Xitoyni umumiy tovar aylanmasida AQSh bilan savdo ululshi 14% dan iboratdir. Undan tashqari, Xitoyning umumiy valyuta zahirasi hajmining 70% i (2 trln.AQSh doll.) AQSh valyutasida (dollarida) bo’lib, xususan, AQSh moliya vazirligi tomonidan berilgan davlat qarzi 585 mlrd.doll.ni tashkil etadi. Bundan kelib chiqib, ta’kidlash lozimki, Xitoy va AQSh bir-biri bilan o’zaro bog‘liqlikdadir.

Xitoy professori Tao Venchjaoning fikricha, hozirgi kunda xitoy-amerika munosabatlari quyidagi xususiyatlarga egadir:

Birinchidan, xitoy-amerika munosabatlari ikki tomonlama munosabatlar chegarasidan chiqqan bo’lib, hozirgi kunda u dunyoda ikki tomonlama munosabatlar orasidagi eng muhim munosabatlardan iboratdir. Hozirda ushbu munosabatlar mintaqaviy va global iqtisodiyotda va havfsizlik sohalarida muhim rol o’ynaydi;

Ikkinchidan, Xitoy va AQSh munosabatlari takomillashgan mexanizmdan iborat bo’lib, D.Bush prezidentlik davrida ikki davlat rahbarlari 20 marotaba uchrashganlar va yana shuncha marotaba telefon orqali so’zlashib, 40 marotaba bir-birlariga xatlar jo’natganlar;

Uchinchidan, iqtisodiyot sohasida har ikkala davlat bir-biri bilan uzviy bog’liqlikda bo’lib, uni biz 2001 yilda Xitoyni JST ga a’zo bo’lgan davridan boshlab uning tashqi savdosini o’rtacha 28,5% ga o’sishidan ko’rishimiz mumkin. Vaqt o’tgan sayin ikki tomonlama bir-biri bilan iqtisodiy bog‘liqlik strategik ahamiyat kasb etib, ushbu o’zaro bog’liqlik chuqurlashmoqda;

To’rtinchidan, AQSh ning Tayvanga nisbatan olib borayotgan siyosati o’zgarmoqda. AQSh rahbariyati Tayvanning hozirgi bir tomonlama siyosatiga qarshi chiqmoqda;

beshinchidan, Xitoy va AQSh xalqlari orasidagi munosabatlar chegarasi kengayib, xalq diplomatiyasiga yo’l ochilmoqda. Ular, xususan, tijorat, savdo, iqtisodiy, madaniy, ta’lim, sport, turizm sohalarida rivojlanmoqda.

Shunday qilib, Xitoyning ko‘p darajali, ko‘p tarmoqli va tashqi dunyo uchun ochiqliq tizimi tashkil topdi. Xitoy va AQSH savdo urushi ochmaslik haqida va o’zaro boj to’lovlarini kiritishni to’xtatishga kelishib oldilar. AQSH Xitoyning Amerika bozoriga yetkazib beriluvchi qator tovarlariga 50 mlrd dollar summadagi 25% lik bojxona bojlarini joriy etishni mo’ljallamoqda. Ushbu tovarlar sanoat uchun muhim ahamiyatga ega bo’lgan texnologoyalardir.

### 7.3.Ikki mamlakatning o‘zaro savdo aloqalaridagi muammolari

XXR va AQSH o'rtasidagi tashqi savdo nizolari 2017 yilda AQSH va XXR orasidagi savdo deffitsiti 375,2 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi va bu 2016 yilgi 347 mlrdAQSH dollarlik ko'rsatkichga nisbatan 8.1 % (28.2 mlrd. AQSH dollari)ga yuqori.AQShdan XXRga eksport qilingan tovarlar xajmi 130,4 mlrd. AQSH dollarini tashkil qildi, bu esa o'tgan yilgi 115,6 mlrd. AQSH dollarlik ko'rsatkichga qaraganda 12,8 % (14,8 mlrd. AQSH dollari)ga ko'pdir.Shu vaqt oralig'ida AQShning XXRdan imoprt qilgan tovarlar xajmi 505.6 mlrd. AQSH dollarini tashkil qildi va bu o'tgan yilgi 458,5 mlrd. AQSH dollarlik ko'rsatkichga nisbatan 9,3 % (47,02 mlrd. AQSH dollari)ga o'sgan.2017 yilda AQSH tovarlarining eksport qilingan xajmi bo'yicha XXR bozori 3 o'rinni egalladi.

2017 yilda AQSH dan XXRga amalga oshirilgan xizmatlar eksporti xajmi 56 mlrd. AQSH dollariga baxolangan, shu tariqa AQSH import qilgan xizmatlar esa 17,6 mlrd. AQSH dollarini tashkil qilgan. XXR hukumati bir qator xom ashyo resurslarini ishlab chiqarishda dunyodagi yetakchi urinni saqlab qolish maqsadida, eksportga nisbatan cheklovlar jamlamasini qo'llashni davom ettirmoqda. Bular o'z aksini quyidagilar ko'rinishda namoyon etmoqda : minimal eksport narxlari, eksport kvotalari, eksportni litsenziyalanishi, eksport poshlinalari va boshqalar...Ushbu cheklovlar orqali XXR o'z manfaatlarini ko'zlagan xolda chet-elning qayta ishlovchi korxonlariga bosim o'tkazmoqda, va bu ularni ishlab chiqarish kuchlari va texnologiyalarini XXR xududiga ko'chirishiga majbur qilmoqda.

Yaqin o‘tmishda, mamlakat eksporti uning importining kuchli ta’siri ostida bo‘lib, uni talablariga xizmat qilar edi. Xitoy eksport operatsiyalari, mamlakat valyuta zahiralarini to‘ldirib borar, uning importi esa, eksport ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilar, natijada, mahsulotlarning eksport tannarxi qimmatlashib, mamlakat iqtisodiyotiga ancha qiyinchiliklar tug‘dirar edi. Hozirgi kunda, jahon bozoridagi yuqori texnologik mahsulotlariga ehtiyojning ortib borishi bilan, unga qo‘yilayotgan talab ham ortib borib, unda bir necha ilg‘or davlatlarning ushbu sohadagi raqobatbardoshlik kurashi ketmoqda. Albatta, Xitoy hozirchalik, ularga teng kelolganicha yo’q, lekin, ayrim yo‘nalishlarda, ulardan orqada ham qolayotgani yo’q. Ayniqsa, u Informasion-kommunikasion texnologiyalar (IKT), mashinasozlik, metallurgiya, elektronika, kosmik sanoati, tekstil sanoati va kimyo sanoati bo‘yicha oldinda bormoqda. Uning ilmiy-texnikaviy yutuqlaridagi o‘zgarishlar koefisienti, Jan.Koreya va Singapur davlatlari bilan solishtirganda, faqat 55% ni tashkil etmoqda.

Jadval 7.3 1.

2010-2019 yillarda XXR-AQSh savdo hajmi dinamikasi[53]

| yillar | AQShning eksporti, mlrd.doll. | Eksportning oldingi yilga nisbatan o'sishi,% da | AQShning import hajmi, mlrd.doll. | Importning oldingi yilga nisbatan o'sishi,% da | AQSh savdo balansi, mlrd.doll |
|---|---|---|---|---|---|
| 2010 | 91,9 | - | 365,0 | - | -273,0 |
| 2011 | 104,1 | 13,28 | 399,4 | 9,42 | -295,3 |
| 2012 | 110,5 | 6,15 | 425,6 | 6,56 | -315,1 |
| 2013 | 121,7 | 10,14 | 440,4 | 3,48 | -318,7 |
| 2014 | 123,6 | 1,56 | 468,5 | 6,38 | -344,9 |
| 2015 | 116,1 | -6,07 | 483,2 | 3,14 | -367,2 |
| 2016 | 115,8 | -0,26 | 462,8 | -4,22 | -347,0 |
| 2017 | 130,3 | 12,52 | 505,5 | 9,23 | -375,2 |
| 2019 | 122,7 | -0.7 | 418,5 | -3,5 | -295,5 |

AQSh ikkitomonlama investitsiyalashdan ham foyda oladi, 2016 yilda XXRning AQShga qoygan sarmoyalari hajmi 50 mlrd.doll.ni tashkil etdi. Xitoydan AQShga asosan, uskunalar va elektr mashinalari hamda xalq iste'mol tovarlari hisoblanib, uskunalar va elektr mashinalarning yillik hajmi 39,4 mlrd.doll.ni, yoki XXRning AQShga qilgan eksportini 42,6% ni tashkil etdi, xalq iste'mol tovarlari esa 12 mlrd.doll.ni va umumiy eksportning 14,3%ni tashkil etdi. Aksincha, Xitoyga AQShdan uskunalar va elektr mashinalari (11,4mlrd.doll.,umumiy importning 33,6%) import qilinadi[54].

Aytish lozimki, ikki davlatning o'zaro savdo-iqtisodiy aloqalari manfaatli hisoblanadi. Chunki, Xitoy 1-eksportyor bo'lsa, AQSh 1-importyor hisoblanadi. 2017 yilda XXRdan AQSh ga umumiy hajmi 400 mlrd.doll.lik tovarlar eksport qilingan, AQShdan Xitoyga esa, atigi 148 mlrd.doll lik tovarlar olib kirilgan. Natijada AQShning savdo balansi manfiy bo'lib, u 3,4. mlrd.doll.ni tashkil etdi. Shu munosabat bilan AQSh Prezidenti D.Tramp kelajakda ikki mamlakat orasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni Amerika hisobiga hal etishini aytdi[55].

Oxirgi 40 yil ichida Xitoy-Amerika savdosi hajmi 208 barobarga o'sdi.[56] XXR tijotay vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, XXR-AQSh savdo hajmi 1979 yildagi 2,5 mlrd.doll.dan 2016 yilga kelib 519,6 mlrd.doll.ga etdi. Ikki mamlakat orasidagi xizmatlar savdosi hajmi 2016 yilda 100 mlrd.doll.ni; ikkitomonlama o'zaro investiteiyalar hajmi 170 mlrd.doll.ni (2016 y.) tashkil etgan. AQShdagi 26% "Boying" lar va dukakli soyening 56%i xitoy boxorlarida sotilmoqda[57].

[53] Manba: U. S. International Trade Commission (USITC) https://dataweb.usitc.gov

[54] https://ria.ru/economy/20160606/1443531833.html 9 http://politeconomy.pro/archives/150 41

[55]https://ria.ru/economy/20161223/1484383141.html.http://crescofinance.ru/public/dmitriy_afanasev_ob_otnoshenniyah_ssha_i_knr

[56] **2017-02-23 13:10:41 | Russian.News.Cn**

[57] **O'sha joyda**

Xitoyning AQShga importi 2015 yilda 1,8 mln.ish o'rinlarini saqlab qolgan. Aksincha, Xitoylik turistlar AQSh ga 21 mlrd.doll. mablag' olib kirishdi (2.66 mln.kishi).Xitoydagi 90% amerikaning korxonalari daromadlidir.AQSh XXRda 67 ta invesrirsion liyihalarni amalga oshirmoqda. Hozirgi kunda ikkitomonlama aloqalar yomonlashib borayotganligini kusatish mumkin, bu holat davom etadigan bo'lsa, “savdo urushi”fa olib relish ehtimoli mavjud.

# 8-BOB: XITOY-JANUBIY SHARQIY OSIYO (JSHO) MAMLAKATLARI ORASIDAGI SAVDO-IQTISODIY ALOQALARI

## 8.1. Xitoy–JSHO mamlakatlari savdo-iqtisodiy aloqalarining rivojlanish dinamikasi

Jahon banki mutaxassislari tomonidan belgilangan iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasini ko‘rsatuvchi mezonlarga binoan, mamlakatlarni YaIM ning aholi jon oshiga to‘g‘ri kelish darajasi, ularning o‘rtacha o‘sish sur'atlari, ularni qayta ishlab chiqarish sanoatining mamlakat YaIM dagi ulushi (bu ko‘rsatkich industrial davlatlarda 20% dan ortiq bo‘lishi lozim), sanoat mahsulotlarining eksport hajmi, ularning xorijdagi sarmoyalari hajmi kabi ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yuqori bo‘lishi darkor.

Bu mamlakatlarning har birida davlat boshqaruvi bilan bozor mexanizmining hamkorligi zarurati mavjuddir. Tadqiqotlar natijasida ushbu davlatlar iqtisodiy siyosatlari tarkibida farqlar ham bo‘lishi bilan birga, ularning umumiy tomonlari ham borligi aniqlandi va ular:

iqtisodiyot taraqqiyotining mamlakat miqyosida uzoq muddatli rejalashtirilishi;

erkin bozor va xususiy tadbirkorlikning rag‘batlantirilishi;

davlatning iqtisodiyotni tartibga solishda ba'zan bevosita va maxsus shaklllarda faol foydalanishidan iboratdir.

Buning natijasida Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlarida tashqi iqtisodiy aloqalar tez rivojlanib, ularning jahon xo‘jaligidagi ahamiyatining yanada ortishiga olib keldi. Yetarli darajada katta eksport va import kvotalari hamda jahon savdosidagi ulushi ularning xalqaro mehnat taqsimotiga qanchalik chuqur kirib borganligidan dalolat beradi. Tovarlar eksport bilan bir qatorda tadbirkorlik sarmoyasining chetga olib chiqilishi ortib borib, chet elda ishlab chiqarish sohasidagi filialllar va sho‘'ba korxonalarining tarmoqlari yuzaga kelmoqda. Bevosita xorijiy investisiyalarni sarmoyaning kredit shaklida chetga olib chiqilishi bilan to‘ldirish boshlandi. Mintaqa davlatlari asta-sekin savdo bozorlari, sarmoyani qo‘llash sohalari, xalqaro mehnat taqsimoti sxemasini o‘zgartirish uchun ham jalb etilmoqdalar.

Importni o‘rnini qoplash strategiyasining dinamik fazasi o‘rtacha 12 yildan iboratdir. Sanoatlashtirishning importni o‘rnini qoplash siyosati ataylab davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishiga qaramasdan, u mamlakatlarni mustaqil iqtisodiy rivojlanishiga yetarlicha sharoit yaratmadi. Chunki, ularning iqtisodiyoti qishloq xo‘jalik va xom ashyo mahsulotlari

eksportiga yuqori darajada bog‘langan edi. Ichki bozorni iste’mol tovarlariga to‘yintirish esa, qimmatli mashinalar va uskunalar importiga bog‘liq edi. Ularning natijasida sanoat ishlab chiqarishining o‘sishiga cheklovlar qo‘yildi.

Shunday qilib, bu davlatlardagi importni o‘rnini qoplash siyosati natijalarining ba’zi bir sabablarini ko‘rib o‘tamiz va ular:

kadrlar malakasining past darajasi;

eski texnika va texnologiyalardan foydalanish;

aralash kadrlarning mehnat unumlorligining pastligi;

korxonalarning tashkiliy tarkibining bo‘shligi

ichki bozorning raqobatbardosh emasligi hisoblanadi.

Mintaqa davlatlarining tanlagan iqtisodiyotni rivojlantirishni “eksportga yo‘naltirilgan” modeli ulkan nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. O‘zining rivojlanishida iqtisodiyotni “eksportga yo‘naltirish ”da mamlakatni industriallashtirishning “Osiyocha modelini” tanlagan Janubiy Sharqiy Osiyo davlatlari 1970 yillar oxiri va 80 yillar boshida bir qadar iqtisodiy yutuqlarga erisha boshladilar.

Janubiy Sharqiy Osiyo davlatlaridagi sanoatlashtirish jarayoni XX asr oxiridagi yorqin iqtisodiy yutuqlardan biri bo‘lib, mintaqadagi iqtisodiy siyosatning shakllanishi va ishlab chiqarish munosabatlarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Ushbu davlatlarning “eksportga yo‘naltirish” siyosati ularning jahon bozoriga texnik tomondan oddiy bo‘lgan mahsulotlar bilan chiqishi orqali boshlanib, unda avval importni o‘rnini qoplash bilan shug‘ullangan sanoat tarmoqlari qatnashdi. Ular mahsulotlarining yarmidan ortiqrog‘i tekstil sanoati mahsulotlari va sanoatning ko‘p mehnat talab tarmoqlari mahsulotlarini tashkil etdi.

Jadval 8.1.1.

**JShO va Sharqiy Osiyo mamlakatlarining boshlang‘ich rivojlanish strategiyalari[58]**

| Davlatlar | Davrlar | Strategiya |
|---|---|---|
| Singapur | 1959-1965 yy. | Importni o‘rnini qoplash |
| Filippin | 1949-1968 yy. | Importni o‘rnini qoplash |
| Indoneziya | 1961-1978 yy. | Importni o‘rnini qoplash |
| Tailand | 1961-1971 yy | Importni o‘rnini qoplash |
| Malayziya | 1957-1968 yy. | Importni o‘rnini qoplash |
| Gonkong | 1965-1970 yy. | Eksportga yo‘naltirish |
| Tayvan | 1960-1970 yy. | Eksportga yo‘naltirish |
| Xitoy | 1979-1989 yy. | Importni o‘rnini qoplash va eksportga yo‘naltirish siyosati birgalikda |

[58] Л.Оленицкая .Возможности использования опыта конкурентоспособных стратегий экономического развития НИС Азии в РУз., 2006, с.14.

JShO mamlakatlari va boshqa Sharqiy Osiyoning to‘lov balansi muammolarini yechishda davlatning asosiy xarakati real jamg‘arishni ta’minlash shart-sharoiti bo‘lgan xorijiy valyutaning kafolatlangan manbaini topish bo‘lib, sanoat ishlab chiqarilishida ular importni o‘rnini qoplash kursini amalga oshirish bilan birga, uning eksportga yo‘naltirilishini ham rivojlantirishdan iborat edi.

Tahlil qilinayotgan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, importni o‘rnini qoplash strategiyasining dinamik fazasi o‘rtacha 12 yildan iboratdir. Sanoatlashtirishning importni o‘rnini qoplash siyosati ataylab davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishiga qaramasdan, u mamlakatlarni mustaqil iqtisodiy rivojlanishiga yetarlicha sharoit yaratmadi. Chunki, ularning iqtisodiyoti qishloq xo‘jalik va xom ashyo mahsulotlari eksportiga yuqori darajada bog‘langan edi. Ichki bozorni iste’mol tovarlariga to‘yintirish esa, qimmatli mashinalar va uskunalar importiga bog‘liq edi. Ularning natijasida sanoat ishlab chiqarishining o‘sishiga cheklovlar qo‘yildi.

Sanoatlashtirishning eksportga yo‘naltirilgan strategiyasiga JShO davlatlari 1960-70 yillarda, Xitoy esa 1979 yildan so‘ng o‘ta boshladilar. Ushbu strategiyani tanlashdan maqsad esa, jahon xo‘jaligi markazlarida sanoat tarkibining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘ldi. So‘ngra esa, sanoatlashtirish jarayonining chuqurlashuvi bilan mintaqa davlatlarining eksport mahsulotlari ham texnik jihatdan murakkabroq va kapital talab mahsulotlarni ishlab chiqarishga mo‘ljallangan mahsulotlardan tashkil topa boshladi. Ular orasida, keyinchalik, mintaqa davlatlari iqtisodiyotida o‘zining nufuzli o‘rnini egallagan maishiy va ishlab chiqarish (sanoat) elektronikasi, tekstil va kiyim-kechaklar alohida e’tiborga loyiqdir. Aynan shu yo‘nalishlar orqali bu davlatlar xalqaro sanoat majmuasiga kirishga muvaffaq bo‘ldilar. Ular, o‘zlarining rivojlanishida, asosan, eng rivojlangan, ilg‘or davlatlar bosib o‘tgan yo‘ldan bordilar. Bu borada Dj.Stiglis ta’kidlaganidek, “Bu davlatlar o‘z iqtisodiyotlarini rivojlanishini ba’zi bir tarmoqlarni tanlagan himoyasiga tayangan holda, boshqa chet el kompaniyalari bilan raqobatlashish uchun yetarli kuch yig‘magunga qadar rivojlantirganliklari kutilmagan holat emasdir” deydi.[59]

Mintaqa davlatlari iqtisodiyotida to‘la qonli islohotlar boshlandi. Ushbu islohotlarning asosiy elementlari bo‘lib: xorijiy qatnashuvchilar uchun moliyaviy sektorlarning ochib berilishi, offshor banklar uchun cheklovlarni bo‘shatish, rezerv talablarini pasaytirish xizmat qildi.

Shular bilan bir qatorda, davlatlarning inqirozdan chiqib ketishiga sabab va eng asosiy omil – bu xorijiy sarmoyalarni mamlakatlar iqtisodiyotiga jalb qilish bo‘ldi. Mana shu chet

[59] Stiglits J.E. Globalization and its Discontents. /L., 2002. P: 16-17.

eldan kiritilgan sarmoyalar mintaqa mamlakatlari iqtisodiyotining tarkibiy oʻzgarishlarga yuz tutishiga olib keldi.va oxir oqibatda ular iqtisodiyotini eksportga yoʻnaltirilgan siyosatga qaratdi.Mintaqa davlatlarining tanlagan iqtisodiyotni rivojlantirishni “eksportga yoʻnaltirilgan” modeli ulkan nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlari qatoriga kiruvchi Indoneziya, Respublikasi bugungi kunda mazkur mintaqa mamlakatlari orasida aholisi va YaIM ning hajmi bo’yicha Yangi industrial mamlakatlarni III-to’qiniga kiruvchi  yirik mamlakat hisoblanadi. Mazkur YaIM larni III-tolqiniga Kipr, Tunis, Turkiya va Indoneziyalar kirib, ularning iqtisodiyotlari 1960-yillargacha agrar bo’lib kelgan[60].  Mazkur mamlakatlarga tegishli bo’ish mezonlaru BMT tomonidan uning metodikasiga ko’ra quyidagilarni o’z ichiga oladi:

- YaIM ning aholi jon boshiga to’g’ri kelish miqdorini mavjudligi;
- Ular o’rtacha yillik o’sish sur’atlari bo’yicha belgilangan miqdorni mavjudligi;
- Ular YaIM dagi qayta ishlash sanoatining ulushi 20%dan kam bo’lmasligi;
- Sanoat maxsulotlari eksportining xajmi va ularning umumiy eksportdagi ulushi;
- Xorijiydagi togridan togri investiciyalarning hajmi.

Biz tahlil uchun 2007-2014-yillar mobaynidagi Indineziyaning rivojlanish tendensiyalarini koʻrib chiqamiz. Bu davrni tahlil uchun olishimizning sababi shundaki, mazkur  mintaqa mamlakatlari 1997-1998 yillarda yuz bergan Osiyo moliyaviy inqirozining salbiy oqibatlarini muvaffaqiyatli barataraf etib, 2008 yildan avj ola boshlagan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida  ham milliy iqtisodiyotlarini modernizatsiyalash dasturini samarali amalga oshira borib, soʻnggi yillarda nisbatan, barqaror oʻsish darajasiga erishdilar. Ushbu davlatlar hukumatlari tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar majmui Oʻzbekiston uchun ham hozirgi globallashuv sharoitida milliy iqtisodiyotimizni modernizatsiyalash yoʻnalishlarini belgilashda qoʻllanilishi mumkin, deb hisoblaymiz.

2007-2014 yillarda iqtisodiy oʻsishning barqaror va muvozanatlashgan sur’atini ta’minlash boʻyicha koʻrilgan choralar natijasida yuqorida sanab oʻtilgan davlatlar makroiqtisodiy rivojlanishidagi mavjud ijobiy tendensiyalar sezilarli darajada mustahkamlandi. Ushbu yillar davomida yalpi ichki mahsulot oʻsishining oshib borishi ta’minlandi, bu koʻrsatgich turli yillarda tebranib turgan boʻlsa-da, yiliga oʻrtacha 3,2 foizdan (Tailand)  7,7 foizgacha (Kambodja) kuzatildi, agar 2007-2014 yillar davomida yillik eng

[60] Е.Ф.Авдокушин. Международные экономические отношения, учебник,Юристь, Москва, 305 С.

yuqori ko‘rsatgichni ko‘radigan bo‘lsak, u 2007 yilda Kambodjada 13,4 va Singapurda 2010 yilda 14,8 foizni tashqil etdi. Eng past ko‘rsatgich bu mamlakatlarda 2009 yilda kuzatildi, sababi 2007 yilda boshlangan jahon iqtisodiy moliyaviy inqirozining oqibatidadir. 2007-2018 yillarda ushbu ko‘rsatgichlar sezilarli darajada pasaydi.

Ma’lumki, Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlarini iqtisodiy rivojlanish modeli, asosan, eksportga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. 2018-yilda eksportning YaIMdagi ulushi Indoneziyada - 24,6%, Filippinda - 34,4%, Tailandda - 71,9%, Malayziyada - 97,3%, Singapurda - 208,3% ni tashkil etdi.

Jadval 8.1.2.

**Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlarining 2018 yildagi tashqi sado hajmi (mlrd.AQSh doll.)**

| Mamlakatlar va mintaqa | Umumiy savdo aylanmasi | Eksport | Import |
|---|---|---|---|
| UMUMIY | 4 303 038 237 | 2 342 747 940 | 1 960 290 297 |
| ASEAN | 480 394 105 | 272 072 412 | 208 321 639 |
| Indoneziya | 63 580 941 | 39 059 495 | 24 521 446 |
| Malayziya | 102 020 546 | 46 359 122 | 55 661 424 |
| Fillipin | 44 456 657 | 23 474 425 | 20 982 232 |
| Singapur | 79 740 866 | 48 914 504 | 30 826 362 |
| Tailand | 72 673 161 | 34 296 258 | 38 376 903 |
| V'etnam | 83 639 763 | 6 376 325 | 19 903 437 |
| Laos | 2 742 918 | 1 721 918 | 1 021 000 |
| Myanma | 8 159 792 | 7 349 322 | 2 810 470 |

Malayziya iqtisodiy taraqqiyotida uning byudjet-soliq siyosati, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishga qaratilgan aniq strategiyasi alohida o‘rin tutadi. Mutaxassislarning fikricha, mamlakatda joriy etilgan imtiyozli soliq siyosati og‘ir sanoat, kichik va o‘rta korxonalarning oyoqqa turib olishi uchun keng imkoniyat yaratmoqda. Yangidan tashkil etilgan korxonalar 5-10 yil muddatga soliqdan to‘la yoki qisman ozod qilinadi. Ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo‘naltirilgan sarmoyalardan ham soliq olinmaydi. Demak, soliq siyosati bilan bog‘liq imtiyozlar bir tomondan yakka tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga, mablag‘ va sarmoya kiritish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIMning o‘sish sur’ati ushbu 2007-2014 yillarda nobarqaror bo‘lib, yillik maksimal darajaga Singapurda 2010 yilda 14,5 foizga erishildi, minimal daraja Tailandda manfiy 2,2 foiz qayd etildi (6-jadval). Oxirgi yildagi ko‘rsatgichlarga e’tibor qilinsa, Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari ichida YaIMning aholi jon boshidagi

ulushining eng yuqori ko‘rsatgichi Singapur 2014-yilda (53129,9 $) va eng past ko‘rsatgichni Myanmada (985,1$) ko‘rish mumkin.

Endi, Malayziya iqtisodiyoti tarmoqlarining jahon iqtisodiyotidagi o‘rniga kelsak, buni quyidagi jadval 8.1.3.dan yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Jadval 8.1.3.

Malayziya iqtisodiyoti tarmoqlarining 1970-2018-yillardagi jahon iqtisodiyotidagi o‘rni

| 1970-2018- yillarda Malayziyaning jahon iqtisodiyotidagi o’rni | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Ko’rsatkichlar | 1970 | 1980 | 1990 | 2000 | 2010 | 2018 |
| YaIM | 60 | 49 | 48 | 42 | 36 | 36 |
| Qishloq xo’jaligi | 43 | 30 | 37 | 28 | 21 | 27 |
| sanoat | 60 | 45 | 40 | 29 | 27 | 26 |

Ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida 2010 yilda Tailandda sanoat 14,5% ga, Singapurda 25% ga hamda Malayziyada 7,5% ga o‘sdiYaIMda Sanoatning ulushi 2010 yilda Malayziyada 46 foizni, Tailandda 47 foizni, Indoneziyadada 44,1 foizni, Vetnamda 40 foizni tashqil etdi. Qolgan mamlakatlarda sanoatning ulushi unchalik yuqori emas, Myanmada 20 foiz.

Shu bilan birga, Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari ichida Tailand, Malayziya va Singapurda aholi bandligini ta’minlash muammosiga katta e’tibor qaratilmoqda, korxonalarni modernizatsiya qilish va texnik jihatdan qayta jihozlash jarayoni samarali olib borilishi natijasida mamlakatda ishsizlik darajasi tahlil qilinayotgan yillarda bir maromda ushlab turildi, hatto inqiroz paytida ham ishsizlik sur’ati o‘smadi.

Ulardan, eng past ishsizlik sur’ati Tailandda 2010 yilda kuzatildi, ya’ni 0,5%. Filippin va Indoneziyada esa ishsizlik darajasi nisbatan yuqori bo‘lib, eng yuqori sur’at 2005 yilda kuzatilgan, mos ravishda 11,4% va 11,2%. Ammo, ushbu mamlakatlarda ham so‘nggi yillarda ishsizlar soni kamaymoqda.

Inflyatsiya sur’ati ushbu mintaqada ijobiy tendensiyaga ega bo‘lib, Singapur va Malayziyada o‘rtacha 2,7%ni tashqil etadi. Bu borada yuqoridagi mamlakatlar ichida Laos, Indoneziya va Vetnamda ahvol bir muncha yomonrok, inflatsiya darajasi nisbatan yuqori bo‘lib, mos ravishda o‘rtacha 5,6; 7,8 va 11,6% ni tashqil etgan. Eng yuqori inflyatsiya sur’ati 2008-yilda Vetnamda kuzatilgan bo‘lib, u 23,1%ni tashqil etgan.

Jadval 8.1.4.

| Malayziya iqtisodiyotining tarkibi ,%da (1970-2018) | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Tarmoq | 1970 | 1980 | 1990 | 2000 | 2010 | 2018 |
| Qishloq xo'jaligi | 29.8 | 23.0 | 15.0 | 8.3 | 10.2 | 7.6 |
| sanoat | 24.4 | 37.2 | 37.7 | 43.0 | 37.4 | 33.9 |
| qurilish | 3.9 | 4.6 | 3.8 | 3.8 | 3.5 | 4.9 |
| savdo | 12.4 | 9.9 | 13.4 | 13.0 | 16.5 | 20.1 |
| transport | 5.4 | 4.9 | 5.8 | 6.8 | 8.4 | 9.3 |
| xizmatlar | 24.1 | 20.4 | 24.3 | 25.1 | 24.0 | 24.2 |

Mamlakat to‘lov balansining barqarorligi tovarlar va xizmatlar eksportining yuqori sur’ati orqali ta’minladi. Bu sur’at 2005-2011 yillarda eng yuqori darajada Singapur va Tailandda mos ravishda 2011 yilda 409,2 mlrd.$ va 244,4 mlrd.$ ni tashqil qilgan. Eng past ko‘rsatgich Filippin va Myanmada mos ravishda 54,2 mlrd.$ va 57,3 mlrd.$ teng bo‘ldi. Inqirozdan keyingi yillar barcha mamlakatlarda o‘sish tendensiyasi ro‘y berdi.

Bugungi kunda Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari ilmtalab va yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportyoriga aylanmoqda hamda ilmtalab mahsulotlar bozorida ularning maqomi oshdi. Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining elektronika eksporti butun Osiyo mamlakatlari YaIMning 10%ni tashkil etganini statistikadan ko‘rish mumkin. Ushbu eksportning 50-70% ni bu mamlakatlarda ishlab chiqarilgan kompyuter va yarim o‘tkazgichlar tashqil etadi[61].

Hozirgi davrda Singapur, Malayziya va Tailand yuqori texnologiyali mahsulotlar eksporti bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatgichlarga erishdi, o‘z navbatida dunyo kompyuter jihozlari eksportining 10% Singapurga to‘g‘ri keladi. Tailand esa g‘arb korporatsiyalari talabi asosida dasturiy ta’minot yaratadi va bu bo‘yicha birinchi o‘rinni egallaydi.

## 8.2.Xitoy-Singapur tashqi savdo aloqalarining rivojlanish xususiyatlari

**Singapur -** JShO mamlakatlari orasida o’zining YaIMning aholi jon boshiga to‘g‘ri kelishi va asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari bo’yicha yoqori darajalarga ega bo’lgan hamda mazkur mamlakatlarni sezilarli darajada ortda qoldirgan mamlakatdir. Respublika o’z mustaqilligining birinchi 10 yilligida, YaIM hajmining o‘sish ko’rsatkichi 3 baravardan oshgan va 2016 yilga kelib, u 296.6 mlrd.d.ni tashkil etmoqda. Uning o‘rtacha o‘sish sur’ati 12%ni tashkil qilgan bo’lib, asosan yuqori sur’atlarda uning sanoat mahsulotlarini qayta ishlash sohasi

[61] Asian Development Outlook 2005: Economic trends and prospects in developing Asia//URL: http://www.adb.org/Documents/Books/Ado/2005/se-asia.asp

rivojlangan, (o‘rtacha yillik o’sish sur’ati 17%ni tashkil etgan). Ammo, oxirgi yillarda mazkur ko’rsatkich sekinlashib, 2016 yil ma’lumotiga ko’ra, u 1,7% ni tashkil etgan.

Singapurning aholi jon boshiga to’g’ri kelgan daromadi - 51,030 AQSh doll.ni tashkil qiladi (2016 y.). Osiyoda bu ko‘rsatkich bo‘yicha faqatgina, Yaponiyadan ortda qolmoqda. 1990-yillarda Singapurning YaIMning o‘sish sur’atlari yiliga o’rtacha 5%ni tashkil qildi, 2007-yilda esa, bu ko’rsatkich atigi 2.7%dan iborat bo’ld, bunday keskin pasayishning asosiy sababi - jahondagi iqtisodiy pasayish bo’lib, shuningdek, ayrim yuqori texnologiyalarga bo‘lgan talabning pasayishi ham kuzatildi, chunki, Singapurning elektronika sanoati uning umumiy sanoat ishlab chiqarishining salmoqli qismini egallaydi (uning hissasiga qayta ishlashning yarmi, iqtisodiyotdagi bandlarning 35%i va eksportining 60%i to‘g‘ri keladi).

Singapur iqtisodiyotining 2017-yil holatidagi tarkibi quyidagicha bo’lib, ular: qishloq xo‘jaligida - 0.2% atrofida; sanoatda - 38%; moliya-bank xizmatida – 42%; tranport va kommunikatsiya hissasiga – 19,8% to‘g‘ri keladi. Singapurda 3,5mingdan ortiq ilg‘or kompaniyalarning bo‘limlari, 120 dan ortiq TMKlar vakolatxonalari mavjuddir. Sigapur neftni qayta ishlash bo‘yicha dunyoda X’yuston va Rotterdamdan so‘ng, 3 - o‘rinda turadi (taxminan sutkasiga 160 ming tonna), yarim o‘tkazgichlar bo‘yicha dunyoda 4-o‘rinda turadi va komp’yuter disketi bo‘yicha yirik ishlab chiqaruvchi hisoblanadi (uning jahondagi ulushi - 60%).

Singapurda inflyatsiya darajasi - 0.8%ni, mamlakatning pul zahirasi 72.0 mlrd. doll.ni, rasmiy chet el valyuta zahirasi 145.0 mlrd. doll.ni (dunyoda jon boshiga to‘g‘ri kelishi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlardan biri), davlat byudjetining profisiti 8 mlrd. doll.ni tashkil etadi harajatlar – 19.5; daromadlar – 30 mlrd).

Iqtisodiyotda moliyaviy xizmat sektori alohida o‘rin egallaydi, uning hissasiga mamlakat YaIMning 11%i to‘g‘ri keladi. Singapur valyuta birjasidagi yillik aylanmasi faqatgina, London, Nyu–York va Tokiodan ortda qoladi. Singapur valyuta birjasida yillik valyuta operatsiyalari hajmi 25mlrd.AQSh doll.dan oshadi. Mamlakatning davlat tashqi qarzi 10,5%ni tashkil etadi.

Singapur JShO mamlakatlarini yalpi mahxsulotlarida jon boshiga to‘g‘ri kelishi hisobida iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichi bo‘yicha sezilarli darajada ortda qoldiradi. Respublikaning birinchi 10 yilligida YaIMni o‘sishi 3 baravardan oshgan. Uning o‘rtacha o‘sish sur’ati 12% tashkil qilgan. Asosan yuqori sura’tlarda sanoat rivojlangan, birinchi navbatlda uning qayta ishlash sanoati (o‘rtacha 17%).

Singapur aholisi soni 6 mln.k.dan (2018) iborat.

O’sish sur’ati – 3.2%

YaIM – 323 mlrd.doll. (2017)

Inflyatsiya darajasi 0,6%

Ishsizlik darajasi – 2,2%

Eksport hajmi 372,9 mlrd.doll.

Import hajmi – 327,4 mlrd.doll.

Davlat qarzi – 110,9% YaIM ga nisbatani

Singapur 21 asrning “katta ajdaho”lari bilan bir safda ucha oladigan, o’zining kelajagini oldindan ko’ra oladigan davlat sifatida strategiyasini tashkil etdi. Singapur o’z iqtisodiyotini modernizatsiyalashda zamonaviy davlatchilik va boshqaruv tajribalarini Xitoy bilan o’rtoqlasha oladigan “kichik ajdaho”dan “katta ajdaho” aylandi. Xayratlanarli hech gap yo’qki, Singapur nafaqat Xitoy bilan, shu bilan birga Osiyo va Tinch okeaniya hududida ham o„zaro manfaatli savdo aloqalarini rivojlantira oladigan etakchi sifatida o’z mavqeiga ega bo’ldi. Bunga Singapur va Xitoy o’rtasida erkin savdo kelishuvining imzolanishi barcha munosabatlarga yana bir karra yakun yasadi.

Diagramma 8.1.1.




Xitoy dunyodagi eng yirik arzon ishchi kuchi resurslariga egaligi bilan Singapur uchun qimmat ishchi kuchlari va er mulk ob’ektlarining o’rnini bosishda muqobil jozibadorlik ahamiyat kasb etadi. Shu o’rinda, Singapur engil sanoatida band bo’lgan intensiv mehnat resurslarini Xitoyga jo’natish ushbu munosabatlarning mantiqiy davomchisidir. Shu bilan birga Singapur o’zidagi etarli bo’lmagan ishchi kuchlarini o’rnini to’ldirishda Xitoyning umumiy bilimga ega bo’lgan ishchi kuchlaridan foydalanadi.

Statistik ma'lumotlaga qaraganda Singapurda yuqori texnikali mahsulotlar eksporti 2009-2011 yillar oraligida intensiv ravishda 1,38 martaga (77,3 mlrd.$ dan 106,57 mlrd.$ gacha)[62] o'sdi. Malayziya va Tailandda ham shunday tendensiya kuzatildi. Inqiroz davrida ba'zi mamlakatlarda import hajmi o'sib, inqirozdan so'ng pasayish yuz berdi. Shu jumladan, Indoneziyada ham.

Rasm 8.1.2.




Rasm 8.1.3.




Rasm 8.1.4.

[62] Фам То Нга Страны АСЕАНЖ ориентиры инновационного пути развития//Вестник института экономики РАН 2008.-№3. С.91




Rasm 8.1.5..




Tashqi savdo balansini tahlil qilar ekanmiz, ushbu mamlakatlarning bu boradagi ko‘rsatgichi turlicha bo‘lib kelganligiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, Laos, Vetnam va Filippinda bu ko‘rsatgich 3 yil davomida barqaror salbiy bo‘lib kelgan. Tailandda esa 2005 yilda eksport importdan kam bo‘lgan (2,601  mln. AQSh dollari), Filippinda u fakat salbiy tomonga o‘sib borgan va 2010 yilga kelib 6,797  mln. AQSh dollariga yetgan

Singapurda makroiqtisodiy barqarorlik, soliq siyosatining erkinlashtirilishi, moliya-bank tizimida islohotlarning yetarli darajada chuqurlashtirilganligi xo‘jalik yurituvchi subektlarning ishlab chiqarish faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi va iqtisodiyotdagi moliyaviy mablag‘larning yanada samarali taqsimlanishiga ko‘maklashdi.

2005-2011-yillar oralig‘ida Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining davlat qarzini tahlil kilar ekanmiz, bevosita eng yuqori darajani Singapurda ko‘rishimiz mumkin, o‘rtacha YaIMning 99,8%ni tashqil etib, oxirgi yillarda bu ko‘rsatgich oshib bormoqda. Eng past ko‘rsatgich Indoneziyada mos ravishda o‘rtacha 33,6%ni tashqil etadi. Jadvaldan ko’rinib turibdiki, Indoneziyaning tashqi qarzi, hukumatning ko’rilgan chora tadbirlari natijasida pasayib bormoqda.

2011-yilgi ma’lumotlarga qaraganda, Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining bank sohasidagi eng yirik chet el kreditorlari Yevropa va Amerika banklari hisoblanadi. Ushbu mintaqa mamlakatlari ichida Tailand banklari birinchi o‘rinni egallaydi. Oxirgi yilgi statistik ma’lumotlarga qaraganda so‘nggi uch yil ichida to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalari asosan Singapur banklariga yo‘naltirilgan.

YaIMdan ITTKIga ajratmalar bo‘yicha yetakchi mamlakatlar quyidagilardir: Singapur, u rivojlangan mamlakatlar kabi ilmni moliyalashtirdi – 2,36%, Tailand – 0,24%, Malayziya – 0,63%. Bu qiyoslash faqatgina ASEANning 3 ta kuchli davlatlari orasidan olindi.

Agar, mintaqaning boshqa mamlakatlari bilan solishtirilsa, katta darajadagi nomutanosiblik kuzatiladi. Rivojlangan davlatlar kabi ASEAN mamlakatlari ham ITTKIni moliyalashtirish xususiy sektor hisobidan amalga oshiriladi. Ushbu ko‘rsatgich bo‘yicha yuqori ko‘rsatgichni Malayziya – 71%, Singapur – 58,8% va Tailand – 48,6%da kuzatishimiz mumkin. Bu jahon innovatsion rivojlanishning asosiy tendensiyalariga mos keladi.

Oxirgi yillarda Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining ilm-texnik salohiyati sezilarli darajada rivojlandi. 2009-2011-yillarda Malayziya va Tailandda tadqiqotlar ko‘lami ikki martaga oshdi. Ushbu ikki mamlakatning ilmiy salohiyati asosan universitetlarda, Singapurniki esa tadbirkorlik sohasida namoyon bo‘ladi.

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ASEAN ning 10 ta yirik iqtisodiy liderlari orasida Singapurda yuqori texnologiyali mahsulotlar eksporti intensiv ravishdv kupaygan: 2008-2011 yillar orasida 1,38 martaga (77,3 mlrd.AQSh doll.dan 106,57 mlrd.AQSh doll.gacha). Tailand va Malayziyada ham bu ko‘rsatgich o‘sgan. Filippinda esa eksport pasaygan, Indoneziyada esa sezilarli darajada o‘zgarmagan.

Qisqacha xulosa qiladigan bo‘lsak, Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining rivojlanish darajasi bir xil emas, ularning ichida Singapur, Malayziya, Filippin, Indoneziya va Tailand o‘tgan asrdayoq jahon xo‘jaligida o‘z o‘rnini topa olishdi. Vetnam, Laos, Kambodja va Myanma ham keyingi yillarda o‘z hukumatlari olib borgan islohotlar samarasi o‘laroq, bir qator yutuqlarga ega bo‘lishdi, buni yuqorida keltirilgan jadvallardagi ma’lumotlar ham isbotlab turibdi

# 9-BOB: XITOY–ROSSIYA FEDERATSIYASI SAVDO-IQTISODIY ALOQALARINING RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI

**Darsning maqsadi:** Xitoy–Rossiya savdo-iqtisodiy aloqalarining rivojlanish xususiyatlarini tahlik etish asosida ikki qo‘shni mamlakatlar orasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarining asosiy yo‘nalishlarini o‘rganib chiqishdan iborat

**Tayanch iboralar:** XXRning asosiy savdo hamkorlari, Xitoy-Rossiya iqtisodiy munosabatlari, bojxona xizmatlari, tovar aylanmasi, eksport va import.

## 9.1. Xitoy–Rossiya savdo-iqtisodiy aloqalarining rivojlanish xususiyatlari

Ma’lumki, Xitoy-Rossiya iqtisodiy munosabatlari uzoq davrni o’z ichiga olib, uning tarixi bir necha asrlarga kelib taqaladi. Ikki davlat o’rtasidagi iqtisodiy hamkorlik ularning siyosiy holatlariga bog’liq bo’lib kelgan, aynan, shuning uchun ham, mamlakatlar orasidagi iqtisodiy munosabatlarning asosiy elementi bo’lgan savdo sohasida mazkur davrlar mobaynida yo’qori darajadagi gurkirab o’sishlar bilan birga, pasayishlar ham sodir bo’lib kelgan.

XXI asrning birinchi o’n yilligida Xitoy-Rossiya savdo aloqalarining yo’qori darajada rivojlanganligini statistic ma’lumotlar orqali ko’rish mumkin bo’ladi, xususan, 1998-2007 yillarda ikki mamlakat o’rtasidagi tovar aylanmasi 11 barobarga o’sdi.

Rossiya Federal Bojxona xizmati ma’lumotiga ko’ra, 2016 yilda Xitoy-Rossiya $66,1 mlrd.doll.ni tashkil etib, unda savdo balansi salbiy holatni ko’rsatdi, ya’ni, eksport $28 mlrd,ni, import esa, - $38,1 mlrd.iborat bo’ldi (2015 yilda mos holda, $63,6 mlrd.ni, $28,6 va $35,9 mlrd.ni tashlik etgan).

Rossiyaning Xitoyga eksportining yarmidan ko’pi mineral yoqilg’i, neft va neft mahsulotlariga (60,7%) to’g’ri keladi. Undan keyin, yog’och va yog’och mahsulotlari (9,4%), rangli metallar (9%), baliq va dengiz mahsulotlari (3,5%), kimyo mahsulotlari (3,3%)ga Xitoyga eksport qilinadi.

Aksincha, XXR dan Rossiyaga asosiy import mahsulotlari mashina va uskunalar (35,9%), одежда (13,7%), kimyo sanoati mahsulotlari (9,1%), mo’yna va teri mahsulotlari (5,6%), oyoq kiyim (5,3%) va mebel (3%) dan iborat. Agarda mazkur mamlakatlarning ikkitomonlama tovar aylanmasini kuzatadigan bo’lsak, Xitoy 2010-yildan boshlab, Rossiyaning asosiy savdo hamkorlari ro’yxatidan joy olganligini ko’rishimiz mumkin.

Buni isboti sifatida ularning 2017 yildagi o’zaro tovar aylanmasini (choraklar kesimida) keltiramiz.

Jadval 9.1.1.

**Rossiya va Xitoy o'zaro tovar aylanmasining 2017 yildagi holati (choraklar kesimida)**63

| Davr | tovar aylanmasi, mln.doll. | | | Rossiyaning Xitoyga eksporti, mln.doll. | | | XXRdan Rossiyaning importi, mln.doll. | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | O'tgan davrda | O'tgan yildagi huddi shu davrda | O'sish, %da | O'tgan davrda | O'tgan yildagi huddi shu davrda | O'sish, %da | O'tgan davrda | O'tgan yildagi huddi shu davrda | O'sish, %da |
| 1 - chorak | 18101,15 | 14121,56 | +28,2 | 9662,17 | 7051,58 | +37,0 | 8438,99 | 7069,97 | +19,4 |
| 2-chorak | 21701,67 | 17680,25 | +22,7 | 10616,63 | 8532,95 | +24,4 | 11085,04 | 9147,31 | +21,2 |
| 3 – chorak | 21905,89 | 18553,89 | +18,1 | 9746,94 | 7592,82 | +28,4 | 12158,94 | 10961,07 | +10,9 |
| 4 – chorak | 22717,45 | 19421,41 | +6,97 | 11079,33 | 8879,8 | +24,77 | 11638,11 | 10541,61 | +10,40 |

XXRning Rossiya tashqi savdosidagi ulushi esa, 2015 yildagi 12,1% dan 2016 yilga kelib, -14,1 % ni tashkil etdi. 2010 yildan boshlab, Xitoy Rossiyaning yirik hamkoriga aylanib, u 2015 yildagi 16-o'rindan 2017 yilga kelib, 12-o'rinda chiqdi.

Xitoy-Rossiya savdo aloqalari 2017 yilda boshqa Xitoyning asosiy hamkorlari AQSh, EI, ASEAN, Yaponiya va Koreya Respublikasi qatorida o'zining yaxshi tiklanish dinamikasini ko'rsatdi. Xitoy-Rossiyaikkitomonlama tovar aylanmasining o'sish sur'ati Xitoy tashqi savdosi hajmini osish sur'atidan oshib ketib, XXR Bojxona statistikasi ma'lumotiga ko'ra, 2017 yildagi Xitoy tashqi savdi aylanmasi 11,4% ga (4 104,47 mlrd. doll.), shu jumladan, eksport -7,9%ga (2 263,49 mlrd. doll.), import esa, 15,9 (1 840,98 mlrd. doll.)ga o'sdi.

Shu bilan bigra, Xitoy-Rossiya savdo-iqtisodiy aloqalarda bir qator jiddiy tavakallik omillari ham saqlanib qolmoqda, xususan, global darajadagi tovar-xom-ashyo va valyuta-moliya bozorlarining volatilligi hamda Rossiyaga nisbatan G'arb davlatlari tomonidan o'rnatilgan sanksiyalarning mavjudligi, ikki mamlakatlar iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlarning zarurligi hisoblanadi.

## 9.2. Ikki Xitoy–Rossiya qo'shni mamlakatlar orasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarining asosiy yo'nalishlari

Xitoy-Rossiya savdo aloqalari 2017 yilda boshqa Xitoyning asosiy hamkorlari AQSh, EI, ASEAN, Yaponiya va Koreya Respublikasi qatorida o'zining yaxshi tiklanish dinamikasini ko'rsatdi. Xitoy-Rossiyaikkitomonlama tovar aylanmasining o'sish sur'ati Xitoy tashqi savdosi hajmini osish sur'atidan oshib ketib, XXR Bojxona statistikasi ma'lumotiga ko'ra, 2017 yildagi

63 XXR Bojxona boshqarmasi ma'lumotlari asosida

Xitoy tashqi savdi aylanmasi 11,4% ga (4 104,47 mlrd.doll.), shu jumladan, eksport -7,9%ga (2 263,49mlrd.doll.), import esa, 15,9 (1 840,98 mlrd.doll.)ga o'sdi.

Shu bilan bigra, Xitoy-Rossiya savdo-iqtisodiy aloqalarda bir qator jiddiy tavakallik omillari ham saqlanib qolmoqda, xususan, global darajadagi tovar-xom-ashyo va valyuta-moliya bozorlarining volatilligi hamda Rossiyaga nisbatan G'arb davlatlari tomonidan o'rnatilgan sanksiyalarning mavjudligi, ikki mamlakatlar iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlarning zarurligi hisoblanadi. 64 Endi, Rossiyaning Xitoyga eksport qilinadigan mahsulotlariga e'tibor qaratamiz va ularni Jadval 9.2.1..orqali ko'rib chiqamiz.

Jadval 9.2.1.

2017–yildagi Rossiyaning Xitoyga eksport qilingan asosiy tovarlari[65]

| Mahsulotlar turlari | 2017 y. | | 2016 y.ning o'sha davriga nisbatan o'zgarishi, %da |
|---|---|---|---|
| | Eksport hajmi, mln.doll. | Umumiy eksportdagi ulushi, %da | |
| Mineral yoqilg'i, neft, neft mahsulotlari, shu jimladan: | 27 267,42 | 66,2 | 43,5 |
| Xom neft (59,7 mln.t, +13,76%) | 23 722,73 | 57,58 | 40,3 |
| Yoqilg'i artish materiallari | 68,22 | 0,16 | -76,0 |
| Boshqa artish yog'lari | 34,18 | 0,08 | -4,35 |
| elektroenergiya | 139,38 | 0,33 | -10,55 |
| Yog'och, undan ishlab chiqarilgan mahsulotlar | 4 472,05 | 10,85 | 21,5 |
| Qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlari | 2 110,15 | 5,12 | 6,4 |
| Rangli metallar, jumladan: | 1 861,09 | 4,52 | -30,0 |
| Nikel va undan ishlab chiqarilgan mahsulotlar | 1 293,56 | 3,14 | -39,0 |
| Mis va undan ishlab chiqarilgan mahsulotlar | 427,54 | 1,04 | -4,1 |
| Alyuminiy va undan ishlab chiqarilgan mahsulotlar | 70,3 | 0,17 | 31,7 |
| Baliq, molyuskalar,qisqichbaqasimonlar | 1 435,59 | 3,48 | 5,6 |
| Rudalar, shlaklar, kul | 1 265,76 | 3,07 | 41,5 |
| Kimyo tovarlari, jumladan: | 1 081,15 | 2,62 | 55,8 |
| Organik kimyo birikmalari | 230,81 | 0,56 | 44,8 |
| Kauchuk va rezina mahsulotlari | 314,17 | 0,76 | 56,6 |
| Plastmassalar va undan ishlab chiqarilgan mahsulotlar | 303,61 | 0,73 | 66,7 |
| Qog'oz massasi, sellyuloza | 887,47 | 2,15 | 13,2 |
| Mashina va uskunalar, jumladan: | 765,71 | 1,86 | -13,2 |
| Energetik,texnologik va boshqa uskunalar, stanoklar, nasoslar va b. | 366,51 | 0,88 | -13,1 |

64 Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республикив 2017 году, Пекин, 2018 г.va XXR Bojxona statistikasi ma'lumotlari.

[65] Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республикив 2017 году, Пекин, 2018 г.va XXR Bojxona statistikasi ma'lumotlari

| | | | |
|---|---|---|---|
| Elektr mashinalari va uskunalari, yozish apparatlari | 80,46 | 0,19 | -31,4 |
| Uchish apparatlari | 130,91 | 0,32 | -8,8 |
| Optik va tibbiyot vositalari | 173,66 | 0,42 | -10,7 |
| O'g'itlar | 459,06 | 1,11 | -38,1 |
| Qimmatbaho toshlar va metallar | 358,23 | 0,87 | 25,6 |
| Qog'oz va karton mahsulotlari | 103,93 | 0,25 | 13,9 |
| Qora metallar | 97,50 | 0,23 | 248,8 |
| Mineral mahsulotlari | 95,39 | 0,23 | -0,3 |
| Qora metallardan mahsulotlar | 11,34 | 0,03 | -90,9 |

Endi, Rossiyaning Xitoydan import qilinadigan mahsulotlariga e'tibor qaratamiz va ularni Jadval 9.2.2..orqali ko'rib chiqamiz.

Jadval 9.2.2.

**2017–yildagi Rossiyaning Xitoydan import qilingan asosiy tovarlari[66]**

| Mahsulotlar turlari | 2017 y. | | 2016 y.ning o'sha davriga nisbatan o'zgarishi, %da |
|---|---|---|---|
| | Import hajmi, Mln.doll. | Umumiy importdagi ulushi,, % da | |
| Mashina va uskunalar, jumladan: | 19 082,26 | 44,48 | 19,8 |
| Energetik,texnologik va boshqa uskunalar, stanoklar, nasoslar va b. | 8 687,0 | 20,25 | 11,8 |
| Elektr mashinalari va uskunalari, yozish apparatlari | 7 429,34 | 17,3 | 36,6 |
| Avtomobillar, traktorlar ca boshqa transport vositalari | 1 638,88 | 3,82 | 30,8 |
| Optik va boshqa tibbiyot vositalari | 1 081,05 | 2,52 | 32,6 |
| Kimyo tovarlari, jumladan: | 3 640,24 | 8,48 | 15,9 |
| Plastmassalar va undan ishlab chiqarilgan mahsulotlar | 1 243,5 | 2,89 | 8,2 |
| Organik kimyo birikmalari | 933,64 | 2,17 | 27,7 |
| Kimyoviy iplar | 288,2 | 0,67 | -10,1 |
| Noorganik kimyo mahsulotlari | 244,92 | 0,57 | 17,8 |
| Mo'yna, mex xom ashyosi mahsulotlari | 2 863,26 | 6,67 | 11,5 |
| Tekstil kiyimlar | 2 457,77 | 5,73 | 24,6 |
| Oyoq kiyim | 2 112,50 | 4,92 | 10,9 |
| Trikotajdan kiyimlar | 1 661,27 | 3,87 | -10,2 |
| Qora metallardan mahsulotlar | 1 076,56 | 2,51 | -15,2 |
| Soirt anjomlari va o'yinchoqlar | 944,44 | 2,20 | 54,2 |
| Mabel, matraslar, yorug'lik asboblari | 921,37 | 2,15 | 9,8 |
| Qora metallar | 630,43 | 1,47 | 43,9 |
| Turli tayyor tekstil mahsulotlari (ko'rpa qoplamalari, pardalar, to'shak yopg'ichlar) | 549,08 | 1,28 | -15,5 |
| Sabzavotlar, no'xot, loviya va boshq. | 411,66 | 0,96 | 11,9 |
| Oshxona asboblari | 388,87 | 0,90 | 30,4 |

66 Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республикив 2017 году, Пекин, 2018 г.va XXR Bojxona statistikasi ma'lumotlari

| | | | |
|---|---|---|---|
| Qimmat bo'lmagam toshdan ishlangan mahsulotlar | 388,41 | 0,90 | 23,9 |
| mevalar | 378,95 | 0,88 | -5,7 |
| Teri mahsulotlari | 355,46 | 0,83 | -2,9 |
| Alyuminiy va undan ishlab chiqarilgan mahsulotlar | 326,48 | 0,76 | 19,8 |
| Sabzavot, meva va yong'oq mahsulotlari | 304,35 | 0,71 | -9,6 |
| Sement, gips va toshdan ishlab chiqarilgan mahsulotlar | 293,0 | 0,68 | 41,7 |
| Tekstil materiallari | 250,36 | 0,58 | 4,8 |
| Mineral yoqilg'i, neft mahsulotlari | 244,15 | 0,57 | 54,5 |
| Keramika mahsulotlari | 240,89 | 0,56 | 51,8 |
| Qog'oz va karton mahsulotlari | 230,95 | 0,54 | 11,75 |
| Go'shtdan tayyor oziq-ovqat mahsulotlari | 220,89 | 0,51 | 5,1 |
| Shisha va undan tayyorlangan mahsulotlar | 217,77 | 0,50 | 10,9 |
| Baliq, molyuskalar,qisqichbaqasimonlar | 214,25 | 0,50 | 1,75 |
| Trikotaj matolar | 174,16 | 0,41 | -6,2 |
| Turli qimmat bo'lmagan metallar, metal keramikasi | 147,88 | 0,34 | 90,35 |
| Yo'gli urug'liklar va ularning mevalari | 26,2 | 0,06 | 6,5 |
| Go'sht | 3,25 | 0,007 | 25,5 |
| Boshoqli donlar | 2,98 | 0,006 | 19,8 |

XXR tijorat vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2016 yilning 1-yanvar holatiga Rossiyaning Xitoyga qoygan bevosita (to'g'ridab-to'g'ri) jamg'arilgan investitsiyalari hajmi $946,9 mln.ni tashkil etgan. Aksincha, Xitoyning Rossiyaga kirgizgan investitsiyalari hajmi esa,bundan 10 barobarga ko'p bo'lib, u $8,94 mlrd.dan iborat bo'ldi. 67

Xitoy-Rossiya hamkorligining asosiy yo'nalishlaridan biri bu – yoqilg'i-enerhetika sohasi (neft-gaz tarmog'i) hisoblanadi. XXR Bosh Bojxona boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra, Xitoy importidagi Rossiya neftining ulushi 14,45%ni tashkil etadi. Aytish lozimki, Rossiya tomonidan Xitoy bozoriga yetqazib berilayotgan neft hajmi bo'yicha u yetakchilik qilmoqda, xususan, Rossiya Saudiya Arabistonidan keyingi 2-o'rinni egallamoqda. Forbes jurnalining ma'lumotiga ko'ra, 2016 yilda Rossiyaning neft kompaniyalari XXR ga $14,6 mlrd.lik 47,8 mln.tonna neftni eksport qildilar va 2016 yildagi Rossiya neftining eksport tarkibida Xitoyning ulushi 20,6%ga yetdi.

2009 yilda Xitoy Rivojlanish banki (China Development Bank) bilan imzolangan bitimdan kelib chiqqfn holda, Xitoy Rossiya kompaniyalari "Роснефть" va "Транснефть" ga 20 yilga mo'ljallangan $25 mlrd.lik kreditni 300 mln.tonna neft evaziga ajratdi. Mazkur bitim doirasida "Восточная Сибирь - Тихий океан" negt yetqazib berish shahobchalari qirib berildi. 2011-yilning yanvar oyida 1-neft yetqazib berish boshlandi. 2013-yilda Rossiyaning "Роснефть" va Xitoy milliy neft-gaz korporatsiyalari (China National Petroleum Corporation, CNPC) orasida 25 yilga mo'ljallangan qo'shimcha $270 mlrd.lik 325 mln.tonna neft yetqazib

67 Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республикив 2017 году, Пекин, 2018 г.va XXR Bojxona statistikasi ma'lumotlari.

berish bo'yicha shartnoma tuzildi. 2016 yilda amalda "Роснефть" Xitoyga 34,5 mln.tonna neft yetqazib berdi.

Hozirgi davrda "Газпром" "Сила Сибири" nomli gaz quvurini qurish ishlarini olib bormoqda. Ushbu yo'l orqali gaz "Восточной Сибир" konlaridan Rossiyaning ichki hududlariga va Xitoyga ("восточный маршрут") eksport qilinadi. Mazkur ishlarni 2019 yilda boshlanishi kutilmoqda. Undan tashqari, XXR ga gaz transportirovkasi bo'yicha 2-Loyiha ("западный маршрут") ishlarini ham amalga oshirish ustida qizg'in kelishuvlar olib borilmoqda. Xitoy-Rossiya hamkorligining yana bir yo'nalishi atom energetikasi bo'lib, 1998-2007 yillarda "Атомстройэкспорт" nomli Rossiya kompaniyasi Tayvan AES ning 1-navbatini qurib ishga tushirdi. Mazkur AES loyihasining 2-bosqichi amalga oshirilmoqda (3-va 4-energobloklarni qurishga ajratildan investitsiyalar hajmi $6,5 mlrd.ni tashkil etadi). Bu yo'2012-yilda boshlanib, 2018 yil oxirida ishga tushirish mo'ljallangan. Hozirda Xitoy 5-6 energobloklarni o'zi qurmoqda va shu bilan birga keying 7-8-energobloklarni qurish bo'yicha Rossiya bilan kelishuvlar olib bormoqda.

2013-2016-yillarda Xitoyda ishga tushirilgan energobloklarni quvvatiga ko'rsatiladigan servis xizmatkari uchun Rossiyaning "Росатом" davlat korporatsiyasi Xitoy tomoni bilan $50 mln/dan ortiq summaga shartnoma tuzgan. Tayvan AESi uchun yadro yoqilg'isini Rossiyaning "Росатом" tarkibiga kiruvchi TVEL kompaniyasi yetqazib beradi. 2025-yillargacha mo'ljallangan mazkur shartnomaning summasi $1 mlrd.dan ortiqdir. Xitoy va Rossiya transport sohasida ham faol hamkorlik olib borib, mazkur yo'nalishdagi yirik loyihalardan biri "Европа - Западный Китай" koridori hisoblanadi. Ushbu avtomagistralning umumiy uzunligi - 8,5 ming km. Bo'lib, ulardan 2,2 ming km. Rossiya hududidan, 2,8 ming km. – Qozog'istondan, 3 ming km. – Xitoydan o'tadi. Uni qurish ishlari 2008-yilda boshlangan bo'lib, mazkur yo'lni qurilishi 2019 yilda tugatis mo'ljallanfan edi. Ushbu loyihaga ajratilgan xitoy kompaniyalarining investitsiyalari hajmi 2,5 mlrd.doll.dan iborat bo'lib, bu avtomagistralning yuk tashish quvvati yiliga 33 mln.tonnani tashkil etadi.

Jadval 9.2.3.

2012-2017-yillardagi Xitoy va Rossiya Federatsiyasining to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari, mln.doll.[68]

| Investitsiyalash ob'yektlari | 2012 y. | 2013 y. | 2014 y. | 2015 y. | 2016 y. | 2017 y. |
|---|---|---|---|---|---|---|
| XXRning RF ga investitsiyalari | 784,6 | 1022,2 | 794,00 | 560,0 | 547,00 | 753,0 |

[68] 68 Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республикив 2017 году, Пекин, 2018 г.va XXR Bojxona statistikasi ma'lumotlari

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| RFning XXRga unvestitsiyalari | 29,9 | 22,08 | 41,00 | 13,05 | 4,99 | 23,84 |

Undan tashqari, temir yo’l ko’prigini qurish (Amur daryosida), uzunligi 700 km.li Moskva-Kazan temir yo’l tez yurar magistralini qurish ishlari ham ikki mamlakat hamkorligida amalga oshirilmoqda.69 Shuningdek, Xitoy va Rossiya metallurgiya, qishloq xo’jaligi, bank sohalarida ham faol hamkorlik qilmoqdalar. Xitoy-Rossiya investitsion hamkorligining ustivot yo'nalishlari ebergetika, er osti qazilma boyliklarini qazib olish ishlanmalari, o’rmon xo’jaligi, savdo, yengil va tekstil sanoati, maishiy elektronika, aloqa, qurilish va xizmat ko’rsatish sohalari hisoblanadi. Rossiyani Xitoyga qo’ygan investitsiyalari asosan, ishlab chiqarish va transport sohalariga yo’naltirilgandir.

Umuman, xulosa sifatida ta’kidlash joizki, XXR-RF ikki tomonlama savdo va investitsion hamkorligi bugungi kunda ham har ikki mamlakat uchun dolzarb hisoblanadi.

# 10-BOB: XITOY VA MO MAMLAKATLARI ORASIDAGI TASHQI IQTISODIY ALOQALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARII

## 10.1. Xitoy–Markaziy Osiyo davlatlari orasidagi savdo iqtisodiy aloqalarining rivojlanish xususiyatlari

Globalizatsiya jarayoni chuqurlashib borayotgan yangi davrda, hech bir mamlakat o‘z qobig‘i ichida mustaqil ravishda iqtisodiy farovonlikka erisha olmaydi. Iqtisodiy rivojlanishda tashqi omillar asosiy o‘rinni egallab, o‘zining geografik joylashuvidan unumli foydalanish, strategik hamkorlarni tanlashda aynan, qo‘shni davlatlarni hisobga olish va ular bilan iqtisodiy munosabatlarni o‘rnatish hamda mazkur aloqalarni rivojlantirish katta ahamiyatga egadir.

Xitoy ham bugungi kunda qo‘shni davlatlar, ayniqsa mustaqillikka erishgan Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalarini chuqurlashtirmoqda. Ular orasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish 1991 yillardan boshlanib, mazkur mintaqa davlatlari birin-ketin Xitoy Xalq Respublikasi bilan diplomatik aloqalarni o‘rnata boshladilar. Bunda asosiy o‘rinni Xitoy – Markaziy Osiyo munosabatlari egallagan bo‘lib, xususan, ular Xitoyning yon qo‘shnilari hisoblangan Qozog‘iston, O‘zbekiston va Qirg‘izistonq mamlakatlari bo‘lib, ular, geografik joylashuvi olgan munosabatlar keyin rivojlanmoqda. Shuning uchun tadqiqot ishida shu ikki mintaqa bilan XXR iqtisodiy aloqalarni ilmiy jixatdan o‘rganish dolzarb vazifa qilib olingan.

Markaziy Osiyo davlatlari orasida Xitoy Qozog‘iston bilan ham siyosiy ham iqtisodiy va chegaraviy aloqalarini o‘rnatgan bo‘lib, mazkur aloqalar sobiq ittifoq mavjud bo‘lgan davrdanoq boshlangandir. Sobiq sovet ittifoqi parchalanib ketgandan so‘ng, Qog‘og‘iston

69 Проект "Один пояс, один путь". Досье http//tass.ru/info/43831

mustaqil va suveren davlat sifatida Xitoy bilan o‘zaro aloqalarini qaytadan tikladi va shu bilan ikki tomonlama aloqalarda yangi davr boshlandi.

Markaziy Osiyo respublikalari davlatchiligi yangi tarixiy davrni boshdan kechirmoqda. Jamiyat hayotining barcha jabhalari - siyosat, ijtimoiyat va iqtisodiyotda uz mazmuni va ahamiyati jihatidan yangi sifatga ega jarayonlar yuzaga chiqmoqda. Bu siyosiy jihatdan respublikalarning mustaqillikka erishib, jahon hamjamiyatida uz o‘rnini egallay boshlagani, iqtisodiyotda bozor munosabatlarining joriy etila boshlagani va u bilan bog‘liq ijtimoiy-iqgisodiy muammolarni mustaqil hal etish imkoniyati pay do bo‘lganligi va boshkalarda o‘z aksini topmoqda.

Respublikalarda yuqori darajada markazlashgan xo‘jalik tizimidan mnlliy tizimga, boshqaruvda vertikal aloqalar ustivorligidan gorizontal alokalarga. xo‘jalik munosabatlarini tashkil qilishning rejali-buyruk usulidan bozor mexanizmlariga o‘tish jarayonlari davom etmoqda. Ular hayotidagi aynan mana shu o‘zgarishlar o‘zaro iktisodiy munosabatlarni takomillashtirishni, jahon xo‘jalik tizimi bilan integratsiyalashuv masalalarini o‘rganishni ob’ektiv zaruriyat qilib ko‘yadi. Gap shundaki,

Markaziy Osiyodagi Respublikalar, nafaqat til, tarix, madaniyat, ma’naviyat va hududiy birlikka ega, balki ularning iqtisodiy rivojlanishi ham ko‘p jihatdan bir-biriga bogliq. Mintaka davlatlarida iqtisodiyotning asosiy va yetakchi tarmoqlari mushtarak, ular yagona suv va energetika manbalaridan foydalanadilar, yerdan foydalanish bir xil tizimda amalga oshiriladi va hattoki birgalikda hal qilinishi lozim bo‘lgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolar ham anchagina.

Mintaqa davlatlari orasida o‘zaro manfaatdorlik va ixtiyoriylikka asoslangan integratsion aloqalarni rivojlantirish va yagona iqtisodiy hududni barpo etish barcha respublikada makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi muhim shartlardan biridir. Shu sababli Markaziy Osiyoda yagona iqtisodiy hudud shakllanishini, unga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil kilish, uning shakllanishidan kutilayotgan real iqtisodiy samarani aniqlash dolzarb vazifalardandir.

Bozor munosabatlari sharoitida Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida mazmunan yangi va o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan integrasion jarayonlarning vujudga kelishi, yagona iqtisodiy hudud shakllanishi va rivojlanishini o‘rganishning dolzarbligi respublikalarning ichki xususiyatlari, ularda amalga oshirilayottan iqtisodiy islohotlar yo‘nalishlarini hisobga olgan holda mazkur tadqiqotni o‘tkazishga sabab bo‘ldi.

2010 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra Markaziy Osiyo "beshligi"ning umumiy aholisi 65 mln. kishiga yaqin bo‘lib, eng ko‘p aholiga ega bo‘lgan O‘zbekistonda 28001 mln kishi istiqomat qilgan. Undan keyingi o‘rinni Qozog‘iston Respublikasi egallaydi va uning aholisi 15966 mln

kishini tashkil etadi. Qolgan uchta respublikaning aholisi bu ikki respublikaga nisbatan ancha kam bo‘lib 5-7 mln kishiga teng. Mintaqa mamlakatlarining jami yalpi ichki mahsuloti qariyb 170 mlrd. dollarni, jami eksport hajmi 59,7 mlrd dollarni tashkil etadi.

Jadval 10.1.1.

**1991-2017-yillarda XXR va MO mamlakatlarida YaIMning o‘sish dinamikasi (SOQ bo‘icha)[70]**

| yillar | Qirg‘iziston | Qozog‘iston Resp. | Tojikiston | Turkmaniston | O‘zbekiston | XXR |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **1991** | 3,1 | 11,5 | 3,3 | 7,7 | 3,0 | 1,6 |
| **1995** | 1,7 | 8,3 | 1,3 | 4,6 | 2,2 | 2,6 |
| **2000** | 2,1 | 10,0 | 1,2 | 5,4 | 2,5 | 3,7 |
| **2005** | 2,4 | 16,0 | 1,7 | 6,5 | 3,1 | 5,7 |
| **2010** | 2,8 | 20,1 | 2,1 | 10,0 | 4,2 | 9,5 |
| **2015** | 3,2 | 23,5 | 2,7 | 15,5 | 5,7 | 13,6 |
| **2017** | 3,6 | 26,1 | 3,1 | 18,6 | 6,9 | 16,6 |

Mamlakat Yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Qozog‘istonda kuzatiladi. Mintaqada ishlab chiqariladigan jami yalpi ichki mahsulotning 64,8 foizi Qozog‘iston hissasiga to‘g‘ri keladi. Ikkinchi o‘rinda O‘zbekiston bo‘lib, mintaqa mamlakatlari jami yalpi ichki mahsulotining qariyb 20 foizi mamlakatimizda ishlab chiqariladi.

Jadval 10.1.2.

**2019 yil natijalari bo‘yicha XXR va MO mamlakatlari savdosi dinamikasi[71]**

| mamlakatlar | XXR ning eksportdagi ulushi | XXR ning importdagi ulushi |
|---|---|---|
| Qozog‘iston | 13,6 | 17,0 |
| Qirg`iziston | 4,1 | 35,4 |
| Tojikiston | 5,0 | 18,2 |
| Turkmaniston | 84,1 | 16,0 |
| O‘zbekiston | 11,8 | 23,1 |

Agar bu ko‘rsatkichni aholi jon boshiga to‘g‘ri kelishini tahlil qiladigan bo‘lsak, bu ko‘rsatkich bo‘yicha ham Qozog‘iston Respublikasi mintaqada yaqqol peshqadam hisoblanadi.

[70] http://www.stat.kg

[71] Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике, Внешнеторговый оборот Республики Узбекистан (за январь-сентябрь 2019 года*), O’zstat,1- 2 с.

Bu yerda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmi 6783,1 dollarni tashkil etadi.

Keyingi o‘rinlarni Turkmaniston va O‘zbekistan egallaydi. Eksport hajmi bo‘yicha mintaqa mamlakatlarini qiyosiy tahlil kilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, eksportning eng katta hajmi Qozog‘iston hissasiga to‘g‘ri keladi. 2009 yilda Qozogiston 37607,3 mlrd dollarlik tovar va xizmatlar eksport qilgan.

Undan keyingi o‘rindagi O‘zbekiston 11771,2 mln. Dollar miqdorida tovar va xizmatlarni eksport qilgan. Mintaqa mamlakatlari tomonidan amalga oshirilgan eksportning 82,6 foizi ushbu ikki mamlakat hissasiga to‘g‘ri keladi.

## 10.2. XXR-Qozog‘iston, XXR-Qirg‘iziston, XXR-Tojikiston orasidago savdo-iqtisodiy aloqalarining rivojlanish dinamikasi

Markaziy Osiyo mintaqasi mamlaktlari va Xitoy Xalq Respublikasi o`rtasidagi savdo iqtisodiy munosabatlar tobora rivojlanib bormoqda. Xitoyning ushbu mintaqadagi faoliyati Markaziy Osiyodagi barcha mamlakatlarda faol amalga oshirilmoqda. Agar Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlari o`rtasidagi hamkorlik munosabatlarinibi rivojlanish bosqichlariga e`tibor qaratsak, mintaqa mamklakatlari mustaqillikka erishgach Xitoy bilan hamkorligini 5 bosqichga ajratishimiz mumkin:

1) 1992-2001-yillar- Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo hamkorlikning dastlabki aloqalarini yo`lga qo`yish, chegaraviy, xavfsizlik muammolarini hal etish, ikki tomonlama savdo munosabatlariga sharoit yaratish.

2) 2002-2005-yillar- uzoq muddatli savdo hamkorlikning yo`lga qo`yilishi, mintaqada Xitoy iqtisodiy faoliyatining kengayishi.

3) 2005-2009-yillar- starategik hamkorlikka erishish, Markaziy Osiyo mamlaktlari milliy iqtisodiyotida yirik tarmoqlarning rivojlanishi.

4) 2009-2015-yillar- iqtisodiy hamkorlik sohasida yirik loyihalarni amalga kiritish(asosan, neft-gaz sohasida), Xitoyning mintaqa mamlakatlari iqtisodiyotida muhim o`ringa ega bo`lishi.

5) 2015-yildan hozirga qadar- savdo hamkorlik munosabatlarining chuqurlashuvi, “Buyuk Ipak yo`li belbog`i” loyihasidagi hamkorlik.

Mintaqa mamlakatlari eksporti tarkibini taxlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, unda hanuzgacha xom ashyo mahsulotlari katta ulushga ega. So‘nggi yillarda Qozog‘iston eksport tarkibida bir qator o‘zgarishlar yuz berib, ushbu o‘zgarishlarning asosiylari quyidagilardan iboratdir:

-eksport tarkibida energiya tashuvchilar va neft mahsulotlari asosiy o‘rinni egallaydi. Shu bilan birga so‘nggi yillarda ushbu eksport moddalarining ulushi o‘sish tendensiyasiga ega

bo‘lmoqda: agar 2000 yilda jami eksportning 54.3 foizi energiya tashuvchilar va neft mahsulotlari hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2008 yilga kelib bu ko‘rsatkich 69,5 foizga yetdi. Bu holat mamlakat iqtisodiyotining xom ashyoga yo‘nalganlik darajasi oshganligidan dalolat berali:

-taxlil qilinayotgan davr mobaynida rangli va qora metallarning jami eksportdagi salmog‘I pasaydi: agar 2000 yilda metallarning jami eksportdagi ulushi 25,8 foizga teng bo‘lgan bo‘lsa. 2008 yilga kelib 17.1 foizni tashkil etdi. Bunday holat, bir tomondan, rangli va qora metallar ishlab chikarish va eksporti hajmining kamayganligi bilan izohlansa. Ikkinchi tomondan. Boshqa eksport tovarlari. Eng avvalo neft ishlab chiqarish va neft eksportining metallarga nisbatan, yuqori sur’atlarda o‘sganligi bilan tushuntiriladi;

- eksport tarkibida mashina va asbob-uskunalarning salmog‘I juda kichik bo‘lib, bu ko‘rsatkich so‘nggi yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo‘lmokda. Xususan, mashina va asbob-uskunalarning jami eksportdagi ulushi 2000 yilda 2,6 foizdan 2008 yilda 1.7 foizgacha pasaydi. Vaholanki, so‘nggi yillarda jahon savdosida bunga aks manzara kuzatiladi: Agar 1960 yilda oziq-ovqat, xom 93shy ova yonilg‘I mahsulotlarining jahon eksportidagi salmog‘I 44,2 foizni tashkil kilgan bo‘lsa, 2000 yilga kelib bu ko‘rsatkich 18 foizgacha pasaydi. Ayni vaqtda bunga qarama-karshi o‘laroq, tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ulushi 55,8 foizdan 82,0 foizgacha o‘sdi. Bu esa mamlakatda tayyor mahsulotlar eksportini oshirish bo‘yicha jiddiy chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimligini ko‘rsatadi;

- tahlil qilinayotgan davr mobaynida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 6,8 foizdan 4,4 foizgacha, kimyo mahsulotlarining salmog‘i 4,3 foizdan 4,0 foizgacha pasayganligini guvohi bo‘lamiz.

- Qozog`iston Respublikasi Xitoyga chegaradosh mamlakat sifatida Xitoy tadbirkorlari va investitsiyalarini Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlariga nisbatan ko`proq o`ziga jalb etib kelmoqda Xitoy Transmilliy Korporatsiyalari faoliyati ham Qozog`istonda yaxshi amalga oshirilmoqda. Dastlab, bu korporatsiyalar faoliyati neft va gaz sohasidagi hamkorlikka qaratilgan edi.

Ushbu bosqichlarning barchasida Qirg`iziston va Xitoy o`rtasida hamkorlik munosabatlari yangi bosqichga ko`tarildi va ikki davlat o`zaro qo`shnichilik aloqalarini ham yaxshi yo`lga qo`ydi.

Rasm -10.2.1.

2016-2019 yillarda Qozog`iston Respublikasi –Xitoy Xalq Respublikasi orasidagi Tovar aylanmasi, % da[72]




1992-yil Xitoy Qirg`iziston mustaqilligini tan olgach ikki davlat o`rtasidagi savdo iqtisodiy hamkorlik munosabatlarida yangi davr boshlandi va hozirga qadar bu hamkorlik rivojlanib kelmoqda. So`nggi yillarda bu hamkorlikning holatiga e`tabor qaratsak, Qirg`iztonning 2009-yildagi Xitoyga eksporti 1,5 barobarga oshdi, Xitoydan Qirg`izistonga import hajmi esa 2 barobarga oshganiga guvoh bo`lamiz. Bu borada ikki davlat o`rtasidagi tashqi savdo Xitoy Qirg`izistonga nisbatan ko`proq eksport hajmiga ega ekanligini ko`rishimiz mumkin.

Jadval 10.2.1.

2013-2015 yillarda Qirg`iziston va Xitoy o`zaro tovar aylanmasi dinamikasi (mln dollar)[73]

| Ko`rsatkichlar | 2013-yil | 2014-yil | 2015-yil |
|---|---|---|---|
| Tashqi savdo | 1471,0 | 1139,7 | 1065,0 |
| Eksport | 39,0 | 32,8 | 35,9 |
| Import | 1432,0 | 1106,9 | 1029,1 |

Qirg`izistonning Xitoyga eksport tovarlar tarkibi - mineral moddalar, qayta ishlanmagan teri mahsulotlari, mevalar.

[72] Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике, Внешнеторговый оборот Республики Узбекистан (за январь-сентябрь 2019 года*), O'zstat,6-7 c.

[73] Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республикив 2017 году, Пекин, 2018 г.va XXR Bojxona statistikasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Qirg`izistonning Xitoydan Import tovarlar tarkibi – importning ¼ qismi asbob uskuna va mashinalar, elektr jihozlar, 10-12% qora metallurgiya mahsulotlari, tekstil mahsulotlari, oyoq kiymlar va avtomabillar.

Bugungi kunda Qirg`izistonda 400 dan ortiq Xtoy bilan qo`shma korxonalar faoliyat olib bormoqda. Bu korxonalar iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat yuritmoqda. Qirg`izistonda Xitoy investitsiyalarining asosiy yo`nalishlari yengil va oziq-ovqat sanoati, qishloq xo`jaligi va qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, metallurgiya, qurilish, xizmat ko`rsatish va transport sohalariga yo`naltirilmoqda. 2014-yilning 31-dekabr holatiga ko`ra Qirg`izistonning Xitoy Eksport-Ipmort banki(Eksimbank)dan umumiy qarzlari miqdori 1,1 mlrd dolllarga yetgan bo`lib, Qirg`izistonning umumiy qarzlarining 1/3 qismiga tengdir.

Asosiy hamkorlik loyihalari: Bugungi kunda Xitoy Markaziy Osiyo mintaqasidan gaz importi bo`yicha yetakchi mamlakat sifatida gavdalanmoqda. Xitoy-Qirg`iziston investitsion loyihalari orasida Markaziy Osiyo-Xitoy gaz quvuri alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu loyiha sababli Qirg`iziston Xitoydan tranzit to`lovi uchun yiliga 70 mln dollar miqdorda daromad oladi va 30 yil davomida 2 mlrd dollardan ziyod pul mablag`lariga ega bo`ladi.

Ma`lumki, Qirg`izistonda elektr energiya mamlakat janubida ishlab chiqariladi va uni shimoliy qismga uzatish uchun qurilish loyihasiga Xitoy bilan kelishuv asos bo`lib xizmat qilmoqda. 2012-yil iyun oyida Xitoy va Qirg`iziston hukumatlari o`rtasida qiymati 390 mln dollarga teng bo`lgan elektr liniyalari qurilishi uchun shartnoma imzolandi. Shartnomaga bu loyihaga Xitoyning Eksimbanki 20 yilga yiliga 2% dan kredit ajratishni ta`minladi. Kreditning kechiktirilgan to`lov muddati esa 9 yil deb belgilab qo`yildi. 2015-yil avgust oyidan boshlab, bu lohiya ustida Xitoyning Tebian Electric Apparatus Stock (TBEA) faoliyat yuritmoqda.

Bundan tashqari, 2016-yil fevral oyida Xitoy va Qirg`iziston o`rtasida “Buyuk Ipak Yo`li belbog`i” loyihasida 3 ta asosiy yo`nalishlar haqidagi ikki tomonlama hamkorlik rasman e`lon qilindi. Bunga ko`ra “Issiqko`l” atrofida aylanma yo`lning qurilishi Qirg`iziston uchun asosiy yutuqlardan biri bo`lib hisoblanadi. 2015-yilda “Xitoy - Qirg`iziston - O`zbekiston – Turkmaniston – Eron – Turkiya – Evropa” yo`nalishidagi avtomagistral loyihasiga Xitoy hukumati jami 6 mlrd dollar miqdorda investitsiya kiritmoqda. Qirg`iziston esa tranzit to`lov sifatida yiliga 200 mln dollar miqdorda daromadga ega bo`ladi.

Xitoyning Qizg`iziston bilan hamkorlik munosabatlari rivojlanib borayotganligini mamlakat tashqi savdosidagi ko`rsatkichlarda ham ko`rishimiz mumkin. Oxirgi ikki yil davomida Qirg`izistonning yirik savdo hamkorlari quyidagi mamlakatlar hisoblanadi

Xulosa o`rnida Xitoy 2016-yil yakunlariga ko`ra Qirg`izistonning eng yirik savdo hamkoriga aylanganini ko`rishimiz mumkin. Xitoy Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo

iqtisodiy aloqalarda ancha faol qatnashayotganligini, Qirg`iziston bilan istiqbolli loyihalari soni tobora ortib hamkorlik yangi bosqichga ko'tarilayotganini ko`rishimiz mumkin.

Xitoyning Qirg`izistonga kiritayotgan inestitsiyalari hajmi ham katta ekanini birgina Eksimbankning Qizg`iziston davlat qarzlarining 1/3 qismiga ega ekanligidan ko`rishimiz mumkin. Geografik jihatdan qo`shni bo`lgan bu ikki davlat o`rtasidagi o`zaro strategik hamkorlik yanada rivojlanib, bundan ham yuqori natijalarga olib kelishini xulosa qilishimiz mumkin.

Xitoy Xalq Respublikasi bungi kunda dunyoning 200 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo iqtisodiy hamkorlik munosabatlarini olib bormoqda. Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari ham Xitoy bilan o`zaro savdo iqtisodiy munosabatlarda faol qatnashib kelmoqda. Mintaqa mamlakatlaridan biri hisoblangan Tojikiston ham iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalarda Xitoy bilan strategik hamkorlik olib bormoqda. Xitoy va Tojikiston savdo hamkorligi munosabatlari Markaziy Osiyoning boshqa mamlaktlari singari strategik ahamiyat kasb etib, mamlakat iqtisodiyotida Xitoy muhim ahamiyat kasb etmoqda. So`nggi yillarda Tojikiston-Xitoy munosabatlariga e`tibor qaratsak, bir qancha istiqbolli loyihalar va erishilgan yutuqlarni ko`ramiz.

Bugungi kunda Tojikiston iqtisodiyotining barcha sohalari yuqori sur`atlarda rivojlanayotgan bo`lmasada, ammo, Xitoy bilan iqtisodiy hamkorlik ko`lami va sohalari kengayib bormoqda. 2015-yil yakunlariga ko`ra, Xitoy Tojikistonning eng yirik iqtisodiy hamkoriga aylanib ulgurdi.

So`nggi yillarda Tojikistonning tashqi iqtisodiy savdosida Xitoy yirik savdo hamkorlardan biriga aylanganganini quyidagi diagrammada ko`rishimiz mumkin. Bu ko`rsatkichlar orqali Tojikiston tashqi savdosida Xitoy deyarli 20% ulush bilan yetakchilik qilmoqda va bu raqamlar Xitoy Tojikistonning muhim savdo hamkori ekanini isbotlaydi. Albatta, ikki davlat o`rtasidagi tovar aylanmada Xitoyning eksport-import saldosi Tojikistonga nisbatan, ancha yaxshi ko`rsatkichga ega.

Tojikistonning Xitoyga eksport qilinadigan 96abor va mahsulotlari – eksportning 60% ga yaqin qismi qo`rg`oshin, 30% paxta, mevalar, rangli metallar va teri mahsulotlari.

Tojikistonning Xitoydan Import qiluvchi 96abor va mahsulotlari- importning 30% ga yaqin qismi asbob-uskunalar, 10-13% kiyim va oyoq kiyimlar, tekstil mahsulotlari, qora metaldan tayyorlangan mahsulotlar, avtomabillar, mebellar va boshqalar tashkil etadi.

Xitoy-Tojikiston iqtisodiy hamkorlik munosabatlarida bir qancha sohalarni alohida ajratib ko`rsatishimiz mumkin. Bu sohalar Tojikistonning iqtisodiy salohiyati va ikki mamlakat uchun istiqbolli loyihalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xitoy-Tojikiston

hamkorlik munosabatlarida quyidagii sohalarni yetakchi tarmoqlar sifatida ajratib ko`rsatishimiz mumkin:

-tog`-kon sanoati sohasi;

-investitsiya sohasi;

-qishloq xo`jaligi sohasi;

-infrastruktura sohasi;

-energetika sohasi.

Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari singari Tojikistonda ham investitsion sohada Xitoy faol ishtirok etib kelmoqda. 2014-yil ma`lumotlariga ko`ra Xitoy Tojikistonga 500 mln dollar miqdorda bevosita investitsiyalarni kiritdi. 2014-yil yakunlariga ko`ra Tojikistonning Xitoy Davlat Bankidan qarzi 1,2 mlrd dollarni tashkil etib, bu Tojikiston Tashqi qarzlarining 42% qismiga tengdir. Shuningek, 2014-yil sentabr oyida hukumatlar o`rtasida hamkorlikni rivojlantirish maqsadida 16 ta hujjat imzolangan bo`lib, Xitoy hukumati tomonidan 6 mlrd dollar bevosita investitsiyalar kiritish kelishilgan.

Xitoy va Tojikiston iqtisodiyotning turli sohalarida hamkorlik qilib kelish bilan birga bir qancha istiqbolli loyihalarni ham amalga oshirmoqda. Statistik ma`lumotlarga e`97abor qaratadigan bo`lsak, 2015-yilda Tojikistonda ishlab chiqarilgan oltinning hajmi 4,2 tonnani tashkil etib, bu ko`rsatkich o`tgan 2014-yilga nisbatan 31,6% ortiq ekanligi bilan muhimdir. Tojikistonda ishlab chiqariladigan oltinning 50%dan ortiq qismi mamlakatning shimolida joylashgan So`g`diya viloyatidagi « Zarafshon » qo`shma korxonasi ulushiga to`g`ri keladi. Ushbu qo`shma korxonaning 75% aksiyasi Xitoyning Zijing Mining Group kompaniyasiga tegishli bo`lib, qolgan 25% atocfa Tojikison hukumatiga tegishlidir. « Zarafshon » qo`shma korxonasi 2015-yilda 2,2 tonna oltin ishlab chiqardi va bu mamlakat oltin ishlab chiqarish sohasidagi eng yirik loyiha hisoblanadi.

Bundan tashqari, Tojikiston-Xitoy tog`-kon sanoat Kompaniyasi aksiyalari 100% Xitoy kompaniyalariga tegishli bo`lib, “Zarnisor” foydali qazilmalar kombinati bazasida shakllantirtilgan. Bugungi kunga kelib Xitoy kompaniyalari ushbu loyihaga 120 mln dollar miqdorda investitsiyalar kiritgan. Kiritilgan investitsyalarning 76 mln dollar ga qismi kombinat qurilishi ishlab chiqarish fabrikalari uchun yo`naltirilgan. Ushbu kombinat yiliga 1 mln tonna temir rudasi ishlab chiqarmoqda. Yaqin kelajakda ishlab chiqarish quvvatini 2 mln tonnage yetkazish maqsad qilingan.

Mamlakatda Infrastrukturani rivojlantirish sohasida ham xitoy bilan hamkorlikda bir qancha loyihalar amalga oshirilmoqda. So`nggi yillarda Tojikiston xududida Xitoy kompaniyalari ishtirokida uzunligi 2000 kmdan ortiq zamonaviy avtomabil yo`llari qurildi va qayta ta`mirlandi. Temir y`ol qurilish sohasida esa 469km uzunlikdagi Dushanbe-Baxdad-

Kurgan-Tyube temir yo`li loyihasi amalga oshildi. Bu loyiha uchun Xitoyning Eksimbanki imtiyozli kreditlar ajratgani diqqatga sazovordir. Ayni paytda Tojikiston Xitoy tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan, sharq va g`arbni bog`lash uchun xizmat qiluvchi "Buyuk Ipak yo`li belbog`i" loyihasini qo`llab quvvatlamoqda va bu borada hamkorlikni amalga oshirish uchun 2014-yil sentabr oyida Memorandum qabul qilindi.

Qishloq xo`jaligi sohasi Tojikiston iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etuvchi soha hisoblanadi. So`nggi yillarda Xitoyliklar tomonidan Tojikistonning bir necha ming gektar ekin maydonlari ijaraga olinib foydalanilmoqda. Xitoyning "Tsinyan Inxay" kompaniyasi guruch va paxta yetishtirish uchun 300 gektar ekin maydonini ijaraga olgani, 2016-yilga kelib esa ijaraga olingan ekin maydonlar hajmini 700 gektarga yetkazgani qishloq xo`jaligi sohasidagi hamkorlikning tbora kengayib borayotganligini bildiradi.

Xitoyning iqtisodiyotning turli sohalarida Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik loyihalari soni ortib, yangi bosqichlarga ko`tarilayotganligi Tojikiston iqtisodiyotiga ham ijobiy ta`sir ko`rsatmoqda. Tojikiston va Xitoy savdo iqtisodiy hamkorlik munosabatlari rivojlanishi ikki mamlakat uchun ham foydali hisoblanadi.

Birinchidan, Xitoy tashqi iqtisodiy faoliyati yanada kengayib iqtisodiy aloqalar rivoji va ko`lami dunyoning g`arbiga qarab intilishga erishadi.

Ikkinchidan, Tojikiston iqtisodiyotida yangi sohalarning paydo bo`lishi, infrastrukturaning rivojlanishi, aholining ish bilan ta`minlanishi kabi bir qancha ijobiy holatlar o`z ifodasini topa boshlaydi.

Uchinchidan, Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarda yuqori natijalarga erishgan Xitoy bu mamlakatlarning yirik savdo hamkorlari safiga qo`shiladi.

To`rtinchidan, Xitoyning so`nggi yillardagi yirik loyihalaridan biri-"Buyuk Ipak yo`li belbog`i" loyihasi Markaziy Osiyo mintaqasidan o`tadi. Mintaqa mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarni yaxshilash ushbu loyiha istiqboliga ham ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

Shanhay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar — bu Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston, O'zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasi hisoblanadi. Tashkilot o'z faoliyatini 1996 yilda Rossiya va Xitoy davlatlari o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlikdan boshlagan. Shu yili ShHT a'zoligiga Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston va 2001 yilda O'zbekiston kelib qo'shilgan.

ShHT ning boshqa Sobiq SSSR hududi joylashgan regional tashkilotlardan farqi, shundan iboratki, ushbu tashkilotga MDH davlatlaridan tashqari, Xitoy ham a'zo bo'lib kirdi..Shanxay hamkorlik tashkilotining kuzatuvchi davlatlari safiga Hindiston, Eron, Mo'g'iliston va Pokiston davlatlari kiradi

ShHT kredit liniyasi hisobiga irrigasya va melioratsiya tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida 50.3 mln AQSh $ miqdorida mablag‘lar ajratilgan. Bugungi kunda ikki davlat o‘rtasidagi savdo – iqtisodiy hamkorlikdagi eng asosiy muammo ikki davlat o‘rtasida to‘g‘ridan – to‘g‘ri transport korridorining mavjud emasligidir. Bu masalani bartaraf etish ham hozirgi kunda ikki davlat uchun muhim ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda mamlakatimiz eksport tarkibida bir qator o‘zgarishlar yuz berib, ushbu o‘zgarishlarning asosiylari quyidagilardan iborat bo‘ldi:

-paxta tolasi mamlakat eksportining asosiy moddasi sifatida saqlanib qolayotgan bo‘lsa-da, uning ulushi mustaqillik yillarida 5,6 martadan ziyodroqqa pasaydi (1992 yilda 47,9 foizdan 2009 yilda 8,6 foizgacha);

-mamlakat eksportida energiya manbalari va neft mahsulotlari tobora katta ulushga ega bo‘lib bormoqda (tahlil qilinayotgan davr mobaynida energiya manbalari va neft mahsulotlarining ulushi 14,8 foizdan 34,2 foizgacha o‘sgan);

-mamlakat eksport hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda (1992 yilda 3,2 foizdan 2009 yilda 6 foizgacha o‘sgan bo‘lib, shundan 5,6 foizi iste’molga mo‘ljallangan tovarlardir)

-mustaqillik yillarida eksport tarkibida yangi modda - xizmatlar paydo bo‘ldi va uning jami eksportdagi ulushi 2009 yilda 8,8 foizni tashkil etdi;

-so‘nggi yillarda kora va rangli metallar xamda mashina va asbob-uskunalarning jami eksportdagi salmog‘i sezilarli darajada pasaydi (moe ravishda 9.4 foizdan 5foizgacha va 9,4 foizdan 2,9 foizgacha). Marxaziy Osiyo mamlakatlari eksportida haligacha xom ashyo mahsulotlari sezilarli o‘ringa ega. Bunday holat bir qator salbiy oqibatlarni keltirib chikaradi. Xususan:

-xom ashyo mahsulotlari qiymatida tayyor mahsulotlarga nisbatan qo‘shilgan qiymat salmog‘i past bo‘ladi. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, barkaror iqtisodiy o‘sish va aholi turmush farovonligini yaxshilashni ta’minlashga iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish hamda ishlab chiqarilayotgan va eksport qilinayotgan tovarlar tarkibida tayyor mahsulotlar ulushini oshirish orqaligina erishish mumkin;

- jahon xom ashyo mahsulotlari bozori kon’yunkturasi tayyor mahsulotlar bozoridan farqli o‘laroq nobarqaror va unda tebranishlar darajasi yuqori hisoblanadi. Buning eng asosiy sababi shundaki, xom ashyo mahsulotlarining narx va daromadlar bo‘yicha talab elastikiligi past. Shu sababli bu holat makroiqtisodiy barkarorlik va iqtisodiy o‘sish sur’atlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin;

- xom ashyoga asoslangan eksport tarkibining yana bir salbiy jihati shundan iboratki, jahon bozorida xom ashyoga bo‘lgan narxlar yukori bo‘lgan sharoitda xom ashyo eksport

qiluvchi mamlakatlarda milliy valyuta almashuv kursining qimmatlashuvi yuz beradi. Bu esa milliy qayta ishlovchi korxonalar raqobatbardoshligining pasayishiga olib keladi va inflyatsiya darajasi oshadi. Shu munosabat bilan Qozog‘iston va O‘zbekiston ushbu muammoga barham berish maksadida barqarorlashtirish fondini barpo etish yo‘lidan bormoqda. Bu fondlar mamlakatga kirib kelayotgan "ortiqcha" valyutalarni jamlash va davlat xarajat dasturlarining barkarorligini ta’minlash imkonini beradi;

- jahon gajribasi shundan dalolat beradiki, eksport tarkibida xom ashyo mahsulotlari katta ulushga ega bo‘lgan mamlakatlarda aholining tabaqalashuv darajasi yuqori bo‘lishi kuzatiladi. Mutaxassislar fikricha, mamlakatning eng boy 10 foiz aholisi daromadlarining eng qashshoq 10 foiz aholi daromadlariga nisbati 7 martadan yuqori bo‘lsa, mamlakatdagi ijtimoiy muhit salbiy tomonga o‘zgarishi yuz beradi. Bugungi kunda Qozogistonda bu ko‘rsatkich 14 barobarni tashkil etadi va mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha Rossiyadan keyin ikkinchi o‘rinni egallaydi.

Hozirgi kunda ham Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi hamkorlyk asosansavdo-iqtisodiy aloqalardan iborat bo‘lib qolmokda. Ammo deyarli barcha mamlakatlarda o‘zaro savdo aylanmasi pasayish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Bu pasayishning bir qator sabablari mavjud bo‘lib, ulardan asosiylari quyidagilardan iboratdir:

- sun’iy rejali baholardan bozor baholariga o‘tish tashqi savdo aloqalari samaradorligiga baho berish tizimining sezilarli darajada o‘zgarishiga olib keldi. Buning natijasida iqtisodiy islohotlarga qadar rentabel hisoblangan juda ko‘p aloqalar norentabel bo‘lib qoldi. Shu bilan birga Markaziy Osiyo mamlakatlarining har biri nafaqat mintaqa yoki MDH doirasida, balki uzok xorijdan ham hamkor tanlash imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu esa mamlakatlarda tovarlar oqimining qayta taqsimlanishiga olib keldi. Natijada mintaqa respublikalari o‘rtasidagi tovar almashinuv hajmi pasaydi;

- mintaqa respublikalarida amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish siyosati rivojlangan mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishni rag‘batlantirdi. Buning asosiy sababi shundan iboratki, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta kurish va modernizatsiyalash yangi texnika va texnologiyalarni keng miqyosda sotib olishni takozo etadi. Bunday texnika va texnologiyalarni esa faqat uzok xorij mamlakatlaridan sotib olish mumkin;

- mintaqa mamlakatlari iqtisodiyotlari tarkibining o‘xshashligi o‘zaro savdo aloqalari hajmining qisqarishiga olib kelgan sabablardan yana biridir. Gap shundaki, mintaqa mamlakatlari tomonidan eksport qilinadigan tovarlarning aksariyati (yokilg‘i-energetika resurslari, qimmatbaho metallar, paxta tolasi va boshqalar) barcha respublikalarda ishlab chiqariladi;

- mamlakatlarda amalga oshirilayotgan import o‘rnini bosish siyosati natijasida ko‘plab ehtiyojlarni ichki ishlab chiqarish evaziga qoplash imkoniyati paydo bo‘ldi. Masalan, O‘zbekistonda g‘alla va enegetika mustaqilligiga erishish don va yoqilg‘i resurslari importining sezilarli darajada qisqarishiga olib keldi. Bu mahsulotlarning aksariyat qismi Markaziy Osiyo mamlakatlari dan sotib olinar edi.

Xitoy o`tgan asrning oxirgi choragidan boshlab jahon xo`jaligida tez rivojlanib borayotgan mamlakatlar safidan joy ola boshladi. Xitoy iqtisodiy jihatdan rivojlanish bilan birga jahonning turli mamlakatlari bilan ham iqtisodiy strategik aloqalarni rivojlantirib bordi. Xitoy bugungi kunda dunyoning 200 dan ortiq mamlakatlari bilan ijtimoiy-iqtisodiy savdo munosabatlarini olib bormoqda. Bular orasida Markaziy Osiyo davlatlari-O`zbekiston, Qozog`iston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg`iziston bilan ham iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga harakat qilmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari va Xitoyning iqtisodiy hamkorlik munosabatlari rivojlanishini ushbu mamlakatlarga Xitoyning investitsiyalarining katta hajmda kiritilayotganligi hamda istiqbolli loyihalar doirasida qo`shma korxonalar va ishlab chiqarish tashkilotlari soni tobora ortib borayotganligi Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy hamkorligining yuqori darajada ekanligini ko`rsatib beradi. Kelajakda istiqbolli loyihalar soni tobora ortishi va mintaqa mamlakatlari iqtisodiy hamkorlari orasida Xitoyning nufuzi yanada ortishini taxmin qilishimiz mumkin.

# 11-BOB: O‘ZBEKISTON – XITOY ORASIDAGI IQTISODIY HAMKORLIGI

## 11.1.O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikga erishgandan so‘ng, uning Xitoy bilan diplomatik aloqalarining o‘rnatilishi

Jahon iqtisodiyotida tobora o`zining mustahkam o`rniga ega bo`lib borayotgan O`zbekiston bugungi kunda dunyoning ko`plab mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma`rifiy hamkorlikni amalga oshirib kelmoqda. O`zbekistonning iqtisodiy salohiyati so`nggi yillarda barqaror ravishda iqtisodiy o`shish ko`rsatkichlarga ega bo`lib kelayotganligi va mamlakatimiz  imkoniyatlari tobora yuqori darajaga ko`tarilayotganligidan dalolat beradi. O`zbekistonning iqtisodiy hamkorlari orasida Xitoy Xalq Respublikasi mustahkam investitsion muhit va rivojlanish ko`rsatkichiga ega ekanligi, ikki davlat o`rtasidagi strategik hamkorlik rivoji kabi omillarga ko`ra Xitoy Xalq Respublikasi bugungi kunda O`zbekistonning ishonchli savdo-iqtsodiy hamkoriga aylandi.

Ikki davlat o`rtasidagi o`zaro hamkorlik munosabatlariga e`tabor qaratsak, hamkorlik va do`stona munosabatlarning dastlabki qadami Xitoy Xalq Respublikasining O`zbekiston

mustaqilligini 1991-yil 27-dekabr sanasiga to`gri keladi. 1992-yil 2-yanvarda esa ikki davlat o`rtasida diplomatik aloqalar o`rnatildi. Shu davrdan boshlab O`zbekiston Xitoy munosabatlari rivojlaib kelmoqda.

O`zbekistonning birinchi Prezidenti I.A Karimov 1992-yil, 1994-yil, 1999-yil, 2005-yil, 2011-yil 2012-yil, 2014-yillarda Xitoyga rasmiy tashrif bilan borgan bo`lsa, Xitoy davlat rahbarlari ham Xitoy-O`zbekiston iqtisodiy hamkorlik masalalariga katta qiziqish bilan qaragan va 1996-yil Xitoy Xalq Respublikasi Raisi ilk bor O`zbekistonga rasmiy tashrifni amalga oshirdi, Shundan so`ng, 2004-yil, 2010-yillarda Xu Szintao, Si Szinpin 2013-yil va 2016-yillarda O`zbekistonda bo`lib ikki tomonlama hamkorlik munosabatlari rivoji uchun muzokaralar olib bordilar.

O‘zbekiston-Xitoy aloqalari 1991 yil 27 dekabrda Xitoy O‘zbekistonning mustaqilligini tan olish bilan boshlandi va 2-yanvar 1992 yilda Xitoy Xalq Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar vaziri tomonidan ikki davlat orasida diplomatik munosabatlar o‘rnatish to‘g‘risida bayonnoma(memorandum) imzolandi. 1992 yilning 15 oktyabridan boshlab, O‘zbekistonda XXR elchixonasi faoliyat ko‘rsata boshladi. 1995 yilni 6-mayida Pekinda O‘zbekistonning elchixonasi o‘z faoliyatini boshladi.

1992 yilda Xitoy firmasi “Politexnolodji” bilan, aloqalar shrnatildi. 1993 yilda Xitoyga 26 mln.AQSh doll.qiymatidagi 7 ta “IL-76 MD” samoletlari yetkazib berish bo‘yicha bitim tuzildi va unda mazkur bitim bo‘yicha to‘lanadigan qiymatning 40% ni erkin konvertlangan valyutada va qolgan 60% ni oziq-ovaqat, uskuna va jihozlar, dori-darmonlar bilan to‘lanishi kelishib olindi. O‘zbekiston samoletlarni yetkazib berishni 1994 yilning fevral oyida nihoyasiga yetkazdi.

Xitoy bosh Bojxonasi ma’lumotlariga ko‘ra, 1992 yilda ikki davlat orasidagi tovar aylanmasi hajmi 108 mln.AQSh doll.ni tashkil etib, unda Xitoyning eksporti 68 mln.AQSh doll., importi 40 mln.AQSh.doll.ni tashkil etdi.

Hamkorlikning iqtisodiy yo‘nalishlari bo‘yicha 1992 yilda ikki davlat hamkorligida Toshkentda Xalq xo‘jaligi ko‘rgazmasi ochildi va bu ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lib xizmat qildi.

Xitoyning eksport strukturasi 1993 yilda deyarli o‘zgarishsiz qoldi. Katta mavqeni sanoat tovarlari (tekstil, oyoq kiyim va hakozo) 1992 yilda 53% ni tashkil etgan bo‘lsa, 1993 yilda 48% ga tushdi. Shu bilan birga oziq – ovqat va qishloq xo‘jalik mahsulotlarining eksporti 28% dan 36% ga o‘sdi. Shuningdek, go‘sht va go‘sht mahsulotlari, don, meva, choy, qand eksport qilish yuqori darajada ko‘paydi. Mashina texnik mahsulotlar ulushi 6,6%ni kimyoviy tovarlar 2,6%ni tashkil etdi.

Iqtisodiy hamqorlikni hususiyati shundayki, tovar aylanmasi salmog‘ida davlatlararo yetkazib berish o‘rni  sezilarli darajada pasayishi maxaliy joylarda savdoni o‘sishiga ikki davlat o‘rtasida xo‘jalik faoliyatini boshqarishni o‘sishiga olib keladi. Davlatlar shartnomalari bo‘yicha 1993 yilda 13% tovarlar yetkazib berildi. Bevosita savdo 53% ga, chegara oldi savdosi esa, 34% ni tashkil etdi.

1994 yilning birinchi choragida davlatlar o‘rtasida umumiy tovar aylanishini pasayishi kuzatildi, Xitoy bojxonasi statistik ma’lumotlarining ko‘rsatishicha yanvar – mart oylari 994 mln. dollarni tashkil qilgan. Bu o‘tgan  yilga nisbatan, 43,5 %ga kamayganligini ko‘rsatdi.[74]75

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti chegarasidagi iqtisodiy hamkorlik ko`rsatkichlar qiyosiy tahlili.Bugungi kunda dunyo bo`ylab jahon mamlaktlari doirasida ko`plab integratsion tashkilotlar, guruhlar va xalqaro tashkilotlarning ahamiyati ortib bormoqda. Xususan, BMT, BRICS, NAFTA, Yevro Ittifoq va ASEAN kabi turli mamlakatlar va jahon mamlakatlari birlashmalari turli maqsadlarda tashkil etilgan bo`lib, bu tashkilotlarga a`zo mamlaktlar doirasida iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy, qolaversa, xavfsizlik kabi juda muhim sohalarda hamkorlikni ko`rishimiz mumkin.

2000 yilda Xitoyning MDH (Rossiya bunga kirmaydi) davlatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi 2 mlrd. 547.5 mln. AQSh $ ni tashkil etgan. 1999 yilga nisbatan 70.5%ga o‘sgan. Shundan O‘zbekiston ulushi 95.5 mln. AQSh $ bo‘lib, 3.74 % ulushni tashkil etgan. MDH davlatlarining Xitoyga eksport xajmi 949.7 mln. AQSh $ (77.5%ga o‘sish), import esa 1 mrld. 697 mln. AQSh $ ( 62.4% o‘sish)ni tashkil etgan.

Hamkorlikning uchinchi bosqichi 2001 yildan ya’ni Shanhay Hamkorlik Tashkiloti tuzilgandan keyin boshlandi. Yuqorida ta’kidlanganidek, birinchi bosqida ikki yoqlama hamkorlikning qonuniy bazasi yaratildi, ikkinchi bosqichda esa iqtisodiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish boshlandi hamda uchinchi bosqichda esa asosiy e’tibor yo‘lga qo‘yilgan hamkorlikning nafaqat iqtisodiy  sohada balki, boshqa sohalarga ham ahamiyat berib uni yanada ham rivojlantirishga  qaratildi.

2001 yilda O‘zbekistonga Davlat kengashi rahbari o‘rinbosari Li Lansin boshchiligida delegatsiya tashrif buyurgan. Tashrif chog‘ida davlatlararo 5 mln. Yuan (625 ming AQSh $) badalsiz yordam shartnomasi imzolandi.  Bu mablag‘lar ilmiy – texnik va savdo – iqtisodiy hamkorlikni olib borish uchun yo‘naltirilgan. Shu yildan boshlab g‘arbiy sohada ham hamkorlik yo‘lga qo‘yila boshlandi. 2001 yilda harbiy delegatsiya tashrif buyurgan. Unda 1

[74] http://tass.ru/info/1956459

mln. AQSh $ miqdorida O‘zbekiston tomomnidan qurol sotib olish shartnomasi imzolangan edi.

Shu davrgacha savdo va iqtisodiy sohalarda 40 dan ortiq shartnoma va xujjatlar imzolangan. Ulardan eng asosiylari Toshkentda yangi metro liniyalari qurilishini moliyalashtirish va Toshkent halqaro aeroportini rekonstruksiya qilishni moliyalashtirish shartnomalaridir. 2001 yilgacha Respublika hududi bo‘ylab Xitoyning 100 dan ortiq korxonalari ro‘yxatdan o‘tgan. Faqat 40 tasi faoliyat olib borgan. 2001-yilda Buxoroda yirik ipak matolarini qayta ishlaydigan fabrikalar uchun yangi texnika va texnologiyalar sotib olish shartnomalari imzolangan. Buning asosiy maqsadi mana shu fabrikalarda ishlab chiqariladigan ipak matolarining sifatini oshirish va jahon bozoriga chiqishdan iboratdir.

2003 yilda ikki davlat tovar ayirboshlash hajmi 347.06 mln. AQSh $ni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 2002 yilga nisbatan 3 marta ko‘p demakdir. Shundan O‘zbekiston eksporti 200.27 mln. AQSh $ va importi 146.78 mln. AQSh $ni tashkil etgan. Eksporti hajmi o‘tgan yilga nisbatan 10 marttaga, import esa 40.6 %ga o‘sgan. 2003 yilda eksport tarkibini quyidagi mahsulotlar tashkil qilgan: Paxta va ipak tolasi 61.7 %, to‘quv mahsulotlarini tayyorlash uchun o‘simlik materiallari 7.2%, rangli metal va undan tayyorlangan mahsulotlar 10%, xizmatlar eksporti 5.4%, o‘g‘it 8.1%ni tashkil etgan. Import strukturasi quyidagi ko‘rinishga ega: qahva va choy 20.6%, trikotaj gazlamalar 11.5%, platmassa va undan tayyorlangan mahsulotlar 8.3%, organik kimyoviy birikmalar 6.7%, xizmatlar 3.4%, mexanik asbob – uskunalar 7.9%, kosmetika mahsulotlari 11.1% ni tashkil etgan.

Oxirgi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyoti o‘zining muhim rivojlanish bosqichiga o‘tdi. Mamlakatning YaIM o‘sishi bilan bir qatorda bevosita uning tashqi iqtisodiy munosabatlari ham kengayib bormoqda. Oxirgi 5 yil ichida O‘zbekistonning eksport operatsiyalari hajmi 30 % dan yuqori bo‘lgan ko‘rsatkichlarda o‘sib bormoqda. Bu O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotiga chuqurroq kirib borayotganligidan dalolat beradi. Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar jahon xo‘jaligida xalqaro iqtisodiy munosabatlarni faol olib borishda, bozor munosabatlariga o‘tish va bozor infrastrukturasini shakllantirish, sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish uchun muhim zamin yaratmoqda.

Ma’lumki, xalqaro iqtisodiy munosabatlarga kirishda tashqi iqtisodiy munosabatlarni rivojlanishida alohida mintaqa yoki mamlakatning iqtisodiyoti yoki tashqi iqtisodiy faoliyatini o‘rganmasdan turib, u bilan hamkorlik munosabatlarini yolga qoyish mumkin emas.

Xitoy 1978-yildan boshlab, barqaror rivojlanish tomon ilk qadamini bosdi. Iqtisodiy islohotlarning boshlanish davridan, ya’ni 1978-yil hamda 1997-yillar mobaynida YaIM hajmi 5,7 marta yoki yiliga o‘rtacha 9.6 % dan o‘sdi. Bu ko‘rsatkichga dunyoning hali hech qaysi mamlakati erishmagan. Ushbu davr mobaynida Xitoy YaIM ning aholi jon boshiga 4,4

martaga, tashqi iqtisodiy munosabatlari esa, bir necha barobarga oʻsdi. Koʻpgina iqtisodchi mutaxassislarning hisob – kitobiga koʻra, quyidagi asosiy omillar Xitoyning iqtisodiy moʻjizaga erishishiga sabab boʻlgandir:

1. Mamlakat iqtisodiy geografik jihatdan qulayligi;
2. Mamlakatdagi qazilma boyliklar zahirasining koʻpligi;
3. Qishloq xoʻjaligining yuksak darajada rivojlanganligi;
4. Xitoy mahsulotlarining eksport qilinishida “Demping” siyosatini mavjudligi;
5. 1990-yillarda eksportning oʻsib borishi;
6. Bozor iqtisodiyotiga oʻtishda “Xitoy modeli”ning ahamiyati;
7. 1980 – yillarda Xitoy hukumatining kuchli iqtisodiy islohotlarni olib borishi;
8. Mamlakatda ishchi kuchinining arzonligi va mehnat resurslarining yetarliligi (Mamlakatda 850 mln. kishi mehnatga yaroqli);
9. Xitoyning tashqi savdosida Gonkongning ahamiyati;
10. YaIM miqdorining yildan – yilga oʻsishi. 1978 - 1997 yillarda u yiliga oʻrtacha 10 %dan oʻsganligi;
11. Xitoyning “Ochiq eshiklar” siyosatini olib borishi. 1984 yilda mamlakatning 14 ta shahriga erkin port shahar lari maqomi berilganligi;
12. Ishlab chiqarish resurslarini doimiy oʻsishi;
13. Xorijiy sarmoyalarni va texnologiyalarni jalb qilinganligi;
14. Turizmning rivojlanishi;
15. Tadbirkorlik faoliyatining ahamiyati.

Yuqoridagi omillardan tashqari, hukumat tomonidan qabul qilingan va olib borilgan iqtisodiy dasturlar ham katta ahamiyat kasb etdi. 1979 yilda Xitoy Kompartiyasining raisi Den Syao Pen islohotlar jarayonining quyidagi nazariy asoslarini va tamoyillarini e’lon qildi:

1. Ishlab chiqarish kuchlari rivojiga halaqit bermaslik;
2. Reja asosida bozorni tashkil qilish;
3. Xitoy insonlari ongiga erk berish va ularni farovonligiga yordam berish.

Hozirgi kunda (2009) Xitoy Xalq Respublikasi oʻz YaIM hajmi boʻyicha jahonda AQShdan keyin 2 – oʻrinda turibdi va bu koʻrsatkich (sotib olish qobilyati pariteti boyicha) - 9 trln. AQSh $ tashkil etmoqda. Uning valyuta zahirasi 2,4 trln. AQSh $ ga tengdir. Bir yilda u oʻrtacha 250 mlrd. AQSh $ ga koʻpaymoqda. Tashqi savdo aylanmasi qarayib 2 trln. AQSh $ ni tashkil etmoqda. Xitoy sanoatining metallurgiya tarmogʻida 15 ming, oziq – ovqat sanoatida 70 mingdan ortiq turli korxonalar faoliyat olib bormoqdalar. Mashinasozlik sanoat tarmogʻida 55 mingdan ortiq mahsulot turlari ishlab chiqarilmoqda. 1949-yildan to hozirgi kunga qadar sanoat tarmoqlarida 400 mingdan ortiq yangi korxonalar tashkil etildi. Den Syao Pen tomonidan

olib borilgan islohotlar jarauoni samarali va to‘g‘ri yo‘l tanlanganligi orqali amalga oshirilganligi isbotlandi. Xukumat mamlakat YaIMni 2010-yildagi hajmini 2000-yilga nisbatan, - 2 martaga, 2020-yilda esa, 4 marttaga oshirishni rejalashtirdi. 2015-yilga kelib, mamlakatning YaIM hajmini 15 trln. AQSh dollari miqdoriga hamda uning aholi jon boshiga to‘g‘ri kelishini esa 10 ming AQSh dollariga oshirishni maqsad qilib qo‘ydi.

## 11.2. Xitoy-O‘zbekiston eksport import statyalari ular iqtisodiy hamkorligining kelajak istiqbollari

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, uning tashqi savdo aloqalarini jadal sur’atlarda o‘sishini ta’minlab kelmoqda. Xususan, mamlakat eksport salohiyatini oshirish, mahalliy kompaniyalar uchun xorijiy bozorlarda tajriba orttirishga ko‘mak beradi, bu esa, o‘z navbatida, jahon savdosida raqobat ustunligini anglatadi.

Mana shu islohotlar natijasida, 2019 yilda O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi $31 645,8 mln.ni tashkil etib, u o‘tgan 2018 -yilning shu davriga nisbatan, $8 577,1 mln.ga yoki 37,2%ga o‘sdi. Undan eksport hajmi $13 677,0 mln. ni (45,5%), import esa, $17 968 mln.ni (31,5%) tashkil etdi va tashqi savdo balansida $4 291,7 mln. passiv balans yuzaga keldi.

2019-yil bo‘yicha mamlakatni eksport qilinayotgan tovarlar va xizmatlar tarkibini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, u 2018 yilga nisbatan, ahamiyatli tarzda o‘zgarmagan. Lekin, shuni ta’kidlash joizki, barcha eksport qilinayotgan tovarlar va xizmatlarning turlari hajmi, kimyo sanoati mahsulotlari bundan istisno, 2019-yilda ko‘payganligidandir.

Rasm – 11.2.1.

**O‘zbekiston Respublikasining asosiy tashqi savdo hamkorlari[76]**

**TOP -10 (2018 y.)**




[76] Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике, Внешнеторговый оборот Республики Узбекистан (за январь-сентябрь 2019 года*), O’zstat,1- 2 c.

**O`zbekiston Respublikasining so`ngi yillardagi tashqi iqtisodiyfaoliyati o’zgarishlari tahlili quyidagicha yuz berdi:**

Tashqi savdo aylanmasi. Hukumatning tashqi iqtisodiy faoliyat borasida so‘nggi yillarda amalga oshirayotgan eksportni rag‘batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta’minlash maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar 2019 yil yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasini (matnda TSA) 42,2 mlrd. AQSh dollariga yetishini va 2018 yilga nisbatan 8,7 mlrd. AQSh dollariga yoki 26,2 % ga oshishini ta’minladi.

Ushbu natija mamlakat tarixida eng yuqori ko‘rsatkich sifatida qayd etildi. TSAda eksport hajmi 17,9 mlrd. AQSh dollariga (o‘sish sur’ati – 128,0 %) va import hajmi 24,3 mlrd. AQSh dollariga (o‘sish sur’ati – 124,9 %) yetdi. Hisobot davrida 6,4 mlrd. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

O‘zbekiston Respublikasining TSA dinamikasi tahlili 2019 yilda o‘tgan yilga nisbatan eksport va import hajmlarini o‘sishini ko‘rsatdi. 2017 yilga nisbatan TSA 1,6 barobarga oshdi va import (1,9 barobar) esa eksportga (1,3 barobar) nisbatan tezroq o‘sdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan beshta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Afg‘oniston (612,2 mln. AQSh dollari), Qirg‘iziston (529,0 mln. AQSh dollari), Tojikiston (191,4 mln. AQSh dollari), Fransiya (65,7 mln. AQSh dollari) va Eron (15,0 mln. AQSh dollari). Qolgan 15 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

O‘zbekiston jahonning 193 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (18,1 %), Rossiya Federatsiyasida (15,7 %), Qozog‘istonda (8,0 %), Koreya Respublikasida (6,5 %), Turkiyada (6,0 %), Germaniyada (2,3 %) va Qirg‘izistonda (2,0 %) qayd etilgan. (Jadval 11.2.3.ga qarang)

TSAning choraklar kesimidagi tahlili ular orasida mavsumiylik borligini ko‘rsatdi va eng yuqori TSA 12 mlrd. AQSh dollari bilan 2019 yilning III choragiga to‘g‘ri kelib, 2017-2018 yilllarning mos davriga nisbatan 1,5 barobar oshganini ko‘rsatdi.

2017-2019 yillardagi tashqi savdo balansi hajmlari o‘sishiga alohida e’tibor berish talab etiladi. Ya’ni, 2018 yilning III choragida eng yuqori passiv tashqi savdo balansi kuzatilib, 2017 yilning III choragidagi aktiv tashqi savdo balansiga nisbatan 2,6 mlrd. AQSh dollarga oshgan va 2019 yilning IV choragiga kelib passiv savdo balansi 2,1 mlrd doll. tashkil etdi.

Eksport. mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlarni nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar eksporterlar sonini 5895 taga yetkazdi va ular tomonidan 17,9 mlrd. AQSh dollari qiymatdagi (2018 yilga nisbatan o‘sish 28,0%) tovar va xizmatlar eksport qilinishini ta’minladi.

Jadval 11.2.1

**O'zbekiston Respublikasi bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori bo'lgan davlatlar** *(2019 yil yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari, ulush %da)*

*2-jadval*[8]

| Top 10 davlatlar | TSA | Eksport | Import | Ulush, % |
|---|---|---|---|---|
| Xitoy Xalq Respublikasi | 7 620,9 | 2 519,0 | 5 101,9 | 18,1 |
| Rossiya Federatsiyasi | 6 626,9 | 2 492,5 | 4 134,4 | 15,7 |
| Qozog'iston | 3 367,8 | 1 429,7 | 1 938,0 | 8,0 |
| Koreya Respublikasi | 2 755,4 | 93,5 2 | 2 661,8 | 6,5 |
| Turkiya | 2 525,2 | 1 203,6 | 1 321,6 | 6,0 |
| Germaniya | 980,1 | 53,9 | 926,2 | 2,3 |
| Qirg'iziston | 829,1 | 679,0 | 150,0 | 2,0 |
| Afg'oniston | 618,0 | 615,1 | 2,9 | 1,5 |
| AQSh | 596,2 | 29,1 | 567,1 | 1,4 |
| Turkmaniston | 541,9 | 145,1 | 396,8 | 1,3 |

Manba:https://go.mail.ru/redir?type=sr&redir=eJzLKCkpKLbS18-t1EvPL9MrrdLPr9JPL8nWTcsvSs1Mz9MtKUpMSdVNzs8DMpJLivVTUtMSS3NK9DPzUlIrGBgMzUyMjI3MjYwsGfo9Mh5m6sw7soaN7ZPaFelkAO_eIMI&src=28006ec&via_page=1&user_type=29&oqid=78a6cf27b0c7cf6a

Import. respublikada import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirish va ishlab chiqarishni mahalliylashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar importni keskin oshib ketishiga yo'l qo'ymadi. Shu bilan birga, mamlakatga kiritilayotgan salmoqli investitsiyalar natijasida so'nggi yillarda import hajmi oshib kelayotganligini kuzatish mumkin. Jumladan, hisobot davrida import hajmi 24,3 mlrd. AQSh dollarni (2018 yilga nisbatan 124,9 %) tashkil etib, valyutani erkinlashtirish boshlangan davrga nisbatan 1,7 barobarga oshgan. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari (43,8 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (13,2 %) hamda xizmatlar (10,0 %) hisobiga to'g'ri keldi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishganidan keyin rivojlanish yo'lini kuzatar ekanmiz O'zbekiston hukumatining bu borada olib brogan islohotlari o'z samarasini yaqqol ko'rsatdi. Hukumatning olib borgan siyosati, ayniqsa tashqi iqtisodiy faoliyati olib borgan ishlari tahsinga loyiqdir. MDH mamlakatlari bilan investitsiyaviy, savdo-iqtisodiy hamkorlik yildan-yilga rivojlanmoqda. Bu albatta, mamlakatimizda yaratilayotgan qulay investitsion muhit, xorijiy korxonalar uchun yaratilayotgan shart-sharoit va imtiyozlarning mahsulidir. O`zbekiston o`z taraqqiyot yo`lidan dadil borar ekan, xorijiy davlatlar bilan, xususan, MDH mamlakatlari bilan o`zaro teng manfaatli iqtisodiy aloqalarni rivojlantirib boradi. Bu albatta, respublikamiz iqtisodiyotining

jadal rivojlanishida, O`zbekistonning rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy olishida muhim omil bo`lib xizmat qiladi.

O`zbekiston va MDH mamlakatlari o`rtasidagi iqtisodiy aloqalar tahlil qilinganda quyidagi xulosalarga kelindi:

- Hamkorlikning ikkinchi davri (2000-2019-yillar)da iqtisodiy aloqalarning o`sishi kuzatildi.

-O`zbekistondan MDH davlatlariga asosan xom ashyo resurslari va tayyor mahsulotlar, oziq-ovqat mahsulotlari eksport qilinmoqda;

- O`zbekistonga MDH davlatlaridan asosan tayyor mahsulotlar import qilinmoqda;

- O`zbekiston va MDH mamlakatlar bilan neft-gaz sohasidagi hamkorlik istiqbolli yo`nalishlardan hisoblanadi.

Aytish lozimki, 2019-yilda O‘zbekiston o‘zining tovarlar va xizmatlar bo‘yicha 7 ta yirik eksport hamkorlari orasida eksport ulushida Tojikiston o‘z o‘rnini Eronni surib chiqish orqali tikladi. Shular qatorida Qirg‘iziston ham, yildan-yilga Eron va Afg‘onistondan o‘zib, o‘z pozitsiyasini mustahkamlamoqda. Buni dalili sifatida, quyida O‘zbekiston Respublikasining eksport tarkibining uch yillik (2017-2019-yillar bo‘yicha) rivojlanish dinamikasini ko‘rib chiqamiz.

Jadval -11.2.2.

2017-2019-yillardagi O‘zbekiston Respublikasining eksport tarkibi dinamikasi, %da

| Mahsulotlar turi | 2017 y. | 2018 y. | 2019 y. |
|---|---|---|---|
| Jami | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| Paxta tolasi | 2,9 | 1,8 | 1,7 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 6,3 | 8,7 | 8,4 |
| Kimyo mahsulotlari | 6,9 | 7,3 | 4,9 |
| Energiya tashuvchilar va neft mahsulotlari | 12,4 | 20,4 | 16,1 |
| Qora metallar va ulardan mahsulotlar | 1,2 | 1,6 | 1,7 |
| Rangli metallar va ulardan mahsulotlar | 5,6 | 5,2 | 5,2 |
| Mashina va uskunalar,shu jumladan ehtiyot qismlari | 2,7 | 1,6 | 2,3 |
| Tekstil va uning mahsulotlari | 9,0 | 10,3 | 8,6 |
| oltin | 30,2 | 16,6 | 29,1 |
| xizmatlar | 19,7 | 24,0 | 18,6 |
| boshqalar | 3,1 | 2,5 | 3,4 |

Manba: Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике, Внешнеторговый оборот Республики Узбекистан (за январь-сентябрь 2019 года*), O’zstat,1- 2 с.

Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish bir qator afzalliklarga ega:

Birinchidan, Respublikamiz geografik nuqtai nazardan anklav davlat hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, O‘zbekistondan bevosita eng arzon transport turi hisoblangan dengiz yo‘llariga chikish imkoniyati mavjud emas. Bu o‘z navbatida transport xarajatlari bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqaradi hamda mahsulot tannarxi va uning raqobatbardoshlik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo-iktisodiy aloqalarni rivojlantirish esa yirik transport xarajatlarini talab qilmaydi.

Ikkinchidan, Markaziy Osiyo davlatlari va Xitoy O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlar uchun yirik tashqi bozor hisoblanadi. Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan tayyor tovarlar energiya va material sigimining yuqoriligi, sifat darajasining nisbatan pastligi ularning raqobatbardoshlik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli tayyor mahsulotlarni uzoq xorij mamlakatlariga sotish ancha murakkab. Ichki bozor yetarli darajada to‘yinmagan Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa, O‘zbekiston tayyor mahsulotlari raqobatbardosh hisoblanadi.

Uchinchidan, mintaqa mamlakatlarida bir turdagi tovarlarni katta miqdorda ishlab chiqarish imkoniyatlari mavjud. Paxta, meva, sabzovot, kumir, gaz, neft, oltin mintaqadagi davlatlarning deyarli barchasida ishlab chiqariladi. Ana shu tarmoqlarda mahsulot miqdori va sifatini belgilash bo‘yicha kelishuvlarga erishish, bu mahsulotlarni qayta ishlash va ularni eksport qilish bo‘yicha yagona siyosatni yurgizish maqsadga muvofiq. Agar mintaqadagi respublikalar jahon bozoriga alohida chiqsalar ular o‘zaro raqobatchilarga aylanadilar, ularning birgalikda chiqishi mamlakatlar iqtisodiyotini bozor konyunkturasiga bog‘liqligini pasaytiradi va mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshiradi.

To‘rtinchidan, Markaziy Osiyo mamlakatlari va Xitoy bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish boshqa sohalarda ham hamkorlik munosabatlarining faollashuviga olib keladi. Natijada yirik mablag‘lar talab etuvchi ulkan investisiya loyihalarini amalga oshirish uchun moliyaviy mablag‘larni birlashtirish imkoniyati yuzaga keladi.

Shular bilan bir qatorda, sanoat quvvatlarini modernizatsiyalash va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishda, ushbu korxonalarga yaratilayotgan qulay sharoitlar evaziga, hamda ularga qator soliq va bojxona imtiyozlarini berish natijasida milliy mahsulotlar eksport hajmini oshirishga sharoitlar payso bo‘ydo bo‘lmoqda, ular esa, o‘z navbatida, mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorda mustahkam o‘rinlarni egallashga yordam beradi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, uning tashqi savdo aloqalarini jadal sur’atlarda o‘sishini ta’minlab kelmoqda. Xususan, mamlakat eksport salohiyatini oshirish, mahalliy kompaniyalar uchun xorijiy bozorlarda tajriba orttirishga ko‘mak beradi, bu esa, o‘z navbatida, jahon savdosida raqobat ustunligini anglatadi. Mana shu islohotlar natijasida, 2019 yilda O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi $31 645,8 mln.ni tashkil etib, u

o‘tgan 2018 -yilning shu davriga nisbatan, $8 577,1 mln.ga yoki 37,2%ga o‘sdi. Undan eksport hajmi $13 677,0  mln.ni (45,5%), import esa, $17 968 mln.ni (31,5%) tashkil etdi va tashqi savdo balansida $4 291,7 mln.passiv balans yuzaga keldi.

Jadval -11.2.3.

O‘zbekistonning tovarlar va xizmatlar bo‘yicha 7 ta yirik eksport hamkorlarining mamlakat ekrportidagi ulushi.%da

| Hankor mamlakatlar | 2017 yil | 2018 yil | 2019 yil |
|---|---|---|---|
| Rossiya | 1-o‘rin -16,3% | 2-o‘rin -16,3% | 2-o‘rin -13,1% |
| XXR | 2- o‘rin-15,1% | 1- o‘rin-20,8% | 1- o‘rin-16,4% |
| Qozog‘izson | 3-o‘rin -8,1% | 3-o‘rin -11,1% | 3-o‘rin -8,5% |
| Turkiya | 4-o‘rin -6,6% | 4-o‘rin -6,6% | 4-o‘rin -6,4% |
| Afg‘oniston | 5-o‘rin -4,5% | 5-o‘rin -5,0% | 6-o‘rin -3,1% |
| Eron Tojikiston | 6-o‘rin -1,7% | 7-o‘rin -1,7% | 7-o‘rin -1,7% |
| Qirg‘iziston | 7-o‘rin -1,5% | 6-o‘rin -2,0% | 5-o‘rin -3,9% |

